O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA’LIM,
FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

RUXSORA IMOMOVA

RAUF PARFINING BADIIY MAHORATI

Monografiya

“Anorbooks” nashriyoti
Toshkent — 2023

www.ziyouz.com kutubxonasi

UO‘K 821.512.133.09-1
KBK 83.3(5O‘)

I-47
Imomova, Ruxsora.
Rauf Parfining badiiy mahorati [Matn] / R. Imomova — Toshkent: Anorbooks, 2023. — 144 b.

Monografiyada Rauf Parfi she’riyatining badiiyat masalalari va insoniylik haqidagi, insonlik mohiyati haqidagi fikrlari hamda Vatan tushunchasining ijodkor ijodidagi yangicha talqinlarini, shoirning individual mahoratini, uning faqatgina o‘ziga xos bo‘lgan obrazlar olami borligini, bu obrazlar shakllantirgan g‘oyalar mohiyatini to‘la yoritib beriladi va talqin qilinadi. Shuningdek, shoir she’riyatidagi o‘zbek adabiyotiga olib kirilgan yangi janrlar aniqlangan va ular tabiatiga xos xususiyatlar yoritilgan.

Monografiya adabiyotshunos olimlar, oliy o‘quv yurtlarining o‘zbek filologiyasi fakultetida ta’lim olayotgan talabalar hamda adabiyotshunoslik yo‘nalishida ilmiy izlanish olib borayotgan tadqiqotchilarga mo‘ljallangan.

Mas’ul muharrir:
Dilrabo Quvvatova,
filologiya fanlari doktori, professor

Taqrizchilar:
G‘ayrat Murodov,
filologiya fanlari doktori,
Buxoro davlat universiteti professori

Umida Rasulova,
filologiya fanlari doktori,
Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti professori

ISBN: 978-9910-9625-3-0

© Ruxsora Imomova, 2023
© “Anorbooks”, 2023

www.ziyouz.com kutubxonasi

MUQADDIMA

Bugungi adabiy jarayonda qaysi shoir yoki yozuvchilarimizning asarlarini tahlil etish va uning badiiy-g‘oyaviy jihatlarini o‘rganish hamda ularning ijodini xalqqa va o‘sib kelayotgan yosh avlodga yetkazish, zamonaviy adabiyot janrlari va turlari haqida tasavvurlarni hosil qilish adabiyotshunoslar bo‘ynidagi eng muhim vazifa sanaladi. O‘zbek adabiyotidagi ilk yangilanishlarning ko‘pchiligi XX asr adabiyoti davrida kirib kelganligi sababli ularning kirib kelishiga hissa qo‘shib yangi ijod qirralarini namoyon qilgan shoirlarimiz she’riyatini tahlilga tortib barchaga yetkazish lozim. Aynan shunday otashnafas ijodkorlardan biri — Rauf Parfi (O‘zturk) she’riyatini chuqur o‘rganish va uning anglanilmagan qirralarini ochib berish shu maqsadimizning asosiy yo‘nalishlaridan biridir. Rauf Parfi O‘zturk (Tursunali Parfiyev) ijodi, uning hayoti va jo‘shqin faoliyati bilan bog‘liq ma’lumotlarni turli adabiy jurnallar va gazetalarda e’lon qilingan maqolalarda va ilmiy ishlarda uchratamiz. Shu paytga qadar shoirning juda ko‘plab she’riy to‘plamlari chop qilingan. Shoir Bayronning “Manfred”, Nozim Hikmatning “Inson manzaralari”, Karlo Kladzening “Dengiz

www.ziyouz.com kutubxonasi

xayoli" va boshqa jahon she'riyati klassiklarining she'rlarini o'zbek tiliga tarjima qilgan. Rauf Parfi nasr bilan ham shug'ullangan. "Ayrim hikoyalarini matbuotda e'lon qilishga ham ulgurgan edi. "Muhojir" degan ro'mon qoralagani haqida eshitganmiz".[1] Mashhur olimlar va professorlar shoir kitoblariga so'zboshi yozishgan. Mashhur shoir, tarjimon, tanqidchi Vafo Fayzulloh "Turkiston ruhi" saylanmasiga ("Men suvman, hali hech kim ichmagan..."), "Sakina" to'plamiga N. Rahimjonov ("Eng go'zal sir") so'zboshi yozgan. No'mon Rahimjonovning Rauf Parfi hayotiga bag'ishlangan maxsus "Rauf Parfi shaxsiyati, she'riyati" monografiyasini yozgani haqida ham olim maqolalarida ma'lumot mavjud[2]. Shoir va uning ijodi bo'yicha qilingan Ahmad A'zam ("Kunduzning rangi"), Olim Oltinbekov ("Rauf Parfi nechanchi yil tug'ilgan?", "Xokkuning ilk tarjimoni", "Rauf Parfi va jahon she'riyati"...), Xonimqul Tojiyev, Obidaxon Fayzullayeva, Nurulloh Oston, Ilhom Ahror va boshqa fan nomzodlari-yu yozuvchi, jurnalist, shoirlarning maqolalaridan fikrlarimiz isboti sifatida foydalandik. Bundan tashqari bizning qo'limizda hali nashr qilinmagan "So'nggi darvesh" nomli Alisher Nazar tomonidan yig'ilgan maqola, ocherk, esse, bag'ishlovlar to'plami mavjud. Unda Rauf Parfi haqida zamondosh ijodkor va olimlar fikrlari bayon etilgan. Rauf Parfi shaxsiyati haqida uning turmush o'rtog'i Sulhida Parfiyeva tomonidan yozilgan "Kunlarim" xotiralaridan ham bilib olishimiz mumkin. Ammo bu qo'lyozmalar hali nashr qilinmagan.

[1] Рауф Парфи. Туркистон руҳи. — Тошкент: Шарқ, 2013. — B. 14

[2] No'mon Rahimjonov. Raufning so'nggi kuni. "So'nggi darvesh" kitobidan (kitob nashr qilinmagan).

www.ziyouz.com kutubxonasi

I BOB. IJODKOR SHAXSIYATI VA DUNYOQARASHI

1-fasl. Rauf Parfi shaxsiyati va dunyoqarashining shakllanish omillari

Har qanday davr adabiyotining rivojida muallif, kitobxon, davr tushunchalari muhim oʻrin tutadi. Adabiyotning rivojiga davr oʻzgarishlari, davr mafkurasi, kitobxon ma'naviyati, kitobxonning estetik idrok darajasi va, shuningdek, muallif dunyoqarashi, estetik ideali kabilar katta ta'sir koʻrsatadi. Keraksiz narsalarning unutilishga mahkumligi tabiiy qonuniyat boʻlganidek, san'at asarining ham mangulikka daxldorligini har bir davr, zamon, tuzum, umuman, insoniyatning yashash tarzi, ruhiyatiga xos, mos kela olishi belgilaydi. Bugungi adabiy tanqidchilik adabiyot tarixida mavjud asarlarni baholashda ana shu jihatga asosiy e'tiborni qaratmoqda, ya'ni manbaning abadiyatga daxldor fazilatlari nimada, u nimasi bilan umuminsoniyat (balki qaysidir bir mafkura, tuzum yoki qaysidir bir shaxslarning manfaatini himoya qilish emas) qalbini rom eta oladi. Ma'lumki, irodasi mustahkam, voqea-hodisalarga munosabati qat'iy ijodkorgina borliqni ijtimoiy-siyosiy

www.ziyouz.com kutubxonasi

mafkuraviy qarashlarga tobe qilib qoʻymaydi, balki oʻzligini saqlab qolishga hamisha intilib ijod qiladi va natijada, ijod olamida davr chigʻirigʻidan ijodkorning oʻzligi, metin irodasi kabi uning aksi ifoda topgan badiiy asari ham zamonlarga bemalol dosh berib oʻta oladi.

Rauf Parfi she'riyati aynan ana shunday davr chigʻirigʻidan oʻtgan va oʻz ichki dunyosi orqali davr oʻzgarishlarini ham haqqoniy tarzda baholay olgan ijod olami boʻldi desak, adashmaymiz. Adabiyot doimo bitta soʻz bilan yonma-yon keladi, nazarimda. Bu soʻz — adolat, haqiqat. Rauf Parfi Oʻzturk asli Fargʻonaning Vodil qishlogʻida dunyoga kelgan[1]. Shoir tugʻilish yilini dastlabki chop etilgan tarjimayi holida 1940-yil deb keltirgan. Ba'zilarning rivoyatlariga koʻra, 1939-yil 27-sentabrda Toshkentning Yangiyoʻl tumani Shoʻralisoy qishlogʻida Parfi Muhammad Amin va Sakina Isabek qizi xonadonida tavallud topgan. "Sakina" toʻplamiga yozilgan soʻzboshida N.Rahimjonov ham 1943-yilning 27-sentabrida Shoʻralisoyda tugʻilganligini ta'kidlaydi. Rauf Parfi ilk marotaba "Tasvir" kitobiga kiritgan oʻzining "Eng uzoq yozilgan tarjimayi holim" she'rida "Tavalludim: 40..."[2] degan edi. Oradan oʻn sakkiz yil oʻtib — 1991-yil "Yoshlik" jurnalining 9-sonida qayta nashr etilgan ushbu she'rning oʻsha birinchi satrini: "Tavalludim: qirq uch, mezonning yigirma yettisi..." shaklida oʻzgartirib taqdim etadi. Aynan shu jurnalning 1993-yil 1-sonida bosilgan "Jajji darslik" rukni ostidagi "Tarjimayi holim"da esa yana shu sana — 1943 takrorlanadi.

[1] Рауф Парфи. Туркистон руҳи. Тошкент: Шарқ, 2013. — B.7.
[2] Рауф Парфи. Тасвир. — Toshkent: "Адабиёт ва санъат" нашриёти, 1973. — B.4.

www.ziyouz.com kutubxonasi

ENG UZOQ YOZILGAN TARJIMAYI HOLIM

Tavalludim: 43, mezonning yigirma yettisi,
Otam bog‘bon, savodsiz, bizningcha,
Onam pillakor, savodsiz, bizningcha[1].

Shoir otasining ham yangicha va eskicha savodi bo‘lib, fors-tojik, usmonli turkcha, rus tillarini yaxshi bilgan. Chor hukumati davrida turli mahkamalarda tilmochlik ham qilgan. Keyinchalik Toshkentning Sho‘ralisoy qishlog‘iga oilasini olib ko‘chib keladi. Hamma hujjatlarda o‘zini “savodsiz” deb yozdiradi. Bu davr taqozosi bilan oilasini qatag‘on siyosatidan asrash uchun qilingani aniq. Onasi Sakina aya ham shu shafqatsiz tuzumning zulm-u zo‘ravonliklaridan qalbi yara, hayotida yo‘qotishlari bir talay, akalari boy bo‘lganliklari sababidangina otib tashlangan edi. Abdurauf tug‘ilgan paytda otasi 50 yoshning ustida bo‘lgan. Ungacha tug‘ilganlar turmagan. Bundan zada bo‘lgan ota-ona kayvonilarning gapi bilan bolani Tursunali deb atay-dilar. O‘sha davrdagi jamoa xo‘jaligi temir daftariga Tursunali Parfiboy o‘g‘li deb yoziladi. Haqiqiy hayotini she’riyatda deb bilgan shoir o‘zini anglagan palladan yozganlarining ostiga “Rauf Parfi” deb imzo chekadigan bo‘ldi. Ungacha ayrim she’rlariga “Chaqmoq”, “Orzumand” g‘azallariga “Parfiy” taxalluslarini qo‘ygan[2].

Rauf Parfining ilk she’rlaridan e’tiboran erk istagi va ozodlik ruhi, jamiyatdagi zulmga, ijtimoiy adolatsizlikka, nohaqlikka qarshi isyon g‘oyalari yetakchilik qiladi.

[1] Рауф Парфи. Туркистон руҳи. — Тошкент: Шарқ, 2013. — B.20.
[2] O‘sha manba. B.9.

www.ziyouz.com kutubxonasi

Chiroqni tinglagansiz, odamlar,
Qarshisida egib turing bosh,
Sizni kuylar u tongga qadar,
To navbatni olguncha quyosh,
Chiroqni tinglagansiz, odamlar.

Ramzli obrazlarga yuklangan mazmunni oʻqish unchalik qiyin emas. Tun — mustamlaka zulmatiga choʻmgan jamiyat, chiroq — odamlar ong-u tafakkuriga fikr yorugʻligini eltishga uringan shoir. Chiroq faqat soʻylayotgani yoʻq. U hasratga botib kuylayapti[1].

Rauf Parfi XX asr oʻzbek poeziyasida fikr bilan kechinmaning sintezini badiiy san'at darajasiga koʻtargan, sof tuygʻuning tabiiy oqimini, qabariq majoziy ifodasini omuxtalashtirgan betakror uslub yaratdi. Rauf Parfining "Vatan haqida Bernd Iyetshga maktubim", "Tangri sogʻinchi", "Sunbula", "Qora devor" asarlarini olasizmi, Vetnam urushi haqidagi she'rlarinimi, tanka, xokku — uchliklarinimi, ularning barchasida adolatsizlikka, haqsizlikka nisbatan nafrat, gʻazab tuygʻulari limmo-limdir[2].

Rauf Parfi zamondoshlari xotirlashicha, darveshvash, oʻta sofdil inson boʻlgan. U oʻzi yashayotgan zamon bilan suv va olovdek munosabatda boʻlgan. Rauf Parfi oʻn toʻrt kunlik oyday she'riyat osmonini yoritib yurgan yillari Oʻzbekiston Lenin komsomoli mukofotining laureati boʻlmagan shoir-yozuvchi qolmadi hisob. Shunda soddadil muxlislardan biri: "Rauf aka, nega siz komsomol mukofotining laureati emassiz?" deb soʻraydi. Ustoz javob qiladi: "Axir kimdir laureat boʻlmasligi ham kerak-ku! Oʻsha odam menman!"

[1] Рауф Парфи. Сакина. — Тошкент: Муҳаррир, 2013. — B. 8.
[2] Mirvaliyev S .Oʻzbek adiblari. —Toshkent: Fan, 1993. — B.128.

www.ziyouz.com kutubxonasi

Rauf Parfi ko‘p yillar ilgari bir she’rida hazil aralash “Shoirga buyurtmalar ko‘p bo‘ladi, ammo shoir nuqul o‘zi haqida yozib keladi” degan edi. Balki shuning uchun bo‘lsa kerak, shoirning kitoblaridagi nafaqat har bir satr, hatto har bir so‘z: “Men Rauf Parfi!” deb turadi. Ammo “Kommunistlar gullatmish, bu ozod Osiyoni!” degan satrlarning kallasiga mushtlasangiz ham ular hech qachon “Men Rauf Parfi!” demaydi. Hamma gap shunda. Buni qarangki, yozuvchilar uyushmasining katta minbaridan bu mashhur qo‘shiqning so‘zlari o‘qilganda Rauf Parfi ham orqaroqdagi qatorlarning birida o‘tirgan ekan. Shu zahoti yonida o‘tirgan odamga eshitganini quyidagi tahrir bilan o‘qib bergan: “Kommunistlar bulg‘atmish, bu go‘zal Osiyoni!” Shoirdan shoirning, ayniqsa, Rauf Parfining farqi shu tariqa bilinib qoladi.

Biz bu to‘rt kunlik dunyoda uyimizni, mashinamizni bezashga zo‘r beramiz. Rauf Parfi esa yuragiga naqsh berdi. Shuning uchun shoir bitgan har bir so‘z javohirga aylandi. Uning har bir kitobi mening ko‘zimga javohir to‘la sandiqqa o‘xshab ko‘rinadi[1]. Sulhida Parfiyeva Rauf Parfi haqidagi xotiralarini biz bilan o‘rtoqlashar ekan, uning g‘oyatda halol, o‘jar inson ekanligini ta’kidlagandi. Turmushlarida shoirning haqiqatparastligi, har kimni ham yoqtirib, hamma bilan ham kelishib ishlab ketavermagani sababli og‘ir kunlari bo‘lganini eslaydi. Sulhida Parfiyeva shoirning oxirgi kunlarining ham guvohi bo‘ldi. “Shunday insonlar bo‘lar ekan hayotining ichida, bir bora urilib ketsang, bu sirli chaqmoqning sehrli tovushi ostida qolib ketar ekansan”[2].

[1] Razzoq Tojiddin. Dunyolarni mehrga to‘ldiraman. // “Yoshlik” jurnali, 2011-yil, 11-son. www.yoshlikjurnali.uz.

[2] Parfiyeva Sulhida. “Kunlarim” kitobidan (kitob nashr qilinmagan, qo‘lyozma variant Sulhida Parfiyevadan olingan).

www.ziyouz.com kutubxonasi

Shoirlik kasb emas, tirikchilik uchun she’r yozilmaydi. Tirikchilik uchun adabiyot oyoqosti qilinmaydi. Shoirning darveshdan farqi bo‘lmas. Haqiqiy darveshsifat umr kechirish, aynan, Rauf Parfiga xos bo‘lgan edi. Kunlarini Sulhida opa shunday eslaydilar: “...keyin eskirib qolgan salafan so‘mkada joylashgan, tirkchiligimiz uchun sotmoqchi bo‘lgan kitoblarini olib chiqib ketdilar”.



Chapdan: Nabijon Boqiy, Mahmud Sa’diy, Rauf Parfi, Tursunali Akbar.

O‘tgan asrning 60-70-yillari o‘zbek she’riyati uchun eng muzayyan palla bo‘ldi. Bu hodisaning hayotbaxsh omillarini bugungi kun adabiyotshunosligi chuqur o‘rganishi kerak. Zero o‘sha davrda Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, Omon Matjon, Halima Xudoyberdiyevalar o‘zbek she’riyati maydonida bo‘y ko‘rsatdilar. Ana shular qatorida Rauf Parfining o‘rni alohida edi. Taniqli shoir Mirpo‘lat Mirzo “Rauf Parfi davrimizning yagona daho shoiri” badiasida shoirni shunday eslaydi: “Rauf akaning yana bir fazilati o‘qigan kitoblarini do‘stlariga sovg‘a qilishni yaxshi ko‘rardilar.

www.ziyouz.com kutubxonasi

(Bu chindan ham noyob fazilatmi?) Jahon mumtoz shoirlarining she'riy to'plamlarini hotamtoylik bilan hadya qilib yuboraverardilar! O'zida bunday jasorat bo'lmaganlar hamisha uning bu himmatidan lol qolardi. Lekin o'sha lol qoluvchi kitobparastlar to'plagan kitoblarini o'qirdilarmi-yo'qmi — bu, albatta, bizga qorong'i. Lekin Rauf aka hadya qilgan kitoblarini allaqachon ko'ngliga jo qilgan bo'lardi. Shu boisdan ham uning she'riyatida turli xil uslublarni uchratamiz. U o'z ijodiga sarbastni, yapon she'riyati uslublarini, sonetni dadil olib kirgan shoir edi. Kunlardan-bir kuni bolalar shoiri Safar Barno, yozuvchi Zohir A'lamlar bilan Rauf aka yashaydigan xonadonga (umri davomida bunday xonadonlari — oila go'shasi uning uchun bittagina bo'lmadi) uni yo'qlab borgandik. Uy bekasi bizni lutf bilan kutib oldi. Darhol dasturxon tuzaldi. Bu asnoda uy sohibasi Rauf akani ham mayda-chuyda yumushlar uchun bir necha bor bezovta qildi: bolani ushlab turing, dedi, mehmonlarga choy quyib bering, dedi... Bildikki, Rauf aka anchadan buyon uyga qamalib qolgan. Mavridi kelganda Zohir aka tagdor hamdardlik bilan so'radi:

— Rauf, ahvollaring qalay o'zi?..

— Shu-shu-shu... — dedi tabassumini lab uchida tutib Rauf aka. Bu uning "Nima qilay — chorasizman!.." degani edi. Bir payt uy sohibasi oshxonada o'ralashayotgan damda Rauf aka daf'atan yorildi: "Amallab meni bu yerdan olib chiqib ketinglar!" U deyarli mo'ltirab boqdi. Uning "dardini uqqan" do'stlar — bir nimani bahona qilib, Rauf akani ham tashqariga chorladik. "Tezda qaytish" sharti bilan uy sohibasidan ruxsat tegdi. Rauf aka biz bilan tashqariga chiqarkan, zina yo'lagida xonadoni eshigiga o'girildi-da,

www.ziyouz.com kutubxonasi



Chapdan: Rauf Parfi, Shukrullo, Turob To‘la, Ahmad A’zam

uyiga qarab: “Qafasdan chiqqan qush qaytib kelurmu!..” deb xitob qildi. Uning bu “xitobidan” hammamiz gurros kuldik. Albatta, buni biz hazil deb o‘ylagandik. Yo‘q, hazil emas ekan. Rauf aka shu ketganicha uch-to‘rt oy yo‘q bo‘lib ketdi. Keyin bilsak, umuman, shahardan bosh olib chiqib ketgan ekan...”[1] Rauf Parfi ruhi hech qanday tutqunlikka dosh berolmaydigan qush kabi bo‘lgan. Uning zamondoshlari doimo yaxshilik qilib yuruvchi, ortiqcha mol-dunyoga qiziqmaydigan, shuhratparastlik begona bo‘lgan shoir ekanligini ko‘p maqolalarida ta’kidlashadi. Rauf Parfi ijod olamiga qadam qo‘ygan davr sovet tuzumining “gullab-yashnab” hukm surayotgan vaqtiga to‘g‘ri kelgan. Turkistonning haqiqiy ijodkor farzandlaridan biri bo‘lmish haqparvar shoir esa o‘zi bunday nohaqliklardan uzoqda

[1] Mirpo‘lat Mirzo. Rauf Parfi davrimizning yagona daho shoiri. // Yoshlik, 2009, №4. — B.28.

www.ziyouz.com kutubxonasi

tutib ijod qilolmaydi. Shoir doimo kinoya, pichinglar bilan insonlar orasida ham o‘z fikrlarining g‘ayriodatiy ma’nolarga boyligi bois ajralib turgan. Aynan shunday mardonavor haqiqatlar uchun, insonlarga mavjud jamiyat tuzumi sharoitida bunday achchiq, “keraksiz” gaplarni gapirish “tilini tiyolmaslikka” kirgan va she’rlarda ko‘rsatish esa ijodkorning boshiga ancha-muncha balolarni, nafaqat ijodkor, balki uning atrofidagilar ham bu balolardan bebahra qoldirilmaydigan zamon edi. Shoirning ko‘plab kitoblari nashr qilinmay qo‘ygan. Aynan uning eng katta kitobi bo‘lgan “Sabr daraxti” to‘plami ham bosmaxonalarda to‘rt yil qolib ketgan. Rauf Parfining “Qrim xayollari” turkumida shoirning “tilini hech qachon tiyib bo‘lmasligi”ning guvohi bo‘lamiz. “Oddiy kasrlar” she’rida insoniyatning “ko‘richak” yarasini davolaydigan bir buyuk jarrohning kerakligini Leninning mamlakatlar tepasiga “xaloskor” tarzda kelganiga qiyoslaydi. Ammo bu bilan muammo tugagan yo tugamaganini aytmaydi-yu , shunday satrlar keltiradi: “Lekin hali og‘riydi ipak bilan tikilgan yerlar”. Nashriy manbalar bu she’rning ba’zi o‘rinlarini almashtirib bosishadi.

Vatanidan judo bo‘lgan xalq.
Stalinni asragan zamon...

holatidagi “Stalinni” so‘zi “yovuzlarni” so‘ziga almashtirilgan[1].

“Bog‘chasaroy fontani” she’rining nomlanishini Olim Oltinbek shoir o‘zining poetik maqsadini yashirish uchun shunday qilganini va urush paytida o‘z farzandlaridan judo bo‘lib yig‘layotgan ona Vatan timsolini yaratgan, deb

[1] Olim Oltinbek. Qrim xayollari. // www.kh-davron.uz

www.ziyouz.com kutubxonasi

talqin qiladi. Aynan shu she'rning sobiq sovet nashrlaridan tushib qolgan, tog'rirog'i, tushirib qoldirilgan bandlar aks etgan qo'lyozma variantlarini ham to'la shaklda tiklashadi. Vatanning musibatlarini ko'rish va ko'rsatish uchun ilohiy iste'dod bilan dunyoga kelgan shoir Rauf Parfi har bir satri bilan kuyunib yashaydi. Shoirning atrofida u bilan birga xalq uchun jon koyitadigan safdoshlari ko'p bo'lgan. Turkumga kirgan "Hijratda ona allasi" she'ri sarlavhasidan keyin "1944" va "Haydar Usmonga" degan bitiklar bo'lgan[1]. Bu kishining kimligi haqida esa N.Rahimjonov "Sakina"ning izohlarida shunday ma'lumot beradi: "Taniqli Haydar Osmon o'g'li Qrim viloyatining Beshqurt-Voqif qishlog'ida tug'ilgan. 1960–65-yilning boshlarida ToshDUning filologiya fakulteti jurnalistika bo'limida tahsil oladi. O'qishga qatnash qulayligi boisidan bo'lsa kerak, Rauf Parfi kursdosh birodari Haydar Osmon bilan birga Eski shaharning Qoratut, Sebzor mahallarida ijarada ham yashashgan".

Rauf Parfi ikkinchi jahon urushi va undan keyingi yillardagi xalqning turmush tarzi haqida haqiqatlarni yozgan. Ochlik, o'lim, notinchlik, kasalliklardan ezilgan xalq irodasi nurab borayotgan edi. Yuqorida keltirilgan she'rdagi kabi urushdan 10-15 yil o'tib ham xalqning yarasi tuzalib qolmagan yoki tuzatilmagan. Tog'ay Murodning "Bu dunyoda o'lib bo'lmaydi" asarida tasvirlangan och ona va qo'lidagi och go'dagining ahvoli go'yo qrimlik ayollar taqdiri sifatida shoirning turkum she'rlariga ko'chganday. Turkumga mansub she'rlarning o'zgartirilgan, qisqartirilgan variantlari shuni ko'rsatadiki, o'z vaqtida sovet senzurasiga uchragan. Mazmun Rauf Parfining hali talabalik pay-

[1] Olim Oltinbek. Qrim xayollari. // www.kh-davron.uz

www.ziyouz.com kutubxonasi

tidayoq sovet mafkurasiga va uning dohiylariga qanday munosabatda bo‘lganidan dalolatdir. “Bog‘chasaroy fontani” she’ridagi mana bu satrlarlardan shoirning adolatga qanchalar tashna ekanini ko‘ramiz:

Ayting menga qayda adolat,
Qayda, ayting, insoniy huquq.
Bu ne holdir, qandayin holat,
Qrim boru qrimliklar yo‘q[1].

Quvilgan qrimliklar mavzusi o‘zbek she’riyatida Rauf Parfi tomonidan boshlab berilgan va keyinchalik boshqa shoirlar ijodida ham namoyon bo‘la boshlagan. Shoirning adolat, erk, vatanparvarlik haqidagi g‘oyalari “Tavba”, “Ayt, bulbul, bormidir ona maskaning”, Cho‘lpon-u Qodiriylarga bag‘ishlangan bag‘ishlovlar va ko‘plab she’rlarida, ayniqsa, “Adashgan ruh” dostonida o‘z aksini topgan.

Rauf Parfi o‘z zamonasining Qodiriysi edi. Haqiqiy shoirni uning zamonasi tarbiyalaydi. Zamona esa ikki xil ijodkorni yetishtiradi. Biri haqiqatni ayta oladigan, “haqiqat orqasinda bosh ketsa, “ih” demaydigan” ijodkor bo‘ladi, ikkinchisi zamonabop maddoh bo‘lib yetishadi. Rauf Parfi O‘zturk birinchilar safidagi ijodkor edi.

Ijodning sehrli dengizida suzuvchi va doimo asl gavharlarni qidiruvchi, ming to‘fon-u bo‘ronlarga dosh berib, “haqiqat” deya hayqiruvchi ijodkor Rauf Parfining har bir satridan ham dunyoning kimlardir jim qolib aytolmay ketgan dardlarini, kimlarningdir “haqiqat”larini topishimiz mumkin. Rauf Parfi doimo o‘lim haqiqatini san’at bilan bog‘lay olgan va san’at uchun o‘lmoq uning haqiqati edi. Haqiqat

[1] Рауф Парфи. Туркистон руҳи. —Тошкент: Шарқ, 2013. —B.86.

www.ziyouz.com kutubxonasi

yo‘lida bo‘lgan insongina Ollohni yuragida saqlaydi. Rauf Parfi u bilan bo‘lgan bir suhbatda shunday degan edi: “Aslida hammaning yo‘li bitta — Ollohni anglash”[1].

Abdulla Qodiriy, Fitrat, Cho‘lpon kabi ijodkorlarimiz mana shu yo‘ldan borishgan. Rauf Parfi ham Qodiriy bilan bir xil fikrda, ya’ni u ham “Haqiqat yo‘lida bosh ketsa “ih” deydirg‘an yigitlardan emas”. Qodiriyning “Ahvolimiz” g‘azalida yurtning ahvoli bayon etiladi. Agar bundan keyin ham shu tarzda yashalsa, bir-birimizni otish darajasigacha borajagimiz aytiladi:

Ko‘r bizim ahvolimiz g‘aflatda qanday yotamiz,
Joyi kelgan chog‘ida vijdonni pulga sotamiz.

Rauf Parfining Qodiriy she’riga yozilgan muxammasi shunday boshlanadi:

Yil o‘tub, yillar o‘tub tobora loyga botamiz,
Iblisning suprasida vahdat mayini totamiz,
Onomiz balki gumroh, balki so‘qirdir otamiz,
Ko‘r bizim ahvolimiz g‘aflatda qanday yotamiz,
Joyi kelgan chog‘ida vijdonni pulga sotamiz.

G‘azalda bizga ona va ota bo‘lgan Vatan obrazini ko‘ramiz. Keyingi bandda mana shu obraz o‘z nomi bilan kirib keladi:

Bizga or bo‘ldi nahot, yo Rab, Vatanni kuylamak...

Qodiriyning so‘nggi baytdagi fikrlarini Rauf Parfi shunday to‘ldiradi:

[1] Haq yo‘li, albatta, bir o‘tulgusi. (Shoir A’zam O‘ktamning Rauf Parfi bilan suhbati) //Mushtum, 1990 yil, № 22. www.yoshlikjurnali.uz

www.ziyouz.com kutubxonasi

Aqrabolar — koʻz ochiq, dunyoyi dun foniy, biling,
El uchun, Alloh uchun, jonni tiling, tanni tiling,
Kelingiz, ul kun oʻtdi, qullik, asirlikni siling,
Kelingiz, yoshlar, ziyolilar, bu kun gʻayrat qiling,
Uxlaganlarni agar Qodir esak uygʻotamiz.

Qodiriy millat gʻamini yeb yashagan ijodkordir, u har bir satrida, har bir soʻzida xalqni uygʻoqlikka chorlaydi. Rauf Parfi yashagan davrda ham Qodiriy davridagidek ahvol hanuz davom etayotgandi. Garchand millat yaxshigina savod chiqargan boʻlsa-da, hali oʻz haqini toʻla talab qila oladigan darajada emas edi. Rauf Parfi "Qodir" day ijodkor boʻla oldi. Abdulla Oripov, Erkin Vohidov singari ijodkorlar shoirning zamondoshlaridir. Ular ijod qilgan siqiq muhitda rost soʻzni aytish hamma shoirning ham qoʻlidan kelavermas edi. Shoirning butun hayoti ismiga munosib kechgan. Uning asl ismi Abdurauf boʻlgan. Ammo she'rlarida Rauf deb qoʻllaydi. Vafo Fayzulloh ham shoir ismini toʻliq qoʻllamasligini dahriy tuzumning tazyiqi yoʻl qoʻymagani bilan izohlaydi. Qodiriy haqiqatni aytgani uchun tahdidlar-u ta'qiblar ostida qolgan edi. Rauf Parfi ham soxta dohiylarni alqashdan bosh tortgan haqiqatgoʻylardan edi. U Toshkent davlat dorulfununining filologiya fakulteti jurnalistika boʻlimida oʻqigan. Ammo — soxta fan markscha-lenincha falsafa asoslaridan imtihon topshirishni istamagani uchun diplom ololmagan ("Turkiston ruhi" kitobiga yozilgan soʻzboshidan). Rauf Parfining koʻpchilikdan farqi ham shu ediki, oʻz davrida anglagan haqiqatlaridan doimiy zugʻumlarga qaramay oxirigacha koʻz yummadi, nafsining qutqusiga uchmadi. Shoir bir she'rida yozgan edi:

www.ziyouz.com kutubxonasi

Nechun iymonini sotib yashaydir,
Nechun qulligidan bexabar har qul,
Nechun zulm yashar, zulm oshaydir?!
Haqsiz olomonning tirikligi shul.

A.Qodiriy esa iymonini sotib, zulm ichra qulligidan bexabar yashovchi xuddi shunday xalqni "Fikr aylagil"[1] she'rida quyidagicha tasvirlagan:

Qildilar bir-biriga dushmanlikni barcha vaqt beibo,
Bir-birini aybini ochmoqqa kirishdilar bajo.
Tushsa pul qo'lig'a gar soatcha to'xtab turmagay,
Chunki nodonni qo'lida musht tufroqdir suman.

Qodiriy ham millatni uyg'onishga chorlagan edi va:

Kelingiz, yoshlar, ziyolilar, bu kun g'ayrat qiling,
Uxlaganlarni agar Qodir esak uyg'otamiz,

— degan.

Rauf Parfi ham shunday haqiqatlar uchun xalqning uyg'onishini tilab keskir tanqid yozadi:

Qachon uyg'onadir xaloskor daho?
Bir jahon quyoshga chulg'anib kelur!...
Jahon ganjiga shoh erur ajdaho... yoki shoir:
Uyg'onmadi tog'lar, daryolar,
Uyg'onmadi bu qaro...,

— deb yozadi.

Rauf Parfi shunchalar haqiqatparvar shoir ediki, yozganlarining hammasi ham o'z davrida bosilavermagan. A.Qodiriy ham: "Bizning topqanimiz achchiq-tiziqqa keta-

[1] Abdulla Qodiriy. To'la asarlar to'plami (1-jild). — Toshkent: Fan, 1995. — B. 13.

www.ziyouz.com kutubxonasi

di!” deb kinoya qilib, maqolaning oxiriga “Mushtum”ning topqani turkistonliklarning tumshug‘iga ketadi” tarzidagi, ya’ni uning yozganlari boshiga balo bo‘lib yog‘ilishini aytadi. Rauf Parfi ham:

Qirq yil she’r yozdim, Ey voh, bo‘lmadi,
Rosa yigirma yil yeldim, yugurdim.
Ammo topilmadi biror mard shoir,

— deya kinoya qiladi. Shoirning yozganlari doim ham hammaga ta’sir qilavermagan. Chunki xalqning fikrlari tuban edi. Shoirning jonkuyarligi ustidan kulganlarga murojaat qilib, oxiri shunday yozadi:

Yuzimni, og‘zimni yopdi soqollar,
Maymunlar yig‘ladi, kuldi shoqollar:
Sichqonlar yeb ketdi oxir she’rimni.

A.Qodiriy ham “Nima qayoqqa ketadir?” maqolasining oxiriga quyidagilarni yozib qo‘yadi: “MUSHTUM” Yozg‘anlaringizning hammasi ham havog‘a ketadir! — deb biz ham muhrimizni bosdiq”[1].

Ko‘rinadiki, Rauf Parfi she’riyatidagi ifoda etilgan haqiqatga intilish, adolat g‘oyalari Abdulla Qodiriy she’rlari va publitsistik maqolalari ta’siri sezilib turadi.

Rauf Parfi ijodi murakkabliklarga to‘la, ramziy ifodalarni anglash o‘quvchilarga og‘irlik qiladi, degan fikrlarni ko‘p eshitamiz. Ammo bu murakkablik emas, badiiyat estetikasining go‘zal namunalari bo‘lish bilan birga shoir she’rlarida yuksak badiiy did namoyon bo‘ladi. Uni o‘qish uchun adabiyotni uning yo‘nalishida anglash lozim. Rauf Parfi shoir

[1] O‘sha manba. — B.120.

www.ziyouz.com kutubxonasi

sifatida qo‘liga qalam olishdan avval o‘quvchi sifatida mukammallashgan ijodkor.

Rauf Parfi bilan yozuvchi Nabijon Boqiy 1995-yil 8-martda suhbat qurishadi. Ikkala tomon: savol beruvchi ham, javob beruvchi ham badiiy asarga yuragi bilan yondashadigan insonlar. Yozuvchi Nabijon Boqiy, asosan, hujjatli qissalari bilan tanilgan ijodkor bo‘lib, o‘zbek adabiyotida tanqidchi sifatida ham o‘tkir “gulqaychili” inson. Rauf Parfi atrofida juda ko‘p shogirdlari bo‘lgan, hatto maqolada u yashaydigan uyning “Karvonsaroy” deb atalishi savolga qistirib ketilgan. Nabijon Boqiy bu davr yosh ijodkorlarining shoir atrofida yig‘ilishi, unga havas qilishi va uning ijodidan ilhomlanishini taqlidchilik deb ataydi va shoirdan bu shakldagi paydo bo‘layotgan adabiyotga qanday qarashini so‘raydi gaplari zamirida.

Rauf Parfi adabiyotda taqlidchilik qay darajada bo‘lishi kerakligini shunday tasvirlaydi: “Taqlidchilikka kelsak, bu tabiiy o‘tkinchi jarayon. Aytmoqchimanki, vaslingga yetolmadim deb o‘tib ketmas, visoliga ham yetar, ya’ni taqlid tugar. Shoir aytmoqchi, polizingizda sabzi-piyozingiz mo‘l bo‘lsa, biror kimsadan qizg‘onib o‘turmaysiz. Biroq texnik nuqtayi nazardan taqlidning ilmiy inkishofi haqida o‘ylash kerak. Ya’ni, deylik, “Ko‘nglim to‘la g‘ash” misrasiga “qonlarga to‘ldi bag‘rim” deb taqlid qilishi kerak, bo‘sh kelmasligi kerak taqlidchi”[1].

Taqlid dastlab badiiy mukammal ijodni kashf qilmasligi mumkin, ammo shu mukammallik sari qo‘yilgan birinchi qadam bo‘la oladi.

[1] Nabijon Boqiy. Sho‘ralisoydan chiqqan karvon. // “Toshkent haqiqati” gazetasi, 1995-yil 29-mart soni.

www.ziyouz.com kutubxonasi



O‘zbekiston davlat san’at muzeyida Rauf Parfi sharafiga qo‘yilgan byust.

Rauf Parfi ijodi mumtoz adabiyot namunalaridan yaxshigina oziqlangan. Ham mumtoz, ham zamonaviy adabiyotni bilgan ijodkor boshqa shoirlar ijodining qadrini ham yaxshi anglagan. Masalan, shoir Oybek she’riyati haqida Ibrohim Haqqul bilan suhbatda shunday adabiy hukmlarni aytadi: “Oybekda ko‘ngilga tugun tashlaydigan she’rlar yo‘q hisobi. Aksincha, u har bir she’rda ilg‘oq she’rxon dilini tugunlardan xalos eta boradi. Oybek g‘oyaviy-badiiy izlanishlarning murakkab va mashaqqatli yo‘llarini bosib o‘tgan shoirdir”[1].

Oybek she’riyatidagi soddalik misralarning badiiyligini ham ta’minlay oladigan darajada yaratiladi. Lirikasining yoqimliligi sababi ham kitobxon xayolida hisni butun bo‘y-basti bilan uyg‘ota olganida edi. Bu mahorat esa Sharq klassik adabiyoti ta’siridan yuzaga kelganini ta’kidlaydi Rauf Parfi. Bu klassik adabiyot Oybek uchun balki Navoiy, Fuzuliydan boshlangandir, lekin oxiri u o‘zi jon-jahdi bilan himoya qilgan shoir Cho‘lpon bilan tugashi aniq.

[1] Rauf Parfi. Hukmnoma. — T.: “Akademnashr”, 2023-yil. — B.43.

www.ziyouz.com kutubxonasi

Oybek yaratgan liro-epik tur uning shu iste'dodini isbotlaydi. Oybek erkni, adolatni isyonga burkab aytmasa-da, tuyg'ulari uning ruhiyati sotsialistik realizmga taslim bo'lmaganini aytib turadi. Rauf Parfi bu borada Oybekning quyidagi satrlarini keltiradi: "Erkinlikdan boshqa bormi bir go'zal?"[1] Haqiqatan ham, Oybek talqinida erkdan ortiq, erkdan muqaddas go'zallik bo'lmagan. U erk haqida "zaruriyat kishanlari"ni uzib, parchalab fikrlash shijoatidagi jasur tafakkurli shaxs edi. Umuman olganda Oybek hayotining so'ngida qanday ahvolda yashaganligi ham bu jasoratning sababi edi, desak ham adashmaymiz.

Rauf Parfi yashagan davr adabiyotida sotsialistik realizm kundan-kunga shoirlar ijodini mahv etib borayotgandi. Rauf Parfini nega yoqtirmadilar? Chunki u bu ohanglarga so'z yozishni istamadi. Umuman, istamaslik u yonda tursin, shoir bu haqida o'ylab ham ko'rgani yo'q. Uning ijodi ana shu muhitga bo'lgan isyondan tug'ilgan edi. Necha asrlik o'zbek poeziyasining qaysi saroblik tomon ketayotganini ko'rib turgan edi. U ham xalqning va adabiyot ahlining ham ko'zini ochib, dunyoga berkinib olgan uyi derazasidan bosh chiqarib qarashini istayotgandi. Cho'lpon va Fitratlar bu adabiy yangilanishni boshlab bergan bo'lsa, Rauf Parfi davom ettirdi. Mumtoz turkiy poeziyadek mukammal asarlar yaratilayotgan adabiyotning o'rnini davrboz shig'irlar egallashiga shoir ko'z yumib turolmasdi. Aynan davr she'riyati va Rauf Parfi lirikasi xususida gap ketsa adabiyotshunoslar xuddi shunday fikr bildirishadi. No'mon Rahimjonov Rauf Parfini ham yaqindan bilgan do'st, ham adabiyotshunos sifatida quyidagi fikrlarni bildirgan: "Rauf Parfi lirikasida-

[1] Shu manba, B.60.

www.ziyouz.com kutubxonasi

gi SO‘Z, QUSHCHA, BULOQ, DARAXT, NAY, NUR singari obrazlar tagdor, purma’no mazmun ifodalashiga ko‘ra timsollarga aylanayotir. Ular Turonzamin, Turkiston xalqlarining tarixiy hayoti sahifalarini suratlantirayotir. Millat taqdirida o‘chmas iz qoldirgan va keyingiyuzyilliklarda mudragan jo‘mardlik, jangarilik, qahramonlik ruhini qayta tiriltirish, oyoqqa qo‘yish, faollikka da’vat Rauf Parfining Turon-Turkiston mavzusidagi she’rlarining yetakchi xususiyatidir”[1].

Rauf Parfi ham o‘z davri she’riyati haqida Qo‘chqor Norqobil fikr so‘raganida shunday deydi: “Qarang, qo‘lingizda bir narsa bor. (Shoir qo‘lini hovuch qilib ko‘rsatadi.) Hozir uchib ketishi kerak. Uni avaylash zarur. Shuning uchun qo‘lingizdagi... qushchaga butun borlig‘ingiz bilan berilasiz. Turkiy xalqlar she’riyati ichida o‘zbek poeziyasi ham shu hodisa bilan bog‘liq. Chunki u yo‘qotyapti. Yo‘qotish jarayonidagi og‘riqli tovushlar bugungi she’riyat. Uchib ketayotgan narsa bugungi she’riyat”[2].

Shoirlarning sovet davridagi ikki guruhga ajralib qolishini ham tepadagi kuchlarning qo‘li deb biladi shoir. To‘g‘ri-da, majburlashmasa, tazyiq o‘tkazishmasa yoki aldovlar bo‘lmasa qaysi vijdonli va haqiqatni anglab turgan shoir “davrbop” she’rlar yozadi? Ko‘pchilik mukofotlar uchun yoki ong darajasi shu qadar bo‘lganligidan bu ishga qo‘l urdi, ammo ular shoir emas-da. Kimlardir esa oilasi, yaqinlari uchun omon qolishga harakat qildi, yashashga harakat qildi. Oqibatda ikkita guruh bir-biriga qarshi kurashlar ham olib bordi, bir-birini “fosh” qila boshladi.

[1] No‘mon Rahimjonov. Mustaqillik davri o‘zbek she’riyati. — Toshkent: Fan, 2007. — B.101.

[2] Rauf Parfi. Hukmnoma. — T.: Akademnashr, 2023-yil. — B.66.

www.ziyouz.com kutubxonasi

Mana shu voqealarning tub zamirini shoir shunday baholaydi: “Agar yozuvchilar uyushmasi bo‘linmasa xalqqa fikr berardi. Shu maqsadga erishildiki, Yozuvchilar uyushmasining ham, Adiblar ittifoqining ham yuzi qolmadi”[1].

Mana shunday og‘ir vaziyat balki ramziy she’riyatning kirib kelishini jadallashtirgandir. Bu qandaydir o‘zbek adabiyotining birdaniga jahon adabiyotiga yaqinlashib qolishi, xohish-istaklar tufayli emas, davr taqazosi bilan ham shakllanayotgan uslub edi. Rauf Parfi simvolistik o‘zbek she’riyatini imo-ishora she’riyati degan edi: “Bizning she’rlar turmaning ichida yoziladigan she’r edi. To‘rtta odam tushunadi, qolganlar-chi?..”[2]

Ijtimoiy-siyosiy holat adabiyotga ham ta’sir qiladi. Umuman, barcha qit’alarda ham shunday kechgan bu holat. Ramziy poetikaning paydo bo‘lishining boshqacha sababi yo‘q. Bunday fikrlay olgan insonlar millatning bugunini ham ertaga nima bo‘lishini ham yaxshi anglab turganlardir. “Millatni anglagan, dunyoni tushungan odamni asrashimiz kerak. O‘zgacha fikrlaydigan odamlar zulm ostiga olinmasligi kerak endi. Xalqimiz ko‘p narsalarning fahmiga yetishi kerak endi”[3].

Har qanday davlatni qo‘lga olishning birinchi usuli uning ziyolilarini yo‘qotishdir. Bizning adabiyotimizga ham xuddi shu usulni qo‘llashdi. O‘tgan asrda qo‘rquv shakllantirgan masxaraboz adabiyot xalqqa ham singdirib borilib, avrab kelingan. Asqar Mahkam, Rauf Parfi, Shavkat Rahmon, Abdulla Oripov kabi insonlar mana shu holatni anglovchi insonlarimiz edi. Bular Rauf Parfi ta’kidlaydigan “sir”

[1] Rauf Parfi. Hukmnoma. — T.: Akademnashr, 2023-yil. —B.70.
[2] Shu manba, B.72.
[3] Shu manba, B.73.

www.ziyouz.com kutubxonasi

ni anglaydigan ta'madan yiroq kishilar. Shoir aytganidek, ta'ma bor joyda san'at o'ladi. San'atni anglaganlar yaratadi. Shomirza Turdimov Rauf Parfiga shunday savol beradi: "San'atning vazifasi nimadan iborat o'zi?"

R.P: San'atning vazifasi o'limni anglatish. Shakli qanday bo'lishidan qat'iy nazar.

Sh.T: O'lim-chi?

R.P: O'lim — bu san'at.[1]

Bu so'zlarda naqadar katta yuk bor. Shoir butun umr o'limni anglab yashagan. O'limni anglagan inson vijdoniga xiyonat qilmaydi. Buni, albatta, Rauf Parfi aytganidek, O'lim! Og'ir! Go'zal! San'atkor biladi. Tamagir bilmaydi.

Rauf Parfi she'riyatining, umuman, adabiyotning asosiy g'oyasi doimo erk bo'lgan. Shoir shunday "erkchi" ijodkorlar haqida fikr bildirar ekan, Cho'lpon, Fitrat, Qodiriylarga ergashganini aytadi. Shoir she'rlari uyg'otadigan siyosiy taassurot bu davr va uning maslagi qarama-qarshi kelib qolgani bilan bog'liq. "She'riyatda yolg'on gapirish mumkin emas".[2] Yolg'onni aralashtirmay jamiyatning dardini anglash, darhaqiqat, siyosatdan yiroq narsa. Rauf Parfi yolg'on so'zlashni istamadi, xolos. "Yolg'on — iste'dodning kushandasi".[3]

She'r adabiyotning katta mas'uliyat talab qiladigan yuragi. Uni yashatish uchun ham, ilohiy kuch ham idrok kuchi kerak. Birinchisi she'rni yozishga turtki bo'lsa, ikkinchisi "bu she'rga o'xshadimi?" deya uni taftish va tahlil qilishi lozim! Bu Ozod Sharafiddinov ta'biri bilan aytgan-

[1] Shomirza Turdimov. Tut gullagan payt. // "Suhbatdosh" gazetasi, 1999-yil, fevral soni.

[2] Rauf Parfi. Hukmnoma. — T.: Akademnashr, 2023-yil. — B.100.

[3] Rauf Parfi. Hukmnoma. — T.:Akademnashr, 2023-yil. — B.135.

www.ziyouz.com kutubxonasi

da “She’r ko‘p, shoir-chi?” fikrini beradi. Har qanday she’r yozgan shoir bo‘lmaydi va o‘z navbatida shoirlarning ham har qanday she’rlari haqiqiy she’r bo‘lolmasligi aniq. Rauf Parfi she’r masalasiga jiddiy qaraydigan adabiyotshunos. Uning o‘zi biladigan she’r texnikasi, she’r madaniyati bor. Shoir misralarda har bir so‘zning yonida uni himoya qiladigan qorovuli bo‘lishi kerakligini ta’kidlaydi. Ya’ni so‘zlar bir-birini ushlab turishi kerak. Shunchalar bir-biriga bog‘langan bo‘lishi kerakki, bir so‘z ham tushib ketolmasin. Shoirlik mukammal yozish bilan birga haqni yozish edi O‘zturk uchun. Nozim Hikmat fikriga monand shoirlikni Rauf Parfi shunday biladi: “Bu qonli kasbni nega biz oldik... demak, hamisha kunlarimiz og‘ir kechadi. Bo‘ynimizga olishimiz kerak”[1].

Shuning uchun ham shoir adabiyotni ikkita deb bilardi: “Insonlarga to‘g‘ri xizmat qiladigan adabiyot bor, yo‘q narsa bor, bu adabiyot hisoblanmaydi, yolg‘on bo‘ladi, ya’ni mana bu yerda odam och-yalang‘och turibdi-da, u baxtli yashayapti degan adabiyot adabiyotmas”[2].

Rauf Parfi dahosi haqiqatga sig‘inadigan ibodatgo‘y edi. Uning she’riyati Haqqa sajda qiladi va adolatni so‘raydi. Shoirning butun umri xalqqa kerak bo‘lgan ozodlik g‘amida o‘tdi, haqiqiy ozodlik g‘amida. Uning kuchli adabiyoti kuchli xalq, kuchli dunyo bo‘lishini istardi. U yaratgan she’riyatning asosiy qirrasi ham o‘tkirligida, kuchliligidadir.

[1] Rauf Parfi. Hukmnoma. — T.: Akademnashr, 2023-yil. —B.126.
[2] Rauf Parfi. Hukmnoma. — T.:”Akademnashr”, 2023-yil. —B.130.

www.ziyouz.com kutubxonasi

2-fasl. Rauf Parfi she'riyatining mavzular olami

Rauf Parfi she'riyati XX asr adabiotining yangi va yorqin sahifasini tashkil etadi. Bu jihatdan shoir she'rlari mavzu doirasining serko'lamligi, mazmundorligi va metaforalarga boyligi bilan ajralib turadi. Uning Vatan, tabiat, muhabbat lirikasi o'ziga zamondosh va davrdosh bo'lgan ijodkorlarga hamohang, ayni choqda o'ziga xosdir. Zero, bu dunyoda osmonday, dengizlarday, yerday, borliqday cheksiz narsalar ham borki, bu Olloh orqali inson tafakkuri bilan yaratiluvchi she'riyat olamidir. Har qanday shoir har qanday narsadan, hodisadan ilhom oli, har qanday holat u uchun mavzu bo'lishi mumkin. Shoir she'riyatining mavzular olami paydo bo'lishiga, asosan, quyidagi holatlar sabab bo'ladi:

1. Ijtimoiy muhit
2. Shaxsiy dunyoqarash
3. Shoir dunyoqarashi oziqlangan manbalar
4. Shoir xarakteri

Adabiyotda mavzu turlari, asosan, ikkiga ajratiladi:

1. Ijtimoiy mavzular
2. Abadiy mavzular

1. Rauf Parfi she'riyatida ijtimoiy muhit mavzusi

Ijtimoiy mavzuda qalam tebratmagan shoir bo'lishi mumkin, ammo abadiy mavzular bo'lgan Muhabbat, Ishq, Ona, Yurt, Istiqlol, Vatan, Do'stlik, Tabiat va boshqalar haqida har bir shoir qalam tebratadi. Shunday shoirlar bo'ladiki, bitta mavzu ular ijodining asosiy qirrasini ochib berishga qodir, hatto shoir biografiyasi ham shu mavzular-

www.ziyouz.com kutubxonasi

dan ayon bo‘lishi mumkin. Badiiy tahlil jarayonida ijodkor ijodining xoslangan mavzularda kechishi o‘sha shoirning boshqalardan ajralib turuvchi individual xususiyatini ham namoyon qiladi. Masalan, Navoiy ijodida ilohiy ishq, Mashrab ijodida tasavvufiy mavzular, Bobur ijodida ajralib turuvchi Vatan mavzusi yoki zamonaviy adabiyot yetakchi shoirlarining ba’zilarining o‘zigagina xos bo‘lgan mavzu va obrazlar olami (Abduvali Qutbiddinda ishqning o‘zgacha talqinini, Sirojiddin Sayyidda Vatan mavzusining yetakchiligini, Zebo Mirzo ijodida ayriliq va ayol dardi mavzulari, Shavkat Rahmon va Rauf Parfi she’riyatida adolat, Turkiston, turkiylar mavzulari asosiy o‘rindadir)ni sezamiz.

Rauf Parfi so‘zi keskir, haq gapni hayiqmay ayta oladigan shoir edi. biz yuqorida sanab o‘tgan shoir she’riyati mavzulariga ta’sir qiluvchi omillardan biri ijtimoiy sharoit Rauf Parfini jamiyatga shoir qilib bergan asosiy omil edi. Ijodkorning yetuk ijod davri kommunizm g‘oyalari, sotsialistik realizm bilan to‘lib toshgan adabiyotga to‘g‘ri kelgan. Ammo shoir o‘ziga xos ramziy obrazlari bilan har kim ham ayta olmaydigan haqiqatlarni ochiq namoyon qilgan. Uning ijtimoiy mavzudagi “Adashgan ruh” dostoni, “O‘ynayotgan ayol”, “Qora devor”, “Tavba”, “Bir muxbirga”, “Mudrab yotar bunda daraxtzor” kabi she’rlaridagi qasdga tikilgan pafosni boshqa ijodkordan topish qiyin. Masalan, uning “Tavba” she’rida inson va uning yaratilishi, Yaratuvchi haqida borayotgan she’r syujeti oxirgi sonetning so‘nggi tersetlariga kelib bu dunyo insonlarining asl basharalarini ochib tashlaydigan satrlar mavjud:

Vahshiy dunyo, qonxo‘r dunyo quturdi,
Inson faryodiga to‘ldi koinot.

www.ziyouz.com kutubxonasi

Nabiylar, dohiylar, shoirlar turdi,
Chora, chora deya so‘rdilar najot...
Allohim, bilursan qay sori ketdim,
Allohim... men o‘ldim... Men Senga yetdim.

“Bir muxbirga” she’rida esa haqiqatni sotib kun ko‘ruvchi ikkiyuzlamachi insonlarning asl qiyofasi chizilgan:

Jangari zo‘r muxbir demishlar seni,
O‘zingga qulmishsan, o‘zingga xoqon —
Ozod so‘z —Haqiqat, Haqning maxzani
Oxir parchalanur bu g‘ul, bu — yolg‘on.

Muxbir obraziga “o‘zingga qulmishsan” deb aytganda shoir bu insonning nafsiga qulligini nazarda tutgan. Haqiqat shunchalar umrboqiydir, bir kuni bunday insonlarning yolg‘onlari, haqiqatga kiygizgan g‘ullari parchalanadi.

Yolg‘onning tiyg‘ida o‘ylab qadam bos,
Kimlarni yalaysan, kimni chopasan,
O‘zingni aldaysan, qorningni xolos,
Haqiqatni aldab nima topasan?!

Haqdan qochgan inson faqatgina o‘zini aldagani qoladi. Yolg‘on bir tig‘ kabidir, bir kuni u o‘z kishanbandini qiymalab tashlaydi. Shoirning yana shunday so‘zni qilich qilib dunyoga hayiqmay o‘qtalgan misralari “Qora devor” she’rida ayon bo‘ladi:

Qora devor qari sotqinlar yurti,
Tilsiz, vatansizlar vatani qoldi.
Sanqigan jasad-la telbarib yurdim,
Aqlimga ro‘yolar kalolat soldi.

www.ziyouz.com kutubxonasi

She’r mustaqillikdan keyingi 1997–2003-yillarda yozilgan, ammo o‘sha davrda ham ijodkorga erkin va ochiq gapirish mumkin emas edi. Vatan mustaqil bo‘lgani bilan uning bag‘rida birorta arzigulik Qodiriyday, Cho‘lponday, Usmon Nosirday mard kishilar qolmagandi. O‘z jonining tashvishida yurgan biror haqiqatgo‘y zot borki, tilini tiyib yurishga majbur edi. Bu mustaqillikni esa Rauf Parfi mustaqillik deb hisoblamagan. Shunga yarasha ma’lum siyosiy va ijtimoiy holatlar yuz berib turganki, shoirning tili yana zaharga aylangan:

Zaharga aylandim, og‘ochdek sindim,
Qayta o‘ldim, ruhim qaytmadi tanga.

Yoki:

Yerga cho‘kkan osmonlarni kuzatdim,
Chopilgan oyog‘im bilan chopdim men,
Kesilgan qo‘limni sizga uzatdim.
Bu dunyo gullarga to‘ldi qotdim men.

“So‘qir ko‘zlarimni nur-la bezatdim...”, deganda shoir kimlarning ilojsizligini tasvirlashga harakat qilayotgan edi?

Rauf Parfi ona Turkistonning dardlarini hammamizdan oldin his etgan ijodkor edi. U bir she’rida shunday yozgan:

Bu maydon ichinda men to‘kmagan qon,
Mening uni deya ayagan jonim.

Shoir so‘zi bilan befarq bo‘lmasa-da, qurol olib jangga kirolmaganidan afsuslanadi. U shunchalar ozod qalb egasi ediki, hatto davlat idoralaridagi hujjatbozliklar, ko‘ngilxiraliklar, buyruqbozliklar davom etayotgan O‘zbekistonda ham doim siqilib, “kesik qo‘llar”, “chopilgan oyoqlar” bilan yashadi. Endi tasavvur qiling, mustaqillikdan keyin shu holda yashagan ijodkor sovet davlatida qanday kun kechirgan?

www.ziyouz.com kutubxonasi

Shoirdagi ichkilikka ruju qo‘yish holatlari o‘z-o‘zidan emas. Uning faoliyati davomida ham ijodida sovetlarga qarshi targ‘ibot bor deb Yozuvchilar uyushmasida muhokamaga qo‘yilgan. Shoirning ijodida ijtimoiy ahvol tasviri sonetlariga-da singdirib yuborilgan. “Hamlet” sonetidagi quyidagi jumlalarga qarang:

Sen, ey sen xilqatning yovuz bandasi,
Ne balo solgaysan ma’sum boshlarga?
Bo‘g‘ilib yotgandir vijdonning sasi,
Boshingni yorsang-chi urib toshlarga...

Yoki:

Qonlar oqmoqdadir, so‘nmoqdadir nur,
Turibsan-ku davr bilan betma-bet.
Nahot iztirobda doim tafakkur.

Shoirning “Bog‘chasaroy fontani” she’ri zamirida Stalin tomonidan quvg‘inga uchragan qrim-tatar xalqining anduhlari yotardi:

G‘amli fontan, hali yig‘laysan,
Hasratlarda bo‘lmaysan ado.
Ehtimol, kimnidir yo‘qlaysan,
Kimlardandir kutasan sado.

“G‘amli fontan” obrazi xalqi uchun yig‘layotgan yurt timsoli edi. Rauf Parfi barcha qardosh xalqlarning turkiylar nomi ostida yana qaytadan birlashib, Turkistonda yashashini orzu qilardi. “Nozimning sadosi she’rida ham shunday dardlar kuylangan. SHOIR Nozim Hikmat bilan taqdirdosh edi. Nozim Hikmat ham o‘z yurtida tan olinmay surgunga uchragan haqparvar ijodkor edi. “Dunyoning qora kechalari” ular yashagan muhit holati tasviri edi:

www.ziyouz.com kutubxonasi

Nozimning sadosi —
Sochilar.
Millionlarning son ming ko‘chalariga
Dunyoning eng yorug‘,
Dunyoning eng qora kechalariga[1].

2. Rauf Parfi ijodida Turkiston va turkiylar mavzusi

Rauf Parfi yuragini zirqiratgan Vatan tushunchasi xo‘rlangan xalq ovozini moziydan yetaklab kirgandek bo‘ladi. Turkiston qismatiga achingan shoir so‘zlari yurakka o‘qdek qadaladi. Bu xalqning esa hamon ko‘zi ochilmasa?!

Shoir yaratgan turkistonbop tashbehlar qalbni tirnasa-da, yurtning achchiq qismatini bayon qilib turadi:

Yig‘la endi, ko‘zim, sen ham yig‘lay ol,
To‘ysin ko‘z yoshingga bu turkiy sitam.
To‘ysin, Vatan yodi chidar bemalol,
O, sabr daraxti qutlug‘ Turkiston.

Zamondoshi Ortiqboy Abdullayev Rauf Parfida vatanparvarlik hissining naqadar kuchliligini bayon qilar ekan shu so‘zlarni aytgan edi: “Og‘ir o‘ylarga toldiradigan mana shu she’r bag‘riga ezgulik urug‘lari, adolat, toldiradigan erkinlik umidi sepilgan”[2].

Rauf Parfi chizgan Vatan timsoli doim Turkiston deya jaranglaydi. U Turkistonni hech kim mengzamagan dardli tashbehlarga o‘raydi. Bir she’rida “sabr daraxti” desa birida “Mangu Xotirot mozori” deydi. “Turkiston yodi” she’rida esa:

[1] Рауф Парфи. Туркистон руи. — Тошкент: Шарқ, 2013. — B.203.
[2] So‘nggi darvesh. (esselar, xotiralar, suhbatlar, bag‘ishlovlar). Yig‘uvchi: Alisher Nazar. Qo‘lyozma. — B.44.

www.ziyouz.com kutubxonasi

Tegramda zich havo — ona Turkiston,
O‘rgay tomirimni ko‘r hayajonim”,

— deya uni bo‘g‘ib kelayotgan zich havoga qiyoslaydi. Bu zich havo shoir uchun aziz bo‘lgan Vatanda kezar edi. Bu muhitning sababchilarini esa Yassaviy satrlari bilan hamohang tasvirlaydi:

“O‘lg‘on da’vo qilganlar...” So‘zlar shoir.
“Oqni qaro deganlar...” Ayting, kimlar?!
Maqbara boshimga yiqilar hozir,
Yana tovush: “Harom yegan hokimlar...”

“Omon Aziz. “Kandakorlar” she’rining birinchi bandida:

O‘ltirishar ikki jununvash,
Ikki jahon bilmagan jahon —
Ikki shoir ma’yus, xayolkash,
O‘rtalikda olov — Turkiston.

Shoirlar faqat Vataniga sig‘inishadi. Vatan xayoli, uning nurli istiqboli qayg‘usi ularni olovday yoqadi. Shu sababdan ham bu misralarda shoir Turkistonni olovga mengzagan bo‘lsa ne ajab! O‘z ushalmagan armonlarini-da Turon deydi:

Vaqt quyunida ne - davron,
Bu — toshga aylangan erkdir, bardoshdir.
Bu — Turon atalgan muqaddas armon[1].

“She’riyat” mansurasi esa har bir o‘quvchini shoir bilan birga yondirib, birga kurashga chorlaydi: “Shu oddiy suv mavjida, zarrin yaproqlarning ko‘ksida Navoiy tug‘ilar,

[1] Рауф Парфи. Туркистон руҳи. — Тошкент: Шарқ, 2013. —B.148.

www.ziyouz.com kutubxonasi

suronlarda Nozimning ovozi. Gardandan girdob kabi quyular — Elyuar, Vujudimning har bir hujayrasida so‘zlarning sodiq qo‘shini — Turkiston, Turkiston, Turkiston — turkiyning dunyoviy qo‘shig‘i”[1].

Ozodlik, erk, adolat uchun kurashayotgan vujuddan otilib chiqqan “so‘zlar qo‘shini — Turkistondir”. Individual tashbehlarning guvohi bo‘larkanmiz, ularning doimo alam bilan qora o‘xshatishlardan iboratligini sezamiz. To‘g‘ri-da, dardli inson qo‘lidagi naydan quvonchli kuy kutib bo‘ladimi?! Quyidagi misralarda esa hayratlanarli tashbehga guvoh bo‘lamiz. Hali shu davrgacha hech bir shoir Vatanni “achchiq bo‘sa”ga o‘xshatmagan:

Oh, **Turkiston, eng achchiq bo‘sa**
Kabi lablarimda urinding.
Men olisga otlanar bo‘lsam
Kuygan yurak bo‘lib ko‘rinding.
Oh, Turkiston, Ona Turkiston.

“Ona Turkiston” she’rida esa Turkistonni “**ichimni kemirgan qadimiy qasos”**ga qiyoslaydi. Qadim-qadim zamonlardan beri Turon, Turkiston deb atalib kelgan ona yurtimizning achchiq qismati, bolsheviklar zulmi ostida ham nomidan, ham mol-mulkidan ajralgan xalqimiz boshiga tushgan qora kunlar Fitratning “Yurt qayg‘usi” turkumi, Cho‘lponning “Buzilgan o‘lkaga” kabi she’rlarida o‘z aksini topgan edi. Mana shu dardli o‘ylarni o‘z kiftiga ortgan keyingi avlod vakili esa Rauf Parfi edi. Mahkam Mahmud Andijoniy o‘sha tazyiqlarni shunday eslaydi: “Hur fikrli, porloq iste’dodli shoir Rauf qadah ko‘tarib, alyor aytishuvlarda shogirdlariga hayot, olam va inson haqida haqiqatni yozishni, yolg‘onchilik,

[1] Rauf Parfi. Ona Turkiston. B.8. www.ziyouz.com, 2007.

www.ziyouz.com kutubxonasi

munofiqlik, laganbardorlik, tilyog‘lamalik qilmaslikni, rost gap aytolmasang, umuman gapirma deb o‘rgatar edi. U, sovet tazyiqlari, terrori kuchaygan vaqtlarda kompartiyaga va Leninga madh-u sanolar yozgan shoirlarni masxaralab, bunday kinoya qilar edi:

Ko‘zimizga ishonmasak,
So‘zimizga ishonmasak,
O‘zimizga ishonmasak,
Leninga ishongaymiz...

O‘zkompariya Markazkomi o‘sha paytlarda turli yo‘llar bilan kommunistik tuzum markaziga yaxshi ko‘rinish, yaltoqlanish uchun partiyani, kommunizmni maqtamagan shoirlarni jazolab turar edilar. Biz ishlab Adabiyot va san’at nashriyoti partiya komitetining maxsus bir majlisida “Rauf Parfi ijodida sovetlarga, partiyaga qarshi ohangdagi she’rlar bor, shoir yo‘ldan adashgan”, deb qoralandi”[1]. Yoki yana shoirning “Ona tilim” she’ri ustidagi voqeani xotirlaydi:

“Men g‘aribman va sen beomon,
Sen quyoshsan, men so‘ngan chiroq,
Qiynamagil meni, onajon...

Bu ona tilimiz haqidagi she’rdan. Shoir bu so‘zlarning har biriga teran va sirli ma’nolar yuklagan edi. Bu yerda o‘quvchi ko‘nglida turli ma’nolar tug‘ilardi. Bunda, ehtimol, ona tilimiz o‘rniga hukmron bo‘lgan sho‘rolar tili, kompartiya, sovetlarning beomonligi haqida so‘z borardi. Xullas, yuqori idora mansabdori bu kabi she’rlarda “antisovet” ruh borligini tushunar, bu “illat” ni unib-o‘smasidan avval bo‘g‘ib, yo‘qotish zarur, deb hisoblardi”.[2] Rauf Parfi-

[1] Mahkam Mahmud. Anvariy, Xoqoniy va Bayron izdoshi. // So‘nggi darvesh. Yig‘uvchi: Alisher Nazar. — B. 53.
[2] O‘sha manba. — B.55.

www.ziyouz.com kutubxonasi

ning haqiqat akslangan Turkiston fojealari haqidagi ijodiga No‘mon Rahimjonov shunday ta’rif bergan edi: “Rauf Parfi lirikasidagi SO‘Z, QUSHCHA, BULOQ, DARAXT, NAY, NUR singari obrazlar tagdor, purma’no mazmun ifodalashiga ko‘ra timsollarga aylanayotir. Ular Turonzamin, Turkiston xalqlarining tarixiy hayoti sahifalarini suratlantirayotir. Millat taqdirida o‘chmas iz qoldirgan va ayni keyingi yuzyilliklarda mudragan jo‘mardlik, jangarilik, qahramonlik ruhini qayta tiriltirish, oyoqqa qo‘yish, faollikka davat Rauf Parfining Turon-Turkiston mavzusidagi she’rlarining yetakchi xususiyatidir”[1].

3. Rauf Parfi she’riyatida ruhiyat tasviri va erk mavzusi

Haqiqiy ijodkorning o‘z yo‘li, o‘z aytar so‘zi, o‘z dunyosi bor. U o‘quvchisini ana shu dunyosiga ergashtirib ketadi. Haqiqiy ijodkor o‘quvchining ruhiyatiga o‘z ruhoniyatini singdira oladi. Shoir shaxsiyati bilan o‘quvchi shaxsiyati birgina she’r atalmish ko‘prikdan qo‘l ushlashib o‘tadi. Rauf Parfi she’riyatida ham shunday kuchli pafos mavjudki, ijodini o‘qiguvchilar u bilan birga to‘lg‘onadi, u bilan birga yonadi. Shoir darddan qay darajada azob cheksa, o‘qiguvchisini ham shu dard o‘rtay oladi. Rauf Parfining shaxsiy dunyosi o‘zi bir olam edi. Uni tanigan har qanday ijodkor borki, telba, tartibsiz hayot kechiruvchi bu insondan aslo ranjimas, hatto kimdir unga qilayotganing noto‘g‘ri, deb ham uqtirmasdi. Chunki bu telbalik ostida adolat, haqiqat, achchiq

[1] No‘mon Rahimjonov. Mustaqillik davri o‘zbek she’riyati. — Toshkent: Fan, 2007. — B.101.

www.ziyouz.com kutubxonasi

hayot to‘lqinlari mavj urardi. Ijodkor A’zam O‘ktam Rauf Parfi bilan suhbat qilganda[1] Sharof Rashidovning Rauf Parfi deganiniyam bir ko‘ray-chi? deb chaqirganini shoir xotirlaydi. O‘sha payt shoir uchrashuvga “galstugim yo‘q”, deb bormagan. Bunaqa g‘alati sabab faqat Raufona edi. Aslida u davlat “kattalari”ning hech biriga xoh u yaxshi inson, xoh yomon boshqaruvchi bo‘lsin maddohlik qilishni xohlamas edi. “Tasvir” kitobi chiqqanda do‘stlaridan biri: “Kitobingga: “Ustoz Sharof Rashidovga, kamoli ehtirom ila Rauf Parfi” deb yozgin-da qabulxonaga eltib ber, keyin u surishtiradi va ikki xonali uy beradi”, deya maslahat bergan. Rauf Parfi bu ishni ikki dunyoda ham qilmas edi. Ammo u rostan ham o‘sha payt uysiz bo‘lgan, suhbat jarayonida esa hech tortinmay: “Hoziram kattalarga kitob bermayman. Haliyam uyim yo‘q”, degan so‘zlarni aytadi. Bu ozod ruhning tanga bergan ozodligi nishonasi edi. Taniqli shoir Usmon Azim shunday deb yozgan edi: “Uning hayotini faqat Mashrabning bexonumonligiga o‘xshatish mumkin. Dunyo Rauf Parfini udda qilolmadi. U yolg‘on dunyo o‘ylab topgan allaqanday pul degan hiyla-nayrangga juda bepisand edi. Shuning uchunmi, dunyo undan muttasil qasos oldi. Dunyo o‘zining yo‘rig‘iga yurmaganlarni juda yomon ko‘radi”.

Rauf Parfi xarakteri she’riyatida lirik qahramoniga ko‘chadi. Turli raziy obrazlar, orqali lirik qahrmon ruhiyati kechinmalarini ilg‘ab olish mumkin. Umuman, she’riyat o‘zi ichki kechinma in’ikosidir. “Oydinlik” she’rida qo‘llangan obrazlarda ham shu holatni kuzatish mumkin:

[1] A’zam O‘ktam. Haq yo‘li, albatta, bir o‘tilgusi. Китобда: So‘nggi darvesh (жамоа тўплам. Қўлёзма). — B.203.

www.ziyouz.com kutubxonasi

Oy suzadi. Muzlagan kecha,
Qor ufurar.
Tumanlarda bir yulduz muncha
G‘amgin turar...

Xo‘sh, nima uchun endi kimlargadir oydin ko‘ringan kecha shoir uchun muzlagan, kimlargadir yonib turgan yulduzlar shoir lirik qahramoni uchun g‘amgin qiyofada ko‘rinadi?

Uchinchi bandda buning javobi hijron ekaniga ishora seziladi:

Nima keldi shu dam o‘yingga...
Kim u? Ayt, kim?
Bechora oshig‘ing yo‘lingga
Zormi, aytgin?
Visol esa oxirgi banddagiday olislarda!
Olisda yal-yal yongan
Nima ekan ul?
Yurgin o‘sha tomonga,
Ey go‘zal surur.

Olisda yongan nimadir balki oshiq yuragidagi entikkan umiddir.

Shoirning tabiat tasviri bilan bayon etilgan guyg‘un berilgan ichki achchiq dardni sezish mumkin. Uning quyidagi she’rida ham erk istayotgan qalb nidolari ingranadi:

UFQ YARALANGAN ALVON TO‘LG‘ONAR.
Turnalar karvoni suzar parishon.
Vidolashuv payti qonga chulg‘anar,
O‘z qoniga cho‘kar karvon benishon.

www.ziyouz.com kutubxonasi

Quyoshning alvido shamlari yonar,
Kechar koʻzlarimdan bu yorugʻ jahon.
Qaydan Men? Nechun Men? Vujudim qonar,
Qachon keldim? Nechun? Oʻtgayman qachon?
Kechar dunyo, kechar karvon singari.
Ufq. Falaklarga sanchilgan ohim.
Qattiq urinaman ufqdan nari,
Alvon uzra muzlab turar nigohim.
Oyogʻim yurmaydi yurganim sari,
Ona yerga botib qolgan oyogʻim...

Botib borayotgan quyosh qizarib, oʻz rangiga ufqni boʻyashi soʻnayotgan umidlarning otashi kabidir. Oʻz qoniga choʻkayotgan karvon esa ooʻtkazib yuborilgan besamar umr timsolidir. "Nechun men?" degan xitobda shoir aynan oʻzini aytgandek boʻladi. Yurgan sari yurmas oyoqlar cheklangan, boʻgʻilgan imkoniyatlar, soʻzlar ramzini koʻrsatadi. Rauf Parfining koʻp she'rlarida bunday qoʻl-oyogʻi bogʻliq holatni koʻrish mumkin.

Yogʻar oppoq pagʻa-pagʻa qor,
Dardim qorlar kabi sochilar.
Huv yiroqda gullagan bahor
Boʻylari koʻksimga sanchilar.

Boshqa yurtdagi, olislardagi ozodlik — yiroqda gullagan bahorga mengzalmoqda. Rauf Parfi, Usmon Azim, Shavkat Rahmon, Muhammad Solih kabi ochiq koʻzli, boʻlayotgan voqealarga befarq qarab turolmaydigan, mavjud siyosatdan norozi ijodkorlar guruhi ham boʻlganini shoirning oʻzi bir suhbatda eslaydi va tergovda Mixail Sergeyevich nomiga qadalgan Gorbachov bahonasi bilan bir tergovdan qutulib qola-

www.ziyouz.com kutubxonasi

di. Mavjud tuzumning etagidan tutgan nodonlar tasvirini shoir "shamolga aldangan bulutlarga" o'xshatadi:

Siz bilar edingiz qaydadir kutar,
Sizsiz chil-chil sinib yotibdi toqat...
Holbuki, shamol — yo'q, siz — yo'q, bulutlar,
Siz telba shamolga bir ermak, faqat.

"Bayronning so'nggi safari" she'rida erk ramzi dengiz obrazi orqali ifodalangan:

Dengiz hayqiradi, girdob bekaram,
Shoir, ko'zlaringga dengizlar to'lar.

Bayron ham erk uchun kurashga otlangani sababli shoirlik va jangdoshlikni Rauf Parfi qismatdosh deb biladi. Shoirni bu dunyodan olib ketgan ham uning mana shu dardlari bo'ldi. U quyidagi she'rida parvona obrazi orqali o'zini, yorug'lik ramzi zamirida esa istiqbolli kunlarni nazarda tutgan bo'lsa ajab emas:

Shuncha abgor qilgani yetar,
Biz yonardik, yonardik yana.
Yorug'lik, deb boshiga yetar
Yorug'likni sevgan parvona.

Qutlibeka Rahimboyeva Rauf Parfiga shunday nom bergan edi: "Rauf aka — ozodlik edi". Shuning uchun bo'lsa kerak, ozodlikni qo'msaganlar Rauf Parfiga intilganlar. Mustamlakachilar va O'zbekiston mustaqil bo'lishi kerakligi haqidagi gaplarni ilk bor Rauf Parfi davrasida eshitganligini eslab Usmon Azim ham: "... unda ozodlikka cheksiz bir intilish bor edikim, shoirning bu halol qalb harorati ko'pchilikka yuqdi", deya xotirlaydi.

www.ziyouz.com kutubxonasi

Rauf Parfi ijodi bugungi kun adabiyotshunosligida o‘rganilayotgan mavzu bo‘lsa-da, uning ochilmagan qirralari hali juda ko‘p. Bu borada No‘mon Rahimjonov va Olim Oltinbek ishlarida chuqur izlanishlarni ko‘rdik. Rauf Parfi she’riyati mavzular olamidagi yangilanishlar va badiiy mukammalliklarni bugungi kun yosh kitobxoniga yetkazib berish va ularning ongida ham Rauf Parfiniki singari vatanparvarlik tuyg‘ularini shakllantirish, adolat va erk tarafdori qilib tarbiyalash lozimdir. O‘zturk she’riyati mavzulari xilma-xil bo‘lsa-da, biz faqatgina Rauf Parfi ijodining eng yuksak cho‘qqisi bo‘lganlarinigina tanlab oldik. Shoir she’riyatida DO‘STLIK, ONA, SO‘Z mavzulari ham juda go‘zal ohanglarda kuylangan.

Yangi o‘zbek adabiyoti XX asr taraqqiyotida o‘z boshidan bir qancha tadrijlarni kechirdi. Bu davrda adabiyot ham shaklan, ham mazmunan yanglandi. Epik turning jonlanishi, lirik turga yangi janrlarning kirib kelishi va o‘zbek adabiyoti uchun butunlay yangi tur — dramatik turning kirib kelishi yuz berdi. Lirik asarlarda ifoda uslublari, mazmun talqinlari o‘zgardi. Lirik qahramonning she’rdagi o‘rni, roli real tasvirlarda ifodalana boshlandi. Endi uning faqatgina ma’lum soniyalar ichida yuragidan o‘tgan his-tuyg‘ularigina emas, real hayotiy fikrlari, dunyoqarashi ham tasvirlarga ko‘chdi. She’riyatda xuddi shunday xususiyatga ega bo‘lgan ijroviy lirika yuqori o‘ringa chiqdi.

Ijroviy lirika atamasi rus adabiyotshunosligida “rolevaya lirika” nomi bilan yuritiladi. Mazkur janr nazariyasini olim B.O. Korman ishlab chiqqan. Professor B.O. Korman XX asrning 70-yillarida lirika manbalari asosida muallif ongining subyektiv shakllarini ishlab chiqib, to‘rtta subyektiv shakl

www.ziyouz.com kutubxonasi

mavjudligini asosladi: 1) muallifning oʻzi; 2) muallif — rivoyatchi; 3) lirik qahramon; 4) rol oʻynaydigan qahramon[1].

Ijroviy lirikada shoir oʻzi yaratayotgan lirik qahramoni ruhiyatiga kiradi va tamoman kitobxonga uning pafosini yetkazadi. Bu lirik qahramon, asosan, real shaxs obrazlaridan oʻsib chiqqan prototip xarakterlardir. Shoir oʻquvchini shu real qahramon olamini idrok etishga undaydi. Korman ta'kidlagan subyektiv shakllar bosh qahramon ijrosining qaysi pozitsiyada turganini belgilab beradi. Masalan, shoir lirik qahramoni tilidan oʻzi gapirishi ham mumkin.Bunda shoir qahramon haqidagi va uning hayoti haqidagi oʻz tuygʻularini bayon qiladi va lirik qahramon —muallifning oʻzi boʻladi. Ikkinchi subyektiv shaklda esa muallif faqatgina rivoyatchiga aylanadi va lirik qahramon tuygʻularini ifoda etishda u tasvir usulidan foydalanadi, ayni paytda chetda turib soʻzlaydi. Rauf Parfining "Usmon Nosir" she'ri shu jumladan. Unda Rauf Parfi bir shoir oʻlaroq yosh xazon boʻlgan bir iste'dod uchun achinish tuygʻularini yozadi va shoirlik qismati haqida fikr yuritadi.

Xato yoʻlga kirgan boʻlsa ul,
Nega sen tutmading qoʻlidan?!
Shunday ketdi yana bir oʻgʻil,
Saqlab qololmading oʻlimdan.

Agar she'riyat har shoir uchun ona boʻlsa, nega u oʻz bolasini asrab qololmadi? Bu she'riyatning tugʻilajak yangi she'rlarni oʻzi yondirganidir. Inson boshiga she'rning

[1] Моисеева А. А. Эволюция ролевой лирики на рубеже XIX—XX веков: формирование ролевого героя нового типа: автореф. дис.. Пермь : [б. и.], 2007. 19 с. / Корман В.О. Лирика и реализм. — Иркутск : Изд-во Иркут. Университета, 1986. — С.93.

www.ziyouz.com kutubxonasi

yetishidir. Garchand bu adolatsizlik tufayli sodir boʻlgan judolik, qismat boʻlsa-da!

Yon she'riyat, tugʻyonga aylan,
Yon, Turkiston, tamom boʻl jigar,
Oʻz she'rini ul oʻzi bilan,
Yondirgani rost boʻlsa agar.[1]

Yosh shoir zamon yovuzlarining qurboni boʻlgani she'rda ta'sirli tasvirlangan. She'riyat insonning dard yukini yengillashtirishi mumkin, ammo butunlay davo boʻlolmaydi. Uning hayotini saqlab qololmaydi.

Uchinchi subyektiv shaklda lirik qahramon har qanday holatni, tuygʻuni oʻz ustida his qiladi. Bu shakl oʻquvchi uchun emotsional jihatdan kuchli ekspressivlikka ega. Chunki oʻquvchi ayni tasvirlanayotgan qahramonning tilidan eshitadi barcha voqelikni. Rauf Parfining "Abdurauf Fitrat" sonetlar turkumida oʻquvchi Fitrat siymosini yaqindan koʻradi. Uning yurt uchun, xalq uchun qaygʻusini u bilan birga totadi, u bilan birga olov kabi yonadi:

Fosiqlar koʻrinar sochlari olov,
Ivirsir gumrohlar koʻzi-qoʻli qon...
Turkiston, Turkiston, mukarram yalov...[2]

Toʻrtinchi subyektiv shaklda rol oʻynovchi maxsus qahramon yaratiladi va u shoirning ichki kechinmalarini bayon qiladi. Bu obraz qachonlardir mavjud boʻlgan, ammo she'rda u shoir maqsadiga muvofiq harakat qiladi.

Masalan, Rauf Parfining "Hamlet" sonetlar turkumining birinchi soneti subyektiv shaklida muallif rivoyatchi

[1] Rauf Parfi. Turkiston ruhi. —Toshkent: "Sharq", 2013. — B.92.
[2] Shu manba , B. 236.

www.ziyouz.com kutubxonasi

vazifasini bajargan bo‘lsa, keyingi sonetlarda Hamlet xarakteridan foydalangan holda zamon dardini ifoda etadi:

Hamlet sevgisiga sodi qolardi,
Sadoqat neligin bilardi, biroq
U yolg‘iz vafoni yolg‘iz xohlardi,
Ey voh, jafo undan ming karra ko‘proq[1].

Yuqoridagi bandda Hamlet obraziga xos xususiyatlar bayon etilgan. Shoir keyingi sonetda ijtimoiy fikrlarini ochiqlay boshlaydi va Hamlet obrazi chetga chiqadi, faqatgina unga xos bo‘lgan birgina vijdon tasviri orqali zamon odamlariga ishora qilinadi:

Bosh egib tonglardan tonglargacha to.
Vijdon shevasiga tashbeh izlaymiz,
Odamda vijdon ham bo‘lmasmi, hatto!
So‘zlaymiz, jigarxun bo‘lib so‘zlaymiz.

“Ijroviy lirika tushunchasi jahon adabiyotida turlicha talqin etiladi. Ingliz an’analarida muallif aktyor singari o‘zidan uzoqroq obrazni ifodalasa, rus adabiyotida aksincha bo‘ladi: muallif o‘zgalar niqobida o‘quvchiga murojaat qiladi va u bilan shaxsiy tuyg‘ularini bo‘lishadi. O‘zbek she’riyatida ham xuddi shunday, shoir biror tarixiy shaxs, adabiy qahramon yoki nabotot, hayvonot olami yo biror predmet tilidan o‘z fikrlarini ifoda etadi”[2].

Ijroviy lirikada lirik qahramon shoir ruhiyati bilan yaqin, biografik jihatdan o‘xshash bo‘lgan qahramonlar subyekt sifatida ko‘proq tanlanadi. Ikkinchi bir turida esa lirik qahramon shoir yashagan davrdan uzoqda yoki kasbi, ijtimoiy

[1] Rauf Parfi. Sakina. — T.: “Muharrir”, 2013. — B. 124.
[2] Abdullayeva Umida. Yangi o‘zbek she’riyatida ijroviy lirika poetikasi(Abdulla Oripov va Usmon Azim ijodi misolida). *Filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. Qarshi 2023. — B.18.*

www.ziyouz.com kutubxonasi

o‘rni, madaniy saviyasi boshqa-boshqa, ya’ni farqli insonlar ham bo‘lishi mumkin. Rauf Parfi lirikasida ko‘proq birinchi turdagi iroviy lirikaning guvohi bo‘lamiz. Biz shoir sonetlarini tahlil qilganimizda she’rlarning bu xususiyatini va lirik obrazda shoir subyektmi yoki voqealar lirik qahramonning o‘z tilidan ijro etilayotganiga ko‘ra ikki turga ajratgan edik.

1. Bag‘ishlov tarzida yozilgan va Rauf Parfining his-tuyg‘ulari aks etgan sonetlar: “Hamlet”(Rauf Parfini Shekspir bilan bog‘laydigan yana bir rishta uning sonetlari bilan bog‘liq. Dunyo sonetchiligida ikkita yo‘l bor: biri Petrarka yo‘li (klassik sonet), ikkinchisi Shekspir yo‘li (erkin sonet). R. Parfi sonetchilikda Shekspir yo‘lini tutdi, o‘sha yo‘lda o‘zbek sonetchiligini yangi bosqichga ko‘tardi[36]), “Ona Turkiston” (Qodiriyga bag‘ishlov), “Bitiktosh” (Azizxon Qayumga bag‘ishlov), “Tagor va Srabon yomg‘irlari” (Tagor haqida), “Abdulhamid Sulaymon Cho‘lpon”, “Betxoven”, “Pablo Neruda o‘limiga”, “Eduard Veydenbaum”.[1] Bunday sonetlarni biz avtopsixologik lirika deyishimiz mumkin.

2. Sarlavhasi she’r bag‘ishlangan shaxs ismi bilan atalib , o‘sha shaxsning his-tuyg‘ulari aks etgan sonetlar: “Van Gog”, “Aleksandr Blok”, “Siyovush faryodi”, “Abdurauf Fitrat”, “Chingiz Aytmatov”, “Bayronning so‘nggi safari”.[2]

Ijroviy lirikaning asosiy xususiyatlari quyidagilardan iborat:

1. Tanlab olingan lirik obrazning real hayotda mavjud bo‘lishi (shoir ruhiyati bilan yaqin darajadagi real, jonli shaxlar obrazlarida uchraydi);

[1] Nomlari keltirilgan she’rlar Rauf Parfining “Turkiston ruhi” saylanmasidan olindi.
[2] Imomova Ruxsora. Rauf Parfi ijodida sonet. // “Yangilanayotgan O‘zbekistonda fan va ta’lim uyg‘unligi” mavzusidagi 5-son 1-qism Respublika ko‘p tarmoqli ilmiy-masofaviy onlayn konferensiya. 2021-yil, 234–243-b.

www.ziyouz.com kutubxonasi

2. Ijroviy lirikada yaratilgan lirik obraz — subyektning vazifasi har qanday nutq bilan so‘zlanganda ham (xoh nutq shoirniki, xoh obrazdagi qahramonniki bo‘lsin) ham shoir dunyoqarashini, uning ijtimoiy-siyosiy, madaniy fikrlarini aks ettirishi;

3. Bunday she’rlar mavzusi, aksariyat hollarda, ijtimoiy lirikani paydo qilishi;

4. Ijroviy lirika bag‘ishlov, xotira kabi she’r janrlarida yaqqol sezilib turadi.

Rauf Parfi ijroviy lirikasining asosiy maqsadi o‘zining va qahramonining ijtimoiy fikrlarini ochib berishdir. Shoirdagi tanlab olingan qahramonlar doimo san’atga aloqador shaxslardir. Masalan, uning “Van Gog” she’ri qahramon ruhiyatini ochib berish jihatidan ancha mukammal yaratilgan. She’rda gollandiyalik buyuk rassom Van Gog (Vinsent Villem)ning iztiroblari tasvirlanadi. Ayni paytda san’atning qadriga yetmaydigan tuban jamiyat qoralanadi:

Buncha g‘arib, razillar ko‘p dunyoda?!

“Rauf Parfi O‘zturk ham Van Gogning mahzun, rangin va bir qadar tilsimli, falsafaga boy ijodiga ixlos-u muhabbat bilan qaragan. Men bu she’rda darvesh va rindona hayot sohibi Rauf Parfining ham avtoportretini ko‘rdim. Ha, ha, bu 1977-yildagi — shoirning 34 yoshli avtoportreti, sonet emas, Van Gog bir bahona xolos[1]. Van Gogning kesilgan quloqlari haqida gap ketganda bir qancha tarixchilar uning ijod iztiroblarida yashagan va san’ati o‘z vaqtida qadr topmaganidan siqilish tufayli shunday qilgan, degan xulosa bildirishadi. Ayrimlari umrining oxirida biroz ruhiy

[1] Илҳом Ғаниев. Рауф Парфи Ўзтурк дунёси. — Т.: “Muharrir”, 2021. — B.337.

www.ziyouz.com kutubxonasi

xastalikka chalingan, deyishadi.[1] Ammo rassom asarlari uning o‘limidan keyin juda mashhur bo‘ladi va eng qimmat narxlarda sotiladi.

Sha’niga xiyonat qilishdan oldin
Bilmoqchi bo‘ldi u bu qanday zamon.
Yuragin rangini ko‘rmoqchi bo‘ldi[2].

Yuragin rangini ko‘rmoqchi bo‘ldi deganda rassomning o‘z yuragi rangi emas, balki atrofidagi insonlarning yuragi o‘zi qanaqaligini ko‘rmoq istagi nazarda tutiladi. Rassomning, shoirning yuragi o‘ziga ayon, ammo ularni tushunmayotgan zamon qanday zamon? She’riy nutqni kuzatarkanmiz, bunda shoir rivoyatchi bo‘lib qolayotganini sezamiz. Rauf Parfi she’riyatida ijroviy lirika subyektlari voqealar rivojida o‘rin almashadi. She’r tuzilishi shakliy jihatdan sonetlar turkumidan iborat bo‘lgani sababli har bir sonetda alohida lirik qahramon bosh obrazda gavdalanishi ham mumkin.

---

[1] Bor-yo‘g‘i 37 yil umr ko‘rgan Van Gogning hayoti bilan bog‘liq juda ko‘p voqealar hamon sirligicha qolmoqda. Masalan, yaqin-yaqingacha musavvir sevgilisining “Sening quloqlaring juda chiroyli”, degan gapi uchun unga qulog‘ini kesib bergan degan taxminlar mavjud edi. Lekin nemis tarixchilari bu taxminni rad etishdi. Ularning aytishicha, Van Gog 1886 yilda Gogen bilan tanishadi va ikki do‘st birga yashay boshlaydi. 1886 - yilning 24 - dekabr kuni ular uylariga (bir vaqtlar Van Gog uylanmoqchi bo‘lgan) Rashel ismli ayolni taklif etishadi. Ayol Gogenni tanlaydi, chunki u chiroyli edi. Bundan jahli chiqqan Van Gog u bilan janjallashadi. To‘polonda Gogen Van Gogning qulog‘ini kesib oladi, so‘ng qo‘rqqanidan qochib ketadi.Shundan keyin u “Kesilgan quloq va trubka bilan”, “Bintlar bilan o‘ralgan quloq” asarlarini yaratadi, bu ikki asar millionlab dollarga sotiladi”. Van Gog ijodiga o‘z vaqtida e’tibor berilmagan, yillar o‘tib uning asarlari va shaxsiga qiziqish ortgan. Masalan, “Doktor Gashening portreti” asari 82, 5 million dollarga, “Soqolsiz rassom portreti” asari 71,5 million dollarga, “Kiparisli bug‘doy maydoni” asari esa 51 million dollarga sotiladi. (Bu haqda qarang: Egamqulov B. Baxt yarim, qayg‘u yarim // Iztirobli umr. T.: Noshirlik yog‘dusi. 29-34-betlar). (Ma’lumotlar Ilhom G‘aniyev kitobidan olindi.)

[2] Rauf Parfi. Turkiston ruhi. —Toshkent: “Sharq”, 2013. — B.179.

www.ziyouz.com kutubxonasi

Shoirning “Abdulhamid Sulaymon Cho‘lpon” she’rida dastlabki ikki sonet Cho‘lponning ichki kechinmalarini kuylasa, oxirgi bitta sonet Rauf Parfi hukmlarini aks ettiradi. Bu she’rda ham “Usmon Nosir”ga o‘xshash shoir qismati tasviri birinchi mavzuga aylanadi. Turkiy til uchun qayg‘urgan Cho‘lpon fikrlari “Ona tilim, sen ruhimning qanoti...” misrasining o‘zida uning maqsadlarining bir burchagini ochadi. Erkni, hurriyatni talab qiluvchi ozod shoir timsoli esa “Porloq osmoningda quzg‘unlar uchdi / Ey voh yog‘iylaring soldi yag‘moni / Yog‘iylaring jigar-qoningni ichdi...” tersetida chiziladi. Asarda Cho‘lpon she’riyatidagi eng sara namunalarga ishoralar mavjud:

Yillar bahorimni uchirdi chalqib,
Muzlarga ko‘chirdi o‘tluq yozimni.
Axtardim muhitda xas kabi qalqib —

Yuqoridagi tersetda Cho‘lponning “Somon parcha” she’rini ko‘rishimiz mumkin:

Muhit girdobida bir somon parcha,
Bir poxol cho‘pdek oqib boroman.[1]

Uchinchi sonetda endi Rauf Parfi shoirni xalq dushmani deb ayblaganlarga qarshi isyon qiladi va shoir asli qanday insonligini, xalqqa fido bo‘ladigan yagona inson ham shoir ekani lirik qahramonni tavsif etish orqali rivoyatchi — subyekt shaklida aytadi:

Yo‘lsizlik yo‘ldoshi, toleyi nigun
Hech qachon to‘yarmi, axir yovuzlar.
Bu — xalq dushmani deb tutsalar bir kun,
Baribir, u xalqning nomidan so‘zlar.[2]

[1] Cho‘lpon. Tanlangan asarlar. Uch jildlik. 1-jild. — Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1994. — B. 79.
[2] Rauf Parfi. Turkiston ruhi. —Toshkent: “Sharq”, 2013. — B.164.

www.ziyouz.com kutubxonasi

Rauf Parfining lirik qahramonlari jonli oʻtmish kishilari. Shoir ular bilan hamfikr, hammaslak, xayolan sirdosh. Uning “Siyovush” sonetlar turkumi adabiyotshunos Ibrohim Haqqulga atab yozilgan. Ibrohim Haqqul Rauf Parfining eng yaqin fikrdoshlaridan biri boʻlgan. Shuning uchun ham she’r zamona hodisalariga ishora qilingan holda doʻst bilan fikrlashish yoinki yuragini oʻrtayotgan dardlarning bir shingilini toʻkish uchun yozilgan. She’rga epigraf “Abulfayzxon” tragediyasidagi xonga koʻringan xayoliy obraz Siyovushning nutqidagi satrlardan olingan (Ey qora yurakli boyqush, senga qolgan / Vayronani qutlamoq uchun keldim.) Siyovush adabiyotda boshi tanidan nohaq judo etilgan adabiy obrazdir. Nima uchun shoir fikrni, obrazni oʻtmishdan oladi. Chunki u bugungi kunning ham boʻyni egikligi, bugungi kunning ham vahshiylari, vahshiylashishi natijalarini oʻtmish sababiyati deb biladi. Xalq oʻsha, zulm oʻsha, talanayotgan, talashilayotgan taxt, boylik, davlat oʻsha, zulmkorlar qiyofasi va zamon oʻzgargan, xolos.

Ertoʻngadan tortib to Rahim toʻnka,
Xarom xoin, varam sotqin tugʻilmish.
Insonning xayoli, shiddati toʻngan.

Shoir “Oʻliklar ustida mashvarat, hashar...” misrasida oʻz fidoiylarini oʻzi yoʻq qilgan davlatga ham ishora qiladi. Barcha narsa nafs uchun yuz berayotganing isbotini SHOIR butun turkum davomida isbot qiladi:

Osmon nafas olmas, inson boʻgʻilmish,
Oʻzing topindirib, oʻzing soʻyasan,
Haqiqat etiga qachon toʻyasan?!

Hali bu badnafslar avlodi “haqiqat etiga” toʻygan emas. “Ajdaho komi” deganda urushlar, talashlar, siyosiy oʻyinlar

www.ziyouz.com kutubxonasi

gavdalanadi. Bu buyuk imperiya darajasiga yetib o‘n uch millatni o‘z qo‘l ostida siqib o‘tirgan sobiq SSSR bo‘lmasdan nima? Ammo shoir umidini hali so‘ndirgani yo‘q:

Chorasiz haqiqat, ul ilohiy Nur
Abad qolib ketmas vahshat komida[1].

Siyovush obrazi she’rda rol o‘ynovchi, ya’ni shoir dardini aytuchi qahramon sifatida ishtirok etadi. Ijtimoiy lirikadagi to‘rtinchi subyekt shakli — rol o‘ynaydigan qahramon dastlabki uch sonetda shoir tilidan so‘zlaydi. Oxirgi sonetda esa shoir o‘z ovozini oladi va she’rni o‘z umidlarini, niyatlarini ham tasvirlash bilan yakunlaydi.

Ijroviy lirikani, asosan, bag‘ishlov va xotira janrlaridagi she’rlarda ko‘proq kuzatish mumkin. Masalan, Rauf Parfida Bayron, Thakur, Pablo Neruda, Nozim Himat kabi ijodkorlarga bag‘ishlangan she’rlar mavjud. “Thakurning oxirgi she’ri” bu jihatdan adolatparast, o‘tday yonib yashagan, adabiyot fidoiysi Rabindranath Thakurning go‘yoki so‘nggi iltijosi kabi yangraydi. She’rga epigraf uchun Thakurdan iqtibos olingan: “Ayriliq kunidir, tug‘ilgan kunim”. She’rda lirik qahramon Thakurning o‘zi.

Sohir Sarasvati, nadir bu aqlim,
Nadur tan-u nadir dil-u nadir jon?
Bu qanday kahkashon? Bu qaysi iqlim?
Aldandimmi tug‘ilib? Rostmi? Yo yolg‘on?

Hind buddaviylik dinida inson ikkinchi bor tug‘ilib, hayotni qaytadan boshqa jonzot shaklida boshlaydi. Ayni shuning uchun hindlar o‘z xudosiga iltijo qilib, keyingi hayotida o‘zlari xohlagan biror jonzodga evrilishlarini so‘ra-

[1] Rauf Parfi. Turkiston ruhi. — Toshkent: “Sharq”, 2013. — B.256.

www.ziyouz.com kutubxonasi

shadi. Ularning e'tiqodiga koʻra, inson oʻzgarishi, hayoti ma'nosini bitta shu hayotda emas, keyingi beriladigan imkoniyatlarda ham anglab yetishi va qayta munosib hayot kechirishi mumkin. She'rda tugʻilish ramziy ma'noda oʻzlikni anglashdir. Ikkinchi bandga e'tibor bersak, shoir oʻz xalqining ham xuddi shunday qayta tugʻilishini xohlaydi, ya'ni ularni ham oʻzlikni anglashga da'vat etadi:

Ey mening parishon, ey shoʻrlik xalqim,
Oʻzing qachon tugʻilasan, sen qachon?!

Hindistondagi savodsizlik, qashshoq turmush tarzida yashayotgan insonlar hayotini Thakur "sovuq qorongʻulik", "pilla halovatning gʻilofi" kabi metaforalar bilan ataydi. Hind xalqining bunday anglamsizligini yozganda Rauf Parfi ham oʻz xalqiga nido qilayotgani seziladi. Aynan oʻzbek xalqi ham ustida turgan koʻlankadan xalos boʻlishi kerak edi.

Thakurga nisbatan ham hukumat tomondan zugʻumlar oʻtkazilgan. Shoir kabi erksevar insonlar, albatta, Britaniya boshqaruviga xalal berar edi.

Bogʻzimda boʻgʻilar musiqam, unim.
Ajr saharidir, hajr sahrosi.
Al-vido kunimdir, tugʻilgan kunim.

Endi shoir huquqlaridan, harakatlardan judo qilinadi. Har joyda ta'qib qilinadi. Har narsasidan ayirishga harakat qilishadi. Aynan shuning uchun ham tugʻilish — oʻzligini, haqiqatni anglash barcha narsaga alvido deyish edi. Shoir "Havoni qizgʻonmang, ozod havoni" deganda shunday mahkumlikni nazarda tutgan. Adabiyotshunos olim Ilhom Gʻaniyev "ajr sahari" va "hajr sahro"sini shunday tahlil qiladi:

www.ziyouz.com kutubxonasi

“Ajr sahrosidur” — Alloh har kimning niyati, amaliga qarab mukofot berishi, dunyo esa hajr sahrosi”[1].

Thakur oʻlimni tugʻilish deya atayapti. Aynan shuning uchun Rauf Parfi she’rning sarlavhasidan keyin 7.05.1941-yil Thakur vafot etgan sanani yozib qoʻyadi.

Thakur Hindistonni milliy ozodlik harakatlariga undagan. Uning “Toʻrt hayot” qissasi, “Xonadon va jahon” romanlari milliy ozodlik harakatlarini aks ettiradi. Uning soʻnggi soʻzi ham Rauf Parfi nazdida — xalning uygʻonishi istagi edi.

Rauf Parfi she’riyatidagi ijroviy lirika uslubi shoir uchun ichki kechinmalarini boshqalar tilidan aytishda qoʻl keladi. Shoir tanlagan lirik qahramonlar har doim unga ruhan yaqin, hamfikr insonlar boʻlgan. Ularning barchasi oʻz davrining qahramonlari va ayni paytda adolatsizliklardan ezilgan xalq himoyachilaridir. Ular oʻz ijodi, qarashlari bilan xalqni ozodlikka chorlagan timsollar. Rauf Parfi Vatani uchun qaygʻurayotgan har bir subyektiv shakl orqali oʻz ona Turkistoni uchun boʻzlaydi, oʻz Turkistonining ham ozod boʻlishini xohlaydi.

Lirika insonning qalb torlarini chertuvchi adabiy turdir. Shuning uchun ham lirik tur haqida gap ketganda hissiyotlar haqida ichkin kuylay olish imkonini beruvchi ifoda turi deya olamiz. Lirik turning har xil koʻrinishlari mavjud boʻlib, ular turli she’riy janrlarda oʻz aksini topadi. Ijodkor oʻz fikrini ifodalashi uchun unga shaklning ahamiyati yoʻq. Har qanday yaxshi shoir shaklni boʻysundirgan holda gʻoyani yetkazib bera oladi. Ammo shunday shakllar ham borki, ularning oʻzi mazmun uchun ham xizmat qiladi.

[1] Илҳом Ғаниев. Рауф Парфи Ўзтурк дунёси. — Т.: “Muharrir”, 2021. — B.667.

www.ziyouz.com kutubxonasi

Yapon she'riyatidan kirib kelgan xokku janri o'zbek adabiyotida uchliklar shaklida rivojlandi. XX asr o'zbek adabiyotining yirik shoirlaridan bo'lgan Rauf Parfi (O'zturk) ijodida ham uchliklarning ahamiyati katta. Shoir yapon ijodkorlarining xokkularini rus tilidan tarjima qilgan va uning ta'sirida o'zi ham shu janrdagi she'rlarni bita boshlagan.

"Yapon xokkulari tarjimasiga qo'l urgan 1961-yilda Rauf Parfining rus tilini bilish darajasi, she'r tarjimasi borasida orttirgan tajribalaridan tashqari yapon she'riyati bilan ham yetarlicha ma'lumotga ega edi. Daftarning 96-sahifasida "Uchlik" sarlavhasi ostida kelgan bir betlik ma'lumot ham shunga guvohlik beradi:

"UCHLIK Yapon poeziyasida xokku deb ataluvchi she'rning bir turi bo'lib, qisqaligi va go'zalligi bilan o'ziga xosdir. Xokkuda tabiat va tabiat orqali inson kayfiyati aks ettiriladi. Xokku uch misradan tashkil topgan qofiyasiz she'rdir. Birinchi misra besh bo'g'in, ikkinchi misra yetti bo'g'in, uchinchi misra besh bo'g'in — hammasi o'n yetti bo'g'in bo'lib, bu shakl qat'iy emas"[1].

Aynan mana shu qat'iy bo'lmagan qoidaga bo'ysunuvchi xokku janrini shoir yanada rivojlantirdi. Xokkularda, asosan, shoirning ichki kechinmalari aks etadi. Boshqa janrlarda ichki kechinma mavjud emasmi? degan savol tug'iladi. Mavjud. Lekin bu xokkular eng ichkin, sof pafosni ifoda etadi, ko'pincha. U ko'ngil kechinmalarini hech kimga, hech narsaga bog'lamagan holda tasvirlaydi. "Ta'riflardan ko'rinadiki, meditativ lirika shoirning hayot, borliq, odamlar, munosabatlar haqidagi his-tuyg'uga qorishiq fikrlari. Unda lirik qahramon asosan shoirning o'zi bo'ladi. Shunisi

[1] Olim Oltinbek. Xokkuning ilk tarjimoni.// www.kh-davron.uz..

www.ziyouz.com kutubxonasi

bilan ushbu lirik shakl boshqalaridan farqlanadi. Demak, biz shoirni "tanimoqchi" bo'lsak, uning meditativ lirikasiga nazar tashlaymiz".[1] Meditativ lirikaga xos bu xususiyat elegiya, epigramma, sonet kabi boshqa janrlarda ham uchraydi.

Meditativnaya lirika (gr. meditation — fikrlash so'zidan) — meditativ lirika. Shoirning biror hayotiy masala haqidagi qarashlarini ifodalovchi lirik she'r. Meditativ lirika sentimentalistlar va romantiklar poeziyasida kuchli mavqega ega bo'lgan[2].

R.Parfi she'riyatini ijtimoiy lirika sifatida juda yaxshi bilamiz, ammo uning avtopsixologik she'riyatida shoir ruhiyati qay darajada aks etgani ham muhim hodisadir. Xalq dardi bilan yashab, haqiqiy ozodlik talab qiluvchi bu shoir sevgida, do'stlikda, sog'inchda, huzunda qanday namoyon bo'ladi?

Uchliklar orqali kam so'z ishlatib, insonning ko'ngil dardlarini aks ettirish mushkul, ammo Rauf Parfi xokkularda, ko'pincha, o'zining eng ichkin tuyg'ularini tasvirlaydi. Masalan, uning quyidagi "Chag'alay" uchliklar turkumida ham ijtimoiylik bilan boshlangan mavzu ko'ngil nolalari bilan tugaydi:

Chag'alayim, mehmon chag'alay,
Bu yurtga qaydan kelding,
Nechun kelding, qurbon chag'alay?

Faqatgina uch qatorlik shaklni o'zida saqlab qolgan bu uchliklar Rauf Parfi yaratgan erkin bo'gin miqdoriga ega. Chag'alay oq rangli bo'lib, u tog' cho'qqilariga in quradi va dengizli hududlarda yashaydi. Erk timsoli sifatida kelayot-

[1] Bo'riyev Feruza.Xurshid Davronning meditativ (sof) lirikasi// www.kh-davron.uz
[2] Ҳатамов Н. Саримсаков Б. Русско-узбекский толковий словар литературоведческих терминов.—Ташкент: Укитувчи, 1979. — В.176.

www.ziyouz.com kutubxonasi

gan bu qush butun turkumda bosh obraz qilib tanlangan. Adabiyotshunos Ilhom G‘aniyev tahlilida chag‘alay iymon timsolida talqin qilinadi, chunki olim bu uchlikdagi so‘nggi qurbon so‘zining o‘rniga iymon so‘zi qo‘llangan variantni tahlilga tortgan[1].

Rauf Parfi kabi hurfikrli insonlar doimo o‘z dardlari bilan yolg‘iz yashaydi, ular jamiyat bilan kelisholmaydi, chunki ular shunchaki yashashni xohlashmaydi. Ularning dardlari qorin va kun o‘tkazish-u moddiy boyliklar emas. Ularga ma’naviy ozuqa, ma’naviy do‘stlar, ma’naviy hissiyotlar kerak. Shoirning “Shamolga osilib yashadim” nomli uchliklar turkumida aynan u istaydigan orzular va uni o‘rtaydigan hissiyotlar o‘z aksini topadi:

Shamolga osilib yashadim,
Mingga kirdim, chiridi jismim,
So‘ngaklarim oqardi qaqshab.

Ilmiy jihatdan ham e’tibor berilsa, iliklari qurib borayotgan suyaklar oqara boshlaydi. Butun umri davomida erkka sig‘inib yashagan shoirning kuta-kuta jismi chirib, suyaklari oqara boshlagan. Erk go‘yo inson tanasidagi suyaklarga ilik qay darajada muhim bo‘lsa, shoirning hayoti, fikrlashi uchun ham shu darajada muhim edi. U o‘zi uchun emas, eli uchun so‘ramoqda. Shu elni butunlay mustaqil ko‘rishni istaydi. Keyingi uchlikda shoir hayotida foniy dunyo tashvishlari yoki moddiyat, boylik o‘rni qayerdaligi bilinib turadi:

Dunyosiga qo‘ydim qo‘limni,
Oyog‘imni bosdim yuziga.
Ko‘zlarini yumdi bu dunyo[2]. [Parfi, 2013; 240]

[1] G‘aniyev Ilhom. Rauf Parfi O‘zturk dunyosi. — T.: “Муҳаррир”, 2021. — B.632.
[2] Rauf Parfi. Turkiston ruhi. — Toshkent: “Sharq”, 2013. — B. 240.

www.ziyouz.com kutubxonasi

Uchlikdagi lirik qahramon Rauf Parfining aynan o‘zi. Shoir umri davomida mol-dunyo to‘plamagan. Uning hatto muqim yashash joyi ham bo‘lmagan. U uy olish uchun Sharof Rashidovga ham, Islom Karimovga ham yaltoqi she’rlar yozmagan. Hatto insonlar bilan chiqisha olmaganidan bir joyda uzoq vaqt ham ishlamagan. Aldov shoir uchun begona edi. Quyidagi xokkuda umumiy ma’nodagi har qanday sevgini tushunishimiz kerak:

Mana zahar, hozir ichaman,
Ketaman men sizning hayotingizdan,
Sevaman deb sizni aldadim. [Parfi, 2013; 241]

Birgina mana shu aldov tufayli shoir o‘zini o‘limga munosib ko‘radi. Ushbu uchlik bilan boshlanuvchi turkumda shoirning muhabbat mojarolari aks etgan bo‘lishi ham mumkin. Uning umr yo‘llari ruhiyatini tushuna olmagan ayollar bilan kesishgan edi. Turmushda omadsizlikka uchragan Rauf Parfiga hayot ham shafqat qilib o‘tirmadi. Haqiqatni so‘zlay olgan insonga hamma narsada adolatsizlik yuz beradi.

Men yig‘ladim tushimda,
To‘yib-to‘yib yig‘ladim,
Yoningizga endi bormayman.

Yuqoridagi uchlikda ham insonlarni tark etib, uzlatni ma’qul ko‘rgan shoirning yolg‘izlik istagi aks etadi. Uning qalbiga hali hech kim o‘zi kabi quloq solgan emas. Quyidagi uchlikda aynan shuni nazarda tutgan shoir o‘zini “hech kim ichmagan suv”ga, “hech kim o‘qimagan kitob”ga o‘xshatadi:

www.ziyouz.com kutubxonasi

Men suvman, hali hech kim ichmagan,
Kuygan kitobman men,
Hali hech kim oʻqimagan. [Parfi, 2013; 242]

U xuddi shunday yolgʻizlikda erkni qoʻmsab yashaydi. Quyidagi xokkuda "kunlarimni sanadim sensiz" deganda shoir ozodlikni nazarda tutgan. Ozodliksiz oʻtgan har yillar koʻziga sachraydi, usiz oʻtgan har oylar jigariga oʻt qoʻyadi. Aynan mana shu uchlik tahlilida adabiyotshunos Ilhom Gʻaniyevda biroz boshqacha fikr mavjud. Ammo bu xato she'r matnini notogʻri koʻchirish ortidan yuzaga kelgan boʻlsa ajab emas. Chunki olimda she'r matni quyidagicha:

Yillar koʻzimga sachradi,
Jigarimga oʻt qoʻydi otlar,
Kunlarimni sanadim sensiz. [Gʻaniyev, 2021;644]

Mantiqan oʻylab qaralganda ham yil, kun soʻzlari tanlab olinayotganda she'r mazmuniga ot obrazi qanday qilib kirib kela oladi?!

Bu dunyoga ham, undagi insonlarga ham ishonchini yoʻqotgan shoir timsolini quyidagi uchlikda uchratamiz:

Ishonch yoʻq hech kimga. Bu qanday Dunyo,
Yashab yasholmaysan, bu qiziq,
Tashlab tashlolmaysan, undan qiziqroq.

Inson yasharkan, bir ilinj bilan kunlarini oʻtkazadi. Mana shu ilinj iplari uzilgan onda yashagisi kelmaydi, ammo yana umidini soʻndirmay kutadi va bu dunyoni tashlab ham ketgisi kelmaydi. Rauf Parfi she'riyati orqali xalq koʻzlarini ochishga jon-jahdi bilan harakat qildi. Unda ham balki hammasi yaxshi boʻlar, bu xalq ham qullik zanjirlaridaligini bir kuni anglab yetar, bir kuni oʻz haq-huquqlarini qoʻrq-

www.ziyouz.com kutubxonasi

may talab qiladigan darajaga erishar, degan umid bor edi. Ana shu narsa shoirni hali hech narsaga erishmay turib dunyodan ketishini bekor qilar edi. Ammo har qadamda ro'y beradigan voqealar va oddiy insonlarning bunchalar zanglagan dunyoqarashlari, unga qo'yilgan taqiqlar uni shunchalar hayotdan bezdirar edi.

I bob yuzasidan xulosa. Xulosa qilib aytsak, Rauf Parfi uchliklarida uning dunyoqarashi, fikrlashi to'la namoyon bo'ladi. Uning meditativ lirikasi qisqa satrlarda katto ma'no bilan bo'y ko'rsata olgan. Ayniqsa, shoirning "Isikava Tokuboku xotirasiga" deb nomlangan uchligida she'rlarida o'zi aks etishini obrazlar vositasida yaqqol aytib o'tadi:

Hasratimning suyuq toshlaridan
Dahma qurmoqchiman o'zimga.
Ichida o'z jasadim bo'lsin. [Parfi, 2013;102]

Shoir qurgan dahma uning she'riyati, unda aks etgan jasad esa shoirning ko'ngli timsolidir.

www.ziyouz.com kutubxonasi

II BOB. RAUF PARFI SHE'RIYATI JANRIY TARKIBI VA SHAKLIY O'ZIGA XOSLIKLARI

1-fasl. Shoir she'riyatida janriy yangilanishlar

Rauf Parfi ijodiy tajribasining o'zbek poetik so'z madaniyatidagi novatorligi shundan iboratki, u boy madaniy an'analardan voz kechmadi. Ularga tayanib o'z bulog'ini ochishga, o'z yo'lini belgilashga erishdi. Ko'pchilik adabiyot ixlosmandlari shoirning she'rlariga to'liq modern uslubning namunalari sifatida qaraydi. Lekin Rauf Parfi ijodidagi g'oyalar va badiiy obrazlar azaliy so'z san'atimizdan yiroqlashmagan holda yozilgan. Modern yoki postmernizmda yozilgan, sentimentalizm oqimiga kirib ketuvchi ijod namunalari ham ko'plikni tashkil etadi, ammo bu an'anaviy uslubda umuman yozmagan degan xulosaga olib kelmaydi. Rauf Parfi mavjud turkiy she'r hijo tizimini o'ziga moslashtirdi, takomillashtirdi, boyitdi va o'z navbatida rivojlantirishga erishdi. Mumtoz she'r madaniyatidagi, xalq og'zaki ijodidagi she'r tuzilishining uyquga ketgan shakllarini uyg'otdi. Rauf Parfining "Parfiy" taxallusi bilan g'azallar yozgani ma'lum. U har bir janrda go'zal badiiyat namunalarini yarata oldi.

www.ziyouz.com kutubxonasi

Erkin she'r tuzilishi turkiy she'riyat uchun begona emasligi, qadimiy she'r madaniyatimiz tarixida mavjud ekanini ijodiy tajribasi orqali tasdiqladi. Shoir she'rlarida XX asr xalqining orzu-armonlari, dard-alamlari, sevinch-u tashvishlari, qalb zarblarini aks ettirdi. Mana shu ruhni saqlab qolgan holda shaklni o'zgartirdi, xolos. Jahon she'riyatiga xos bo'lgan janrlar: sonet, xokku, tanka, rondel (rondo), uchliklar shoir tufayli o'zbek adabiyotida ham o'z o'rnini ko'paytirdi. Bu janrlardan xokku, rondel, tanka kabilarini faqatgina Rauf Parfi o'zbek she'riyatiga olib kirishni boshlagan desak, adashmaymiz. Rauf Parfining ana shu xizmatlari haqida shoir Mirpo'lat Mirzo shunday eslagan edi: "Zero bir paytlar alloma adib Asqad Muxtor shoirning "Sabr daraxti" to'plamiga yozgan so'zboshisida: "...she'rlariga sarin musiqiylik bag'ishlay oladigan shoir og'ir mavzularga qo'l urganda sarbastga murojaat qilib, ba'zi shakliy shartliliklardan o'zini xoli qilib oladi... Sarbast uni negadir ko'pincha deklamatsiyaga sudrab ketadi", degan edi.

"Xokkular" esa she'riyatimizga tabiatan singishib ketmagani bilan (garchi shoir uni "Tuyg'ular" deb nomlagan esada), uning ijodida unchalik muvaffaqiyat qozonmadi. Ayni shu o'rinda bir narsani alohida ta'kidlash kerakki, Rauf Parfining ushbu "izlanish tajribalari" ko'p shoirlar uchun "yuqumli" bo'ldi va yuqorida ta'kidlaganimiz kabi she'riyatda uslublar "urchib" ketdi. Bugungi kunda ular "modern she'riyat" degan nom ham oldi"[1]. Rauf Parfi ana shunday o'z dunyosini o'zbek she'riyatiga olib kirdi va butun dunyoga teng san'at qoldirdi o'zidan. Adabiyotshunos Nurboy Jabborov shoirlik va ijod haqida shunday degan edi: "Kichkina

[1] Mirpo'lat Mirzo. Rauf Parfi davrimizning yagona daho shoiri. // "Yoshlik" jurnali, 2009-yil, 4-son.

www.ziyouz.com kutubxonasi

dunyoga uchishga, kundalik yovg‘onga ko‘nishga she’riyatning haqqi yo‘q. U zaminning dardini osmoniy ruhda kuylamog‘i kerak”[1]. Rauf Parfi ana shunday osmoniy shoirlardan biri edi. Shoirda tug‘ma iste’dod, yurak, vatan sevgisi, iymon kabi eng kerak bo‘lgan fazilatlar bor edi.

Rauf Parfi sonet janrida Barot Boyqobilov qatorida Usmon Nosirdan keyin eng samarali ijod qilgan ijodkordir. Shoir o‘z tuyg‘ulari, dardi, iztirobini sonet uslubida yozilgan she’rlarida teran va mukammal ifodalay oldi. Ana shu qirrasi bilan jahonning eng katta shoirlari ila bellasha oladigan mavqega ko‘tarildi. Jumladan, “Ko‘zimning g‘orida parchinlangan ko‘k” misrasi bilan boshlanuvchi sonetda shunday satrlar bor:

...Sen yolg‘izsan bu dunyoda, sevgilim,
Cheksiz chidamimning sinchlari sindi.
Cho‘nkaygan cho‘qqidan so‘rayman seni,
Qarigan bahordan seni so‘rayman.
Topgil, deyman Mening Buyuk Sevgimni.
Yer tishlab so‘rayman, so‘ng bor ko‘ray man,
Chaqinlar jimlikka chaqar jismingni.
Ko‘kning sinig‘iga seni o‘rayman[2].

Bu satrlar shoir she’riyatining hech qachon zavol bilmaydigan yuksak san’at darajasiga ko‘tarila olganiga dalolatdir.

Rauf Parfining sonet janridagi she’rlari bilan tanishar ekanmiz, sonet janri o‘zi dastlab qayerda paydo bo‘lgani, o‘zbek she’riyatiga qayerdan kirib kelganligini aniqlashimiz lozim.

[1] Jabborov Nurboy. Zamon. Mezon. She’riyat. — Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi , 2015. — B.34.
[2] Рауф Парфи. Туркистон руҳи. — Тошкент: Шарқ, 2013. — B.258.

www.ziyouz.com kutubxonasi

Sonet — (ital. sonare — jaranglamoq so‘zidan) o‘n to‘rt misradan iborat she’r shakli bo‘lib, ko‘pincha, a-b-b-a — a-b-b-a — v-v-g — d-g-d (boshqa xil variantlari ham bor) shaklida qofiyalanadi. Dastlab Italiyada paydo bo‘lgan. Bu janrning mustaqil she’r turi sifatida shakllanishida Dante va Petrarkaning xizmatlari katta. Buyuk Britaniya adabiyotida V.Shekspir sonet rivojiga katta hissa qo‘shdi. She’riy shaklning bu turidan, ayniqsa, simvolist shoirlar keng foydalanganlar. Rus poeziyasida Jukovskiy, Pushkin, Delviglarning sonetlari mashhur[1]. Sonetlar nazariyasini boyitishda Bexerning xizmatlari kattadir. U sonetni badiiyatning eng yorqin dialektik ko‘rinishlaridan biri deb atadi. Sonetning dastlabki to‘rt misrasini u tezis sifatida katren, keyingi to‘rtligini antitezis ikkinchi katren, so‘nggi uchliklarni terset deb atadi. O‘zbek adabiyotida sonet janrida ijod qilishni U.Nosir boshlagan bo‘lsa, Barot Boyqobilov, Rauf Parfi bu tajribani yanada boyitdi.[2] Sonet janri qat’iy qoidalarga bo‘ysungan shakl bo‘lishiga qaramay, unda tadrijiy taraqqiyotning inson shuuriga qilgan ta’sir kuchi tobora ortib borgani ma’lum. “Sonetda davr yashaydi, to‘g‘rirog‘i, davrlar”. G‘arb sonetshunosligi badiiy tajribalarni an’anaviy yo‘sinda tashkil etib, ijtimoiy muammolarni ham ifodalab kelgan bo‘lsa, o‘zbek milliy sonetnavisligida ushbu masalalarni yanada kengroq miqyosda aks ettirishga intilish kuchayib bordi, ya’ni hayotning deyarli barcha muammolarini qamrab olish va tasvirlashga intilish sezildi. Sonetning an’anaviy vazifasiga o‘zgacha estetik yuk baxsh etildi. Uni favqu-

[1] Tojiddin Razzoq. Dunyolarni mehrga to‘ldiraman // “Yoshlik” jurnali, 2011-yil, 11-son. www.yoshlikjurnali.uz.

[2] O‘rayeva D, Quvvatova D. Jahon adabiyoti atamalarining izohli lug‘ati. —Toshkent: Turon zamin ziyo, 2015. — B.137.

www.ziyouz.com kutubxonasi

lodda go‘zal tashbehlar, yangicha timsollar bilan boyitishga harakat qilindi. Sonet asoschilaridan Petrarka badiiyati o‘ziga xos bo‘lib, unda tashbehlar, epitetlar ko‘p qo‘llangan. Lekin o‘rta asrlarga kelib sonetda keskin dramatik jihatlar tasviri kuchaya bordi. Poeziyada qad ko‘targan shaxsning hissiyot dialektikasi asosiy planga chiqarildi. Xuddi mana shu holatni Shekspir sonetlarida kuzatish mumkin. Shekspir sonetlarini va asarlarini Rauf Parfi tarjima qilgani bois uning uslubi shoirga ham yuqqan bo‘lishi tabiiy. Ammo shoirdagi iste’dod birlamchi xususiyat bo‘lmaganda, u buni uddalay olmas edi. Rauf Parfining uslub jihatlari ham shu yo‘sinda shakllanib o‘ziga xoslik kasb eta borgan. Rauf Parfi sonetlarida bag‘ishlovlar ko‘p uchraydi. Bir qancha shaxslar nomi sarlavhaga qo‘yib yozilgan sonetlar buning isbotidir. Jahon adabiyotidan farqli jihati Rauf Parfi bu janrga faqat hissiyotni emas, balki siyosiy-ijtimoiy mavzularni ham olib kirdi. Uning “Yana men uyg‘ondim, dovdirab turdim” deb boshlanuvchi sonetiga e’tibor bering:

Yana men uyg‘ondim, dovdirab turdim,
Ko‘zimda tushimning qo‘rqinch surati,
O‘chirdim suvratni, falakka burdim,
Qani uning so‘zi! Qani qudrati?!

Qani mening tilim tinglasa birov,
Baxtdan to‘yib ketgan soqov olomon.
Oltindan kishani, kumushdan burov,
Bo‘g‘zida olqish-olqish, omon-omon.

Nihoyat uyg‘ondim, uyquda olam,
Ko‘rpasin yirtib ingradi xotin.
Mendan bir to‘g‘ram non tiladi bolam.

www.ziyouz.com kutubxonasi

Qandayin tugandi bu mahshar bu tun?
Men uyg‘ondim. Salom-assalom.
Qaytib keldim, ey va’dasi yolg‘on, Kun[1].

Misralar Turkistonning sobiq sovet tuzumi davridagi erksizligi vaqtidagi hodisalarga to‘la. Uyg‘onish — o‘zini, erkini anglash edi. Shuncha olomonning ichida shoirning uyg‘onishi va xalqni ham uyg‘onishga da’vat qilayotganini sezish mumkin. Ammo “uyquda olam” so‘zlari orqali shoir xalqning hamon uxlab yotganini aytmoqda. Sovet tuzumi shunday ustomonlik bilan hayotni qo‘lga olgan ediki, “olomon” baxtli sanardi o‘zini. Lenin siyosati, kommunizm, jamoaviyliklarning barchasi “oltin kishan” va “kumush burov” edi. Xalq esa hamon “zarbdor ishchi”, “respublika paxtakori” bo‘lib “olqish-olqish”, “omon-omon” qilib yuribdi. Ammo bu mehnatlarning hech biri unga nasib etmaydi. “Qayta qurish” davrini eslab ko‘rsak ham Tog‘ay Murod asarlarida ham xalqning och-nahor qolib ketganiga guvoh bo‘lamiz. Bolasiga bir burda non topib berolmayotgan xotin tunda ko‘rpasini yirtib ingranadi. “Kun” tuzum va’da qilgan yolg‘onlar, “yorug‘ kunlar” obrazidir. Bu sonet janridagi she’rning qofiyalanish tizimi biz yuqorida keltirgan shakldan farq qiladi. Rauf Parfi bu shaklni o‘zbek she’riyati madaniyatiga moslagan bo‘lishi mumkin. Umuman olganda, bu janr fikrlarni erkin berish imkonini oshirgani uchun har bir shoir qofiya tizimini o‘ziga moslashtirishi mumkin. Shoirning “Zangori og‘ochman, hozir osaman” misralari bilan boshlanuvchi sonetida shoirning badiiy idroki istioralar shaklida namoyon bo‘lgan. Sonetda zangori og‘och, quyosh,

[1] www.saviya.uz.

www.ziyouz.com kutubxonasi

qish, bahor, barg kabi istioralar qo‘llangan. Ular murakkab assotsiativ poetik obrazlar talqinida muhim o‘rin egallagan.

Zangori og‘ochman. Hozir osaman,
Qayta tirilaman to‘lib sehrga.
Ul Mehraning qanotini yozaman,
Dunyolarni to‘ldiraman mehrga.

Rauf Parfi she’riyatida daraxt badiiy obrazi o‘rnida ko‘p hollarda asl turkiy “og‘och” so‘zi qo‘llanadi. Yuqoridagi misralarda kuzatilgandek, og‘och-zangori shaklda, ya’ni lirik qahramon kechinmalari ifodasida shoirning ijod pallasi tasviri o‘rin olgan. Ijod pallasi holati yashnagan yashil daraxtga mengzalgan. Yashil daraxt haqida so‘z borayotganda shoir assotsiativ holatni vujudga keltiradi. “Hozir osaman” jumlasi o‘z-o‘zidan savol tug‘diradi. Lirik qahramon daraxt shoxlariga nimani osmoqchi va bu holat qay ma’noda? Ayonlashadiki, “Zangori og‘och”da lirik qahramon o‘z mevalarini paydo qilmoqchi. Ana shu mevalarda u qaytadan jonlanadi. Mevalar esa pishib-yetilishi uchun quyoshni — Mehrani chorlashadi. Mehra esa mevalarni larzonlashtiradi. Poetik mushohada shu tariqa ijod mahsuliga aylanadi. Sonetning ikkinchi katrenida lirik qahramon kayfiyati fojiaviy holat chizgilarida namoyon bo‘ladi. “Qish” istiorasi “boshida azaliy oqtosh”, “Qonli bulutlarga burkanib qotgan” kabi tashbehlar tasavvurimizda insonning ayozli, musibatli holatlarini esga soladi. “Bahor” istiorasiga “muzlagan otash”, “zulmatning jizg‘anak tonglari” kabi tashbehlari uyqash kelyapti. Bu esa inson umrining bahori ham qonuniyatlarga asoslanishini anglatadi. Sonetning ushbu katreni kulminatsion holat hisoblanadi. Ijodkor oddiy insondan farqli o‘laroq har bir manzarada o‘zgacha ma’no

www.ziyouz.com kutubxonasi

uqa oladi. Xususan, fasllar tavsifida ham teran nigohi orqali oʻyga toldiradigan manzaralar chiza oladi. Sonetning terset qismida lirik qahramon ijodkor sifatida oʻzligini, individual jihatlarini barg, xalq, olomon, shoir, shoh kabi poetik shakllarga beradi:

Abadiy koinot birla qolaman,
Oʻlsam chirqiraydi ovozim tanda,
Eng yangroq yulduzni uzib olaman.

Ezilgan, xoʻrlangan bargman tubanda,
Yolgʻiz, oʻzim-xalqman, oʻzim olomon,
Men shoirman axir, shohman, ey banda.

Eng yangroq yulduzni uzib olishi esa ijod osmonida porlayotgan yulduzga egalik qilish istagi bu — mangulikka ishora. Barg badiiy obrazida "ezilgan", "xoʻrlangan" tashbehlarining qoʻllanishi ijodkor xoksorligiga ishora. Bu holat sonetning yechimi sanaladi. Shoir oʻzligini topganda, "oʻz men"iga ega boʻlganida esa oʻz olamining "shoh"i darajasiga koʻtariladi. Koʻrinadiki, asl lirik asar "Tilsiz sezgilarga soʻz va obraz beradi, ularga alohida umr bagʻishlaydi". Rauf Parfi sonetlari koʻproq assotsiativ tafakkur hosilasi sifatida yuzaga kelgan. Assotsiatsiyalar sonetlarda metaforalar qoʻllash, ramz-obrazlarga murojaat, kontrast usullardan foydalanish hisobiga vujudga keladi. Shoir sonetlarida jiddiy muammo qoʻyiladi, kechinma assotsiativ fikrlash tarzi orqali tavsiflanadi. Falsafiy yoʻnalishdagi sonetlarda komil inson rozlari, inson erki, millat taqdiriga qaygʻurish, shoirning oʻziga xos olami, Vatan muqaddasligi, sevgi iztiroblari va hijron dardlari asosiy mavzu sanaladi[1].

[1] Xonimqul Tojiyev, Obidaxon Fayzullayeva. Rauf Parfi ijodida sonet. // Sharq yulduzi, 2016-yil. www.kh-davron.uz.

www.ziyouz.com kutubxonasi

Rauf Parfi — “Yo‘qlik”dagi “Borlik” shoiri. “Yo‘qlar”ni ham o‘z she’rlarida bor qiluvchi, uyg‘otuvchi shoir. “Moziyga qarab ish ko‘rmoq xayrlidir” deb moziyni ham bugunning o‘zida akslantiruvchi shoir. Rauf Parfi ijodida sonet janrining yuksak na’munalarini ko‘rishimiz mumkin. Ko‘pincha ichki his-tuyg‘ularni, ruhiyatni tasvirlovchi shoirning sonetlariga e’tibor bersak, ularning markazida qaysidir buyuk shaxslar obazi yoxud asarlardagi bosh qahramonlar turganini ko‘ramiz. Shoirning “Hamlet” sonetida aynan shu nomning she’rga berilganini va she’rda ham Hamlet xarakteriga mos belgilar namoyon bo‘ladi.

Faqat vijdon bilan o‘rtanar Hamlet,
Doniyo zindonga qarab turar lol.
Biz ham shu sahnaga tikilamiz tek,
Shundayin o‘rtaydi qadimiy savol.

Rauf Parfining bag‘ishlov sonetlari ham bor. Masalan, uning “Ona Turkiston” nomi ostidagi uchta soneti Abdulla Qodiriyga bag‘ishlov tarzida yozilgan. Chunki shoir “Ona Turkiston” “Ona Turkiston” bo‘lgunicha Qodiriyning zahmatlari ancha bo‘lganini o‘z his-tuyg‘ularida aks ettiradi. Bu nom ostidagi birinchi sonetning tugashida Qodiriyni sig‘dirmagan Vatan obrazi g‘oyani tashish uchun xizmat qiladi.

Nahot farzandiga — o‘ziga g‘anim,
O‘zi yuragimga jo bo‘ldi, ammo
Nechun sig‘dirmadi, nechun Vatanim?!

Uchala sonetda voqealar, hissiyotlar tadrijiy bayon qilinadi. Dastlabkisi savol bilan tugagan bo‘lsa, ikkinchi sonetning boshidan oxirigacha yuragida alamlari junbushga kelgan lirik qahramon (u ham Vatanning jonkuyar farzan-

www.ziyouz.com kutubxonasi

di) qasos oʻtida yonadi. Sonetning markazida ham "Qasos" obrazi turadi.

Yoʻq farmon kutarman, eng soʻnggi farmon
Shaklanib qararman qalqqan quyoshga,
Baribir, qasos deb yonarman hamon.

Uchinchi sonetda vatanning manguligi uchun bu umr (Qodiriy) behuda qurbon boʻlmaganini anglab yetadi. Aslida ular uchun ham eng katta Baxt —"kuyib kuylamoq haqqi" ekanligini tushunib yetadi.

Ey mening zahmatkash, ey qutlugʻ xalqim,
Bergil faqat kuyib kuylamoq haqqin.
Ortiq mas'ul etar topilgan bu Baxt.

Rauf Parfining markazida shaxslar obrazi turadigan sonetlarini mazmuniga koʻra ikki guruhga ajratish mumkin:

1. Bagʻishlov tarzida yozilgan va Rauf Parfining his-tuygʻulari aks etgan sonetlar: "Hamlet"(Rauf Parfini Shekspir bilan bogʻlaydigan yana bir rishta uning sonetlari bilan bogʻliq. Dunyo sonetchiligida ikkita yoʻl bor: biri Petrarka yoʻli (klassik sonet), ikkinchisi Shekspir yoʻli (erkin sonet). R. Parfi sonetchilikda Shekspir yoʻlini tutdi, oʻsha yoʻlda oʻzbek sonetchiligini yangi bosqichga koʻtardi[36]), "Ona Turkiston" (Qodiriyga bagʻishlov), "Bitiktosh" (Azizxon Qayumga bagʻishlov), "Tagor va Srabon yomgʻirlari" (Tagor haqida), "Abdulhamid Sulaymon Choʻlpon", "Betxoven", "Pablo Neruda oʻlimiga", "Eduard Veydenbaum"[1]. Bunday sonetlarni biz avtopsixologik lirika deyishimiz mumkin. Yuqorida sanab oʻtilgan sonetlarda lirik qahramonni, ya'ni sonetda tilga olingan shaxsni, masalan, Qodiriy his tuygʻula-

[1] Nomlari keltirilgan she'rlar R. Parfining "Turkiston ruhi" saylanmasidan olindi.

www.ziyouz.com kutubxonasi

rini shoir bevosita his qiladi va o‘ziniki sifatida o‘quvchiga “men” tilidan so‘zlab beradi:

Nahot farzandiga — o‘ziga g‘anim,
O‘zi yuragimga jo bo‘ldi, ammo
Nechun sig‘dirmadi, nechun Vatanim?!

2. Sarlavhasi bevosita she’r bag‘ishlangan shaxs ismi bilan atalib, o‘sha shaxsning his-tuyg‘ulari aks etgan sonetlar: “Van Gog”, “Aleksandr Blok”, “Siyovush faryodi”, “Abdurauf Fitrat”, “Chingiz Aytmatov”, “Bayronning so‘nggi safari” (Rauf Parfining Bayron shaxsiyati va she’riyatiga ruhiy yaqinligi uning “Bayronning so‘ngi safari” she’rida ham ko‘ringan. Ushbu safar o‘z davrida ham jahon adabiy jamoatchiligining e’tiborini tortgan edi. Bu haqda V. Skott o‘zining “Lord Bayron o‘limi”, V. Gyugo “Lord Bayron haqida” maqolalarini, A. Pushkin “Dengizga” she’rini, shuningdek, V.Kyuxelbeker, K.Rileev, D.Venevitinov kabi shoirlar ham she’rlar yozishgan. Bularning barchasi shoir vafot etgan — 1824-yilda yozilgan edi. Oradan 152 yil o‘tib (1976-yil), o‘zbek shoiri Rauf Parfi ham ushbu mavzuga murojaat qildi. 1823-yilda Gretsiyada milliy-ozodlik harakati boshlanib ketgan edi. Qadimgi yunon madaniyatining ashaddiy muxlisi bo‘lgan Bayron ushbu kurashda ishtirok etishni o‘zining ham insoniy, ham shoirlik burchi deb bildi. 1824-yil 19-aprelda o‘limi oldidan u shunday degan edi: “Men unga (Gretsiyaga — O.O.) vaqtimni, mol-mulkimni, sog‘lig‘imni berdim — bundan ortig‘ini qilishim mumkinmi? Endi esa unga hayotimni beraman”. Rauf Parfi qalbini o‘ziga rom etgan tuyg‘u — bu Bayronning milliy-ozodlik harakatida ishtirok etishi edi.[1]

[1] Olim Oltinbak. Rauf Parfi va jahon adabiyoti .// www.kh-davron.uz.

www.ziyouz.com kutubxonasi

Shoirning “Pablo Nerudaning o‘limiga” sonetida Nerudaning qismati o‘tkir hissiyot tasviri orqali ochib beriladi. “She’rda Rauf Parfi uni “Chilining oppoq tongi”, “Ozodlikning so‘ngsiz osmoni”, hatto “Ozodlik osmonining quyoshi” degan so‘zlar bilan ta’riflaydi. Afsus, uni o‘ldirdilar: “Ufqning bo‘yniga sirtmoq — dor tashlab”, “o‘ldirdilar qora mash’al tutgan qora shaytanat”[1].

Qo‘llariga qaytadan qora mash’al olgan
mash’um shaytanat —
Zulmatliklar Chilining oppoq tongini
Chil-chil sindirdilar.
Qonli sanjoq ildilar, Pablo.
Yetim qilmoq bo‘ldilar ozodlikni
Faqat.
Yana o‘zlarini yetim qildilar, Pablo.

Yuqorida sanab o‘tilgan sonetlar ijroviy lirika tarzida bayon etilgan, Rauf Parfi tilidan lirik qahramonlar kechmishlari, ular his qilgan og‘riqlari ro‘y berib o‘tgan voqea-hodisalar qabilida ijro etilmoqda. Bu sonetlarning ko‘pchiligi o‘ziga uchtadan qismni birlashtiradi. “Abdurauf Fitrat” sonetida turkum uchun Fitratning:

Nega chulg‘ab oldi buncha tikonlar?
Nega chiqdi yuragingdan bu qonlar?

misralari epigraf qilib olinadi. She’rdagi asosiy g‘oyani shoir ramzlarga yuklaydi. Rauf Parfiona uslubda yana qora rang butun Turkiston halokatining qay darajada ekanini anglatib turadi. Birinchi sonetning tugashida:

[1] Olim Oltinbek. Rauf Parfining adabiy-estetik qarashlari.// www.kh-davron.uz.

www.ziyouz.com kutubxonasi

Riyolar, rishvatlar... Zaharli havo.
Azon tovushini tinglayman og‘ir.
Turkiston. Qora tun. Shamol va yomg‘ir.

Bu Fitratning o‘y-xayollari, Fitratning og‘ir tasavvuri edi. Ikkinchi sonetning boshlanishi ham aynan shu rang bilan ifodalanadi:

Aytadir oy dardin bulut qo‘ynida,
Bulutlar hurpaygan, na-da qoradir.

Rauf Parfi shaxs tasviridagi sonetlarining ko‘pchiligida yurti uchun qayg‘urgan, fidoiy shoir, yozuvchilarni qalamga oladi. Bu faqatgina Turkiston shoirlari emas, boshqa xalqlarning jonkuyarlari ham tasvirlangan sonetlar edi. Jumladan, Rossiyaning buyuk yozuvchilaridan bo‘lmish Aleksanr Blokning qalbini tirnagan fojealar ham bayon etiladi. Rauf Parfi bu rus shoiri ijodi bilan juda erta, o‘smirlik chog‘idanoq tanishgan va 16 yoshida she’rlarini tarjima qila boshlagan.[1] Yillar o‘tib shoirning Blokka bo‘lgan munosabati “Aleksandr Blok” sonetida aks etadi.

Qora bulutlarni o‘ynar osmon.
Olis yulduzlarning sirli shu’lasi.
Tumonli sohildan undar begumon
Bu so‘lg‘in shamlarning ignalik sasi.

Blok she’riyati va Rauf Parfi ijodida ruhiyat yaqinligi, fikr birligi bor. Taniqli shoira Xosiyat Rustamova: “Agar mana shu ruhiy yaqinlik bo‘lmasa, bir shoir ikkinchi shoirning she’rini mukammal tarjima qilolmaydi”, degan edi. Adolatni alqab, erksizlikka aza ochuvchi bu shoirlarni ham shu mushtaraklik birlashtirgan bo‘lsa ajab emas. Rauf Parfida A.Blok she’rlari ruhi sezilib turadi:

[1] Aleksandr Blok. She’rlar. www.kh-davron.uz.

www.ziyouz.com kutubxonasi

Och, xasta erksizlik ochsa gar quchoq,
Ayyom ayyom emas, yil ham yil emas.
Qachon tuga boshlar dalalar boshoq,
Qachon xo‘rlangan xalq oladi nafas[1].

Rauf Parfi niderland musavviri Vinsent Van Gog bilan ham juda yaqin ruhiy aloqada bo‘lgan. Vinsent faqat umrining so‘nggi yillaridagina ijodi haqida iliq fikrlar eshita boshlaydi. Umri davomida har bir chaqani sanab hayot kechirgan musavvir ijodi bugungi kunda eng qimmat auksionlarda sotiladigan asarlar qatorida turadi. Musavvir ilojsizlik va tushkunlik oqibatida bitta qulog‘ini kesib tashlagan.[2] Rauf Parfi uning his-tuyg‘ularini ifodalaganda shunday ta’riflaydi:

Buncha g‘arib ... razillar ko‘p dunyoda?!
Kesib berarmikan qolgan qulog‘in...

Xurshid Davron Van Gog nomini o‘zbek she’riyatiga Rauf Parfi olib kirganini ta’kidlaydi. Xurshid Davron, musavvir Shuhrat Abdurashidov, Rauf Parfi suhbatlashib turishganda Rauf Parfi shunday degan ekanlar: “Verlen musavvir, Van Gog shoir, men esam kompozitor bo‘lishim kerak edi aslida”. Rauf Parfi bu ikki ijodkorga o‘zini qismatdosh deb bilgan, bu she’rlarida o‘z iztirobini aks etgan deb o‘ylayman.[3]

Buyuk sevgi rangin izlab yurardi,
Yozar moviylikka rangin qasida.
Biroq hayrat ichra qalqar yuradi,
Yaxshilik, yomonlik chegarasida[4].

[1] Aleksandr Blok. She’rlar. www.kh-davron.uz.
[2] Xurshid Davron. Pol Verlen, Van Gog va Rauf Parfi.// www.kh-davron.uz.
[3] O‘sha manba.
[4] Рауф Парфи. Тавба . — Toshkent: “Ёзувчи” нашриёти, 2000.

www.ziyouz.com kutubxonasi

Rauf Parfi yozgan sonetlarda nafaqat his-tuyg‘u, tabiat lirikasi balki butun bir ijod ahlining hayoti davom etadi. Sonetlardagi dardlar faqatgina ular atalgan shaxslarniki emas, Rauf Parfiniki bo‘lishga ham ulgurgan.

Turkum sonetlarni tahlil qilarkanmiz, Rauf Parfining novatorligi ko‘zga tashlanadi. U yaxlit poetik fikrlarni sonetlar turkumi mazmuniga singdirgan va tuyg‘ular aosidan o‘ziga xos syujet ham o‘sib chiqadi.

Rauf Parfi olib kirgan jahon adabiyotiga xos janrlardan yana biri rondo (rondel) shaklidir. Shoir bu janrdagi she’rlariga sarlavha o‘rniga janrning nomini yozib qo‘ygan. Bu o‘zi qanday janr? — Rondel yoki rondo — (frans. Rond — yumaloq) qadimgi fransuz she’riy shakllaridan biri. Unda she’r o‘n uch misradan iborat bo‘ladi va kesma qofiyaga asoslanadi. Rondelning band tuzilishi ham o‘ziga xosdir: birinchi va ikkinchi bandlar to‘rt misradan, uchinchi band besh misradan iborat bo‘ladi. Bundan tashqari, rondelda ayrim misralar o‘z holicha yoki biroz o‘zgarishlar bilan takrorlanib keladi.

O‘zbek she’riyatida **rondelning** go‘zal namunasini Rauf Parfi yaratgan. Rondelning band tuzilishi, ayrim misralarning takror kelishi shoirga o‘z his-tuyg‘ularini tasirchan ifodalashi uchun yordam beradi.[1] Shoirning “Turkiston ruhi” to‘plamiga quyidagi “Rondel” deb nomlangan she’r kiritilgan.

Xayrlashdik... O‘ynar kapalak...
Biz asir bo‘lmadik lahzaga,
Xayrlashdik beso‘z, beyurak,
Bu bog‘ bu gul keldi larzaga.

[1] O‘rayeva D, Quvvatova D. Jahon adabiyoti atamalarining izohli lug‘ati. —Toshkent: “Turon zamin ziyo”, 2015. — B.126.

www.ziyouz.com kutubxonasi

She’r sof ishqiy lirika bo‘lib, hijron azobida sevgisidan ayrilgan oshiqning tuyg‘ularini ifoda etadi. She’rda “kapalak” obrazi muhabbat ramzi sifatida talqin qilinadi. Ko‘pincha o‘zbek adabiyotida “kapalak” shu ma’noda qo‘llangan. Kapalakning bir kun ichida yashab umr ko‘rishini hisobga olgan holda yuqoridagi she’rda qisqa bo‘lgan muhabbat tasvirini anglaymiz. Shoir she’rga aynan shunda poetik mazmun yuklagan bu obrazni o‘n uch qatorda to‘rt marotaba qo‘llaydi. Qisqa umr davomida kapalak ilojsiz. U o‘z umrini uzaytira olmaydi. Lirik qahramon ham muhabbatini saqlab qololmagan va “biz asir bo‘lmadik lahzaga” deb aytayapti. Shoir bu yerda mutanosib so‘zlardan foydalanib, bir-biriga yaqin bo‘lgan obrazlar kombinatsiyasini hosil qilgan. “Bog‘” ishq maydoni, “gul” esa abadiy yetim qolgan muhabbatdir. Beyurak xayrlashish esa muhabbatga quloq solmay ayrilish. Aslida ikki yor ham bir-birini haligacha yaxshi ko‘radi. Keyingi satrlarda ham buning isbotini ko‘ramiz.

Shabnamning sof qadahi sindi,
Kulimizni sovurdi falak —
Sen mendan ayrilding, men sendan.
O‘yin tushar rangin kapalak.

Suv, tomchi, bulut, shudring-shabnam, yomg‘ir, qor, do‘l, favvora, quduq, buloq, soy, daryo, ariq, dengiz kabilar suv atributlari sanaladi. Ko‘rinadiki, suv evrilishlarga, joyiga ko‘ra har xillik kasb etadi. Xuddi shu tafovutlar ularning obrazga aylanishida asos vazifasini o‘taydi. “Shabnamning sof qadahi” ko‘ngilga to‘lgan sof muhabbat ramzidir. Qadah, jom, kosa, mumtoz adabiyotdan ma’lumki, ishqqa to‘lgan yurak ramzi sifatida talqin qilinadi. “Shabnamning sof qa-

www.ziyouz.com kutubxonasi

dahi” sinishi koʻngildagi ishqning toʻkilib ketishidir. “Oʻyin tushar rangin kapalak” misralaridagi kapalakka “rangin” sifatlashining berilishi bejiz emas. Oshiq-mashuqalarning ishqi rangin boʻlgan. Quyidagi bandda “bir lahzaning qadahi qoldi” misralari orqali muhabbatdan koʻngilda uning yuqlari — xotiralari qolganini anglatmoqda. She’rdagi takrorlar “kapalak”ni bosh obraz darajasiga koʻtargan. Asli she’rning yozilishiga sabab ham umri qisqa boʻlgan muhabbatdir. “Xayrlashdik. Besoʻz. Beyurak” misralari she’r oxirida yana takror kelmoqda. Demak, qadah ishqdan boʻshab sinib boʻlgan ekan yurakdan ham nishon qolmadi. Endi vidolashishlar “beyurak” boʻladi.

Oʻynar, oʻynar rangin kapalak.
Bir lahzaning qadahi qoldi.
Xayrlashdik. Besoʻz. Beyurak,
Buyuk sevgi armoni qoldi...
Qanday goʻzal, rangin kapalak...

“Buyuk sevgi armoni” ifodasi she’r tuguniga yechim topib berganday. Hammasi tugadi. Ammo “qanday goʻzal rangin kapalak” misralaridagi ta’riflar oshiqning oʻtkinchi muhabbatidan hamon sarmast ekanini, u uchun sevgisi yiroqlashgan boʻlsa-da baribir, goʻzalligini isbot qilib turibdi. “Bir lahzaning qadahi” ham oshiq ichmagan, ichishdan voz kechib, yoʻqotib qoʻyishdan qoʻrqayotgan soʻnggi bir lahzalik ishq xotiralaridir. Koʻrinib turibdiki, Rauf Parfi oshiq ahvolini oʻta kuchli hissiyot dialektikasi orqali ochib bergan. She’r shakli va takrorlar esa bularni yanada kuchaytirishga xizmat qilmoqda.

www.ziyouz.com kutubxonasi

RONDO

Bu xafa kecha kechar,
Quvgay uni oftob
Bu kecha pardek uchar
Qo‘ynida majhul sarob.

Bu xafa kecha kechar,
Kechar ko‘ngildan alam.
Ul o‘zi zahar ichar —
Alamsiz qolgay olam.

Bu xafa kecha kechar,
Kechar g‘aflat uyqudan...
Uyqu bilmagan kecha,
Porlar yana tuyg‘udan.
Bu chovuq kecha kechar[1].

Shoirning rondolarida, asosan, hijron motivi yetakchilik qiladi. Yuqoridagi “Qaytish” to‘plamiga kiritilgan rondoda ham buning guvohi bo‘lamiz. Shoir bu rondoda alleteratsiyalardan unumli foydalangan. Ushbu she’r Rauf Parfining “Ko‘zlar” to‘plamiga ham kirgan. Unda “bu” so‘zi “bul” tarzida qo‘llangan. Rondo 1961-yilda yozilgan. Muhabbatsiz kecha qo‘ynida noma’lum sarobni olib parday uchadi. Oshiqning xayollari ham shu tahlidda. Muhabbatsiz kechada oshiq xafa. Ishqning ayrilig‘i unga zaharday go‘yo. Kecha — oshiq muhabbatdan kechgan-u endi uyqusiz to‘lg‘onadi. Bu kecha uning ko‘ziga uyqu kelmaydi. Uyqu bilmagan kecha esa oshiq xayoliga o‘tgan tuyg‘ularini qayta soladi. Rondolarda shoir azobli oshiq holatini aks ettirgan.

[1] Рауф Парфи. Қайтиш. — Toshkent: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981. Б.4.

www.ziyouz.com kutubxonasi

Rauf Parfining **“Tuyg‘ular” deb nomlangan xokkulari** jamlanmasi “Qaytish”, “Ko‘zlar”, “Turkiston ruhi”, “Sakina” kabi to‘plamlariga kiritilgan. **Xokku** yapon she’riyatida paydo bo‘lgan janrdir. “Jahon adabiyoti terminlarining izohli lug‘ati”da janr haqida shunday ma’lumot keltiriladi: “Xokku XVI-XVIII asrlarda shahar madaniyatining o‘ta darajada rivojlanishi oqibatida yuzaga kelgan. Uning qadimgi maktabi kufu bo‘lib, bu maktab tankaning hajmini biroz qisqartirish, mavzu doirasini kengaytirish, mazmunan soddalashtirish hisobiga xokku yaratdi. Shuning uchun ham kufu yaratgan xokkuning an’anaviy vazni quyidagichadir: birinchi misra —5, ikkinchi misra —7, uchinchisi —5 hijodan iborat”. Bu janrda hissiyot va o‘y-xayollarni bitta to‘liq jumla orqali berish mumkin. Qofiya talabi yo‘qligi esa shoirga yanada qulaylik tug‘diradi. Quyidagi yapon shoiri Kabayashi Issaning xokkusida ham o‘ta chuqur ma’no aks etgan:

Umrim bo‘yi Buddaga sig‘inaman,
Lekin hamisha
Chivinlarni o‘ldiraman[1].

Misralardan insonning o‘z e’tiqodiga qarshi borishi, xohlamagan ishni qilishga majbur bo‘lishi, ishi va dili bir bo‘lmagan insonlar tasviri yoxud yana boshqa ma’nolarni topishimiz mumkin. Rauf Parfi yapon ijodkorlari asarlarini tarjima qilgan. U xokkuning ilk tarjimoni. “Xokkular” nomi ostida chop etilgan ilk uchliklari 1963-yilda yozilgan edi. 1961-yilda tarjima qilingan oltmishta xokku esa shoirning yapon she’riyati bilan juda erta qiziqqanini ko‘rsatadi.

[1] Bahor bulbullarining chah-chahi. (Yosh tarjimonlar bayozi) —Toshkent: Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2016. — B. 32.

www.ziyouz.com kutubxonasi

Rauf Parfi — milliy adabiyotimizdagi mana shunday she'riyat bilan birinchilardan oshno bo'lgan va boshqalarni ham oshno etgan shoir. Uning: "Xokku yozish katta mazmunni oz so'z bilan ifoda etish san'atidir", deyishi ham xokku qonuniyatini yaxshigina o'zlashtirganidan dalolat beradi. Tarjimon xokkular tarjimasida ham "oz so'z bilan katta mazmunni" san'atkorona ifoda etishga harakat qilgan. Quyidagi Esa Syoxakudan qilingan birgina uchlikka e'tibor bering:

Yulduzlar ko'kda:
Oh, na-da katta!
Oh, na-da yuksak!

Har uchala misraning bir vaznda (3+2) kelishi(1); ikkinchi va uchinchi misralardagi bir xil intonatsiya(2); so'ngi bo'g'inida urg'u olgan "Oh, na-da" so'zlarining vertikal takrori(3); misralar so'ngidagi "ko'kda", "katta", "yuksak" so'zlarining birinchi bo'g'inlari bir xil vaznda (undosh+unli+undosh) kelishi (4); "ko'k" va "yuk-" bo'g'inlaridagi hamda "na-da" va "katta" so'zlaridagi o'zaro ohangdoshlik(5); yana aynan o'sha so'zlarning ikkinchi bo'g'in ikkinchi tovushi sifatida bitta unli — "a"ning takrorlanishi(6); aynan shu "a"ning matndagi "na-da" va "katta" so'zlarida ikki martadan kelishi(7) xokku ohangiga boshqacha joziba baxsh etgan.

Rauf Parfi shundan keyin xokkular tarjimasiga boshqa qo'l urmasa-da, boshqalarni bu ishga qiziqtirish va da'vat qilishdan charchamadi[1]**.** Shoira Farida Afro'zning quyidagi xotirasi shunday fikrga kelishimizga asos bo'ladi: "Bir kuni Rauf aka uchliklardan iborat bo'lgan yapon xaykularining ruscha tarjimasini qo'limga tutqazdi-

[1] Olim Oltinbek. Xokkuning ilk tarjimoni // Sharq yulduzi, 2016, № 9. www.kh-davron.uz.

www.ziyouz.com kutubxonasi

lar va siz shuni tarjima qiling, dedilar. Men kitobni u yoq-bu yoqlariga koʻz yugurtirib chiqdim. Menga yoqmadi, juda joʻn va tayinsizdek tuyuldi. Birozdan keyin Rauf aka "Xoʻsh", deb kirib keldilar xonamizga. "Yoqmadi, shu ham she'riyatmi?!" dedim. "Yoʻq, aslo shoshmang, ichiga kiring", dedilar. Biroz ranjigandek boʻlib, tezgina chiqib ketdilar.

Men bu uchliklarni qayta-qayta, qayta-qayta oʻqiy boshladim. Rauf aka aytganidek, ichiga kirdim va oʻsha yerda yashay boshladim. Oʻz-oʻzidan tarjimalar quyulib keldi. Yetmish uchta uchlikni tarjima qildim"[1].

Rauf Parfi Isikava Takuboku she'rlaridan uslub oʻzlashtirgan. Bu she'rlar shoirning xokku janridagi she'rlarining dunyoga kelishi uchun maktab vazifasini oʻtagan. Rauf Parfi keyinchalik bu janrni oʻz uslubiga moslashtirib "uchliklar" deb atagan. Uning "Chagʻalay" nomli uchliklar turkumini oʻqisak, u xokkuning ham oʻzgacha shakldagi namunalari ekanining guvohi boʻlamiz:

1. Chagʻalayim, mehmon chagʻalay,
Bu yurtga qaydan kelding,
Nechun kelding, qurbon chagʻalay?

2. Sen oʻylagan omad yoʻq,
Sen soʻylagan qomat yoʻq,
Sen boʻylagan bir mard yoʻq.

3. Chagʻalayim, seni suyganlar yolgʻon,
Seni deb kuyganlar yolgʻon,
Senga toʻyganlar yolgʻon... (6 qismdan iborat)

[1] Farida Afroʻz . Qon akam — Rauf Parfi. // maqola qoʻlyozmasidan olingan.

www.ziyouz.com kutubxonasi

“Chag‘alay” she’rida Vatan mavzusi kuylangan bo‘lsa, “Shamolga osilib yashadim” turkumida ijodkorning dunyo ishlaridan norozilik tuyg‘ulari, nafs bilan kurashuvi, ishq bilan yuzlashuvi o‘z ifodasini topadi:

1.Shamolga osilib yashadim,
Mingga kirdim, chiridi jismim,
So‘ngaklarim oqardi qaqshab.
2. Dunyosiga qo‘ydim qo‘limni,
Oyog‘imni bosdim yuziga,
Ko‘zlarini yumdi bu dunyo.
3. Bir piyola may ber, azizim,
Bag‘rim yonib bitdi, kul bo‘ldim.
Chivg‘inlarga sotdim o‘zimni.
4. Qorlarga ko‘mildi bog‘larim,
Tog‘larimga cho‘kdi osmon.
Sen yo‘qsan. Sen yo‘qsan? Sen yo‘qsan!
5. Balki men Majnunman,
Balki siz, Laylo,
Balki men mahkumman, balki siz jallod.

[“Turkiston ruhi”, 240-b]

Mana bu turkumni “Parfiyona” desak bo‘ladi. Modern shakl, mumtoz an’ana, tasavvufiy mazmun yuklangan bu uchliklar Rauf Parfi mahoratidan darak beradi. Ikkinchi qismdagi uchlikni o‘qigan o‘quvchining xayoliga birinchi navbatda Mashrabning quyidagi g‘azali esiga keladi:

Dunyo yasanib, jilva qilib oldimga keldi,
“Borg‘il nariga!” — deb ketiga shattalab o‘ttum.

Bildimki, oni dushmani makkorayi ayyor,
“Lo” — tirnog‘i birla yuzini tirmalab o‘ttum.

www.ziyouz.com kutubxonasi

Xomush pichog‘in har dam oning bog‘ziga qo‘ydim,
Cho‘g‘ nayzasi birla ko‘zini nayzalab o‘ttum[1].

“Shamolga osilib yashash” bir umr erkinlikka intilish, o‘z fikrlariga erk tuyg‘ularini yuklash, ozodlikni talab qilishdir. Shoir ruhiyati hech qanday tutqunliklarga bo‘ysunmas. She’rda tasavvufiy obrazlarni: dunyo, mayni uchratamiz. “Balki men Majnunman, Balki siz, Laylo” deganda ham shoirning Ollohga intilishini tushunish qiyin emas. “Sen yo‘qsan. Sen yo‘qsan? Sen yo‘qsan!” misralarida shoirning haqiqatni topolmayotganini sezish mumkin. Xuddi shu misradagi mazmun singdirilgan xokkusi “Tuyg‘ular” turkumidan joy olgan.

Seni topgunga qadar,
Qanday yashadim men?
Nahotki yashadim?

Bu xokkuda intiqib kutilgan mustaqillikning sevinchlarini tuyamiz.

Kuygan daraxt bo‘yniga osilar,
Oq bulut oppoq bulut,
Yig‘lagali ketar keyin.[2]

Yuqoridagi uchlikda teran ma’no yashiringan. “Tarixan hosildorlik kultlariga ishonch va uning suv, olov, o‘simliklar kabi obyektlari xotin-qizlar qalb dunyosini ifodalashga qo‘l kelgan. Xalq lirikasida O‘zbekiston hududida mavjud mevali daraxtlarning deyarli barchasi tilga olinadi, ammo olma, tut, jiyda, o‘rik, anor, bodom, olcha kabi sermeva va serurug‘ da-

[1] Yo‘ldoshev Qozoqboy va boshqalar. Adabiyot (9-sinf, darslik). — Toshkent: O‘qituvchi, 2014. — B. 104.

[2] Рауф Парфи. Кузлар. — Toshkent: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1978. — B. 90.

www.ziyouz.com kutubxonasi

raxtlar juda faol qo‘llanadiki, genezesiga ko‘ra bu xususiyatlar ham hosildorlik va serfarzandlik g‘oyasi bilan bog‘liqdir”[1]. Rauf Parfi ijodida daraxt obrazi turli ramziy ma’no tashiydi. Xalq og‘zaki ijodida mevali daraxt — to‘kin-sochinlik, kelajakdan umudvorlik ma’nolarida bo‘lsa, Rauf Parfi yuqoridagi xokkusida uning oldigan “kuygan” sifatlashini qo‘yib noumidlik, ishonchsizlik ma’nolarini ifoda etyapti, chunki olovlarda kuygan daraxt meva bermaydi. “Bulut” obrazi oq rangda tasvirlanyapti. Bu tinchlik, erk ramzidir. She’rda Sovet tuzumi davriga ishora qilinib, erkning erksizligini tasvirlayapti. Rauf Parfi quyidagi xokkusida “Yaxshilik qil suvga sol, baliq bilmasa, Xoliq bilar” maqolini ajoyib tarzda she’rga singdirgan:

Men hammasini chindan aytdim, eh, sizlarim,
Siz nafasni mendan qizg‘ondingiz-a?!
Qolganini... baliqlar... aytsin...

Nafas — erk ma’nosini ifodalayapti. She’rdagi ko‘p nuqtali tinish belgisi shoir dardlarining bog‘ziga tiqilib qolib, nafasi yetishmayotganining shakliy ifodasiday go‘yo.

Rauf Parfi ijodining janriy yangiliklari ko‘p. Bu yangiliklarning o‘ziga xos tomoni esa o‘zbek milliy she’riyatining asosiy tamoyillariga bo‘ysundirilib yangi uslubning yaratilganidadir. Masalan, mumtoz janrlarimizdan biri bo‘lgan muvashshah janrida ham ijod qilgan, ammo bu shakldagi she’rlarida hech qayerda janr nomini eslatib o‘tmagan. Ortiqboy Abdullayev “Yaxshi niyat qiling, shoirlar” maqolasida “Abduruf Fitrat” sonetida Fitrat ismi, “She’riyat”da ayoli Dilorom ismi, “Barno Bonu”da Barnobonu, “Sensiz”-da Sevara Vafo, “Yo‘lovchi”da ayoli Sulhida, “Munajjim”da

[1] Musaqulov. A. O‘zbek xalq lirikasi. — Toshkent: Fan, 2010. — B.22.

www.ziyouz.com kutubxonasi

Mo‘tabar ismlariga muvashshah qilinganini takidlaydi.

Dil-u jon o‘rtanar, dil orom izlar,
Ilhomning pichog‘i sanchilar butkul.
Lovullab yonmoqda oylar, yulduzlar,
Orzumning quyoshi bo‘lmoqdadur kul.
Rom etmas hech narsa. Sahrodir ko‘ngil.
Osmonlarga faqat afsona so‘zlar.
Malomat toshida ochilgan bir gul,
Dam o‘tmas kular ul, dam o‘tmas bo‘zlar.

“She’riyat”dan olingan ushbu parchadagi ism she’rning qolgan qismida ham yana bir marta takrorlanadi. Rauf Parfi muvashshahlarining shakli sonet janrida yozilgan. shuning uchun ham adabiyotshunoslar bu turdagi she’rlarini muvashshah sonetlari deb atashadi. Zamonaviy she’r shakli va mumtoz shaklni birlashtirish bu, albatta, ijodkor novatorligidir. Teran ma’no anglatuvchi she’rlar bag‘riga ham og‘ir g‘amni, ham muhabbat izhorini joylash har qanday ijodkorning ham qo‘lidan kelavermaydi. “Yo‘lovchi” she’rida Sulhida ismini ko‘rishimiz mumkin:

YO‘LOVCHI

Xayolimdan oltin qafas to‘qidim.
(Abdulhamid Cho‘lpon)

1. **S**o‘zning gulxanida ruhim isindi,
Ul yulduz, oylarning so‘zin o‘qirdim.
Lablarim yorildi, tishlarim sindi,
Xayolimdan oltin qafas to‘qirdim.
Iymon qayda? Bilmas qattol juvonmarg.
Dam ko‘kka boqadir, dam yerga boqar.
Alamzor qo‘ynida ezilgan bir barg,

www.ziyouz.com kutubxonasi

So‘nggi unut so‘zin daryosi oqar.
Undan-da so‘rayman, She’riyat nadir?!
Lazzatga g‘arq botib Kunga qarayman.
Hech tuzalmas yara, u So‘zdir axir.
Ilindim, endi men nega yarayman,
Davrlar qa’rida ingraydir bashar,
Aytadir: —Shoir yo‘q, she’riyat yashar!

Bu she’r uchta sonetdan iborat sonetlar turkumi shaklida yozilgan va har bir sonetda Sulhida ismi takrorlanadi. She’r she’riyat, ilhom, so‘zning qudrati haqida. Ilhomning tig‘ida shoirning qanchalar qiynalishi, o‘zini ezilgan bir bargga qiyoslashidan ham ma’lum. Rauf Parfi hayotida so‘nggi ayollari Sulhida Parfiyeva katta o‘ringa ega. U shoir umrining so‘nggida ham barcha qiyinchiliklarga bardosh berib, shoir xarakteriga ko‘nib yashagan birdan bir ayol bo‘la olgan edi. O‘zturk uchun So‘z qanchalar yuksak maqomga ega bo‘lsa, qanchalar qadrli bo‘lsa, ayoli ham shuncha yuksakda edi. Ularning bir-biriga bo‘lgan muhabbatlarini Sulhida Parfiyeva yozgan “Kunlarim” deb nomlangan kichik kundalik asardan bilib olishimiz ham mumkin. Rauf Parfining hatto shunday kunlari bo‘ladiki, yeyishga non topish uchun kitoblarini sotishga majbur bo‘lgan. Sulhida Parfiyeva shoir qalbini, unga nima kerakligini, uning ozod ruh ekanini yaxshi anglagan va uni shu holicha sevgan.

“Abdurauf Fitrat” muvashshah sonetida yurt uchun qayg‘urgan Fitrat faryodi bong uradi:

Ajab mudhish qora tun kafan tutar,
Bir zamon tinmaydir izg‘irar shamol.
Daryo ko‘piradir, odamni yutar,
Ul — go‘zaldir, ul — irganchdir, ul — xayol.

www.ziyouz.com kutubxonasi

Riyozat qamchisi kabi savaydir,
Alkan yomg‘ir buzg‘un tanizorimni.
Ulug‘ Turkistonni kimlar sevmaydir?!
Fir’avnlar sevmas mening borimni.
Firoqning nag‘masin chalar nay siniq...
Isrofning ichindan silqir bu navo,
Taralar, huv, cho‘kkan tog‘lardan tiniq:
Riyolar, rishvatlar... Zaharli havo.
Azon tovushini tinglayman og‘ir.
Turkiston. Qora tun. Shamol va yomg‘ir[1].

Bu she’r, albatta, qora tun, shamol va yomg‘irlar iskanjasida qolgan Vatan taqdiri uchun qayg‘urgan buyuk vatandoshga qo‘yilgan haykal vazifasini bajara oladi. Muvashshah deganda mumtoz adabiyot namunalarida ham ko‘pincha muhabbat mavzusi aks ettirilgan va ma’shuqaning ismi kelib chiqadigan she’rlar tushuniladi, ammo Rauf Parfi muvashshahlarga ham ijtimoiy mavzuni olib kirgan ijodkordir.

O‘zbek xalq og‘zaki ijodida turli janrlar xalq hayotini, turmush tarzini, urf-odatlarini o‘zida aks etib kelgan. Shu sababdan ham folklor tur va janrlarga ajratilar ekan, marosim qo‘shiqlari alohida muhim bo‘lak sifatida o‘rganiladi. O‘zbek xalq og‘zaki ijodida aza marosimi bilan bog‘liq aytimlar, ya’ni marsiya janri azaldan mavjud bo‘lgan va yig‘i, yo‘qlovlar ham shular jumlasidandir. Bu turdagi qo‘shiqlar o‘lim yuz bergan vaqtdagina ijro etilib, marhumni yod etish, uning ortida qolgan insonlarning o‘sha damdagi histuyg‘ularini ifoda qilish uchun qo‘llanilgan.

Marsiya janri boshqa xalqlar folklorida ham keng tarqalgan va ayniqsa turkiy xalqlar og‘zaki ijodida bir-biri-

[1] Rauf Parfi. Sakina.— T.: Muharrir, 2013. — B.252.

www.ziyouz.com kutubxonasi

ga o‘xshashlik kasb etadi. O‘zbek folklorida “yig‘i” atamasi bilan qo‘llangan marsiyalar qadimgi turk folklorida “ağıt” so‘zi bilan bir xil ma’no kasb etadi. Bular o‘rtasida mazmuniy jihatdan farq unchalik ham mavjud emas va shu mazmun bilan ko‘pchilik xalqlarda marsiya janri yozma adabiyot namunaga ham kirib kelgan. Motam qo‘shig‘i uchun sabab bo‘luvchi shaxs yoki narsa, hodisalar turlicha bo‘lgan. Marsiya faqatgina inson vafoti bilan bog‘liq bo‘lgan holatdagina kuylanadigan yig‘i qo‘shig‘i bo‘lmagan. Masalan, arab adabiyotida bu kabi bosh obraz darajasiga hayvonlar ham ko‘tarilgan. Bu na’munalarda yo‘qotish motivi birinchi o‘rinda turadi. Bu janrning asosiy xususiyati, aslan ham.

“Arap edebiyatında hayvanlara yazılmış birçok mersiye örneği vardır. Şairler, bazen bir keçi, bazen bir köpek bazen de bir kuş veya bir kedi için mersiye şiiri nazmetmişlerdir. Bu türü konu alan mersiye şiirlerinde de önceki türlerde olduğu gibi ağlama, övgü ve sabır bölümlerinin bazıları uzun bazıları kısa olarak ele alınmıştır. Bu mersiye şiirlerinden bazıları, şairin siyasi otoriteden kedini emin kılmak için sığındığı bir liman vazifesi görürken bazıları gerçekten sevdiği bir hayvanı kaybeden şairin duygularına tercüman olmuştur” [1].

Bu marsiyalarning ramziy obrazlar vositasida shoir maqsadini ifoda etuvchi va siyosiy qarashlarini himoyalovchi niqob sifatida bayon etadiganlari ham bor. Arab klassik adabiyotida xalifalik davri shoiri Ibn Allof qo‘shnisining kabutar polaponlarini yeb qo‘ygani uchun o‘ldirilgan mushugiga marsiya yozarkan, buning ostida aslida boshqa ma’no yashi-

[1] Mahmut ÜSTÜN. Klasik Arap Şiirinde Mersiye. Kafkas Üniversitesi İlâhiyat Fakültesi Dergisi. www.dergipark.org.tr. S.20.

www.ziyouz.com kutubxonasi

radi. Rivoyatga koʻra xalifa Muqtadirning vaziri Ali Isoning joriyasi Ibn Allofning qullaridan biri bilan oshiq-mashuq boʻlgan. Bundan xabar topgan vazir ikkala qulni ham oʻldirib terisiga somon tiqtiradi. Bundan Ibn Allof qattiq gʻam chekadi va mushugi haqidagi marsiyani yozgan.

Oʻzbek yozma adabiyotiga marsiya janri folklordan oʻrnak olgan holda an'anaviy bir janr sifatida saqlanib qolgan. Zamonaviy oʻzbek adabiyotida ham bu janrning eng goʻzal, eng huzun, eng gʻamgin namunalarini uchratishimiz mumkin. Shoirlar ijodidagi turli qahramonlarga atalgan marsiyalar qadimgi shakldagi kabi toʻrtlikdan iborat she'r shakllarida koʻp uchraydi. Marsiyalarning maxsus shakli mavjud boʻlmagani sababli har qanday janrdan shaklni oʻzlashtirib olaveradi. Xoh u gʻazal shaklida, xoh musammatlar, xoh erkin she'r tuzilishi shaklida boʻlsin, bu ijodkorning xohishi bilan bogʻliq hodisa.

Zamonaviy oʻzbek adabiyotida vafot etgan insonlarga: shoirlarga, doʻstlarga, oila a'zolariga, janglarda halok boʻlgan shahidlarga atalgan marsiyalar keng tarqalgan. Arab klassik adabiyotidagi kabi Paygʻambarlar vafoti, shaharlar buzilishiga yoki hayvonlarga atalgan turli mavzudagi marsiyalar deyarli uchramaydi. XX asr adabiyotining yetuk namoyondalaridan biri va aynan shu asr adabiyotining shakl va mazmun jihatidan yangilanishiga oʻzining beqiyos hissasini qoʻshgan shoirimiz Rauf Parfi (Oʻzturk) ijodida "Marsiya tajribalari" nomi ostida yozilgan marsiyalar turkumini koʻrishimiz mumkin. Turkumga uchta marsiya biriktirilgan: "Mamatning quturgan iti uchun marsiya", "Xudbinga marsiya", "Oʻtkirning quyoni uchun marsiya". Rauf Parfi Sharq adabiyotining ham oʻtkir bilimdoni edi. Gʻarb adabi-

www.ziyouz.com kutubxonasi

yotidan ham juda koʻplab yangi janrlarni oʻzbek adabiyotiga olib kirdi. Shoirning biz sanab oʻtgan marsiya tajribalariga oid namunalarni kuzatarkansiz uning arab klassik adabiyotidan xabardor boʻlganini taxmin qilasiz. Shoir ham she'r nomiga qoʻyilgan nomlarga "birinchi tajriba", "ikkinchi tajriba, "uchinchi tajriba" kabi izohlarni keltirib oʻtgan. Arab adabiyotidagi ramziy ma'no yuklangan hayvonlarga atalgan marsiyalar mazmunini Rauf Parfining ushbu turkumdagi it va quyonga atalgan she'rlarida kuzatamiz. Shoir ijtimoiy muhit tasvirini, ba'zi ikkiyuzlamachi, munofiq, nafsga berilgan insonlar tasvirini keltirish uchun ham xuddi shu usuldan foydalangan. Aslida bu yerda hech qanday it yoki quyonga yigʻi aytilmagan. Shoirga bu ramziy qolip fikrlarini erkin tasvirlash va ba'zi achchiq haqiqatlarni niqoblangan holatda yetkazish imkonini bergan. Marsiyalar 1995-yilda yozilgan.

Nishoni yoʻq oddiy, sassiq it edi
Shaltogʻini bir kuni yamlab yedi.
Shaharlik bir itni u yoʻldan urdi
Oqdi koʻzi, qoʻli sindi, quturdi.

"Mamatning quturgan itiga marsiya" she'rining brinchi bandidagi it tasviriga e'tibor bering. Qoʻnimsiz, keraksiz boʻlib qolgan bir it. It qishloqda yashagan va shaharga borganday goʻyo. Oʻziga oʻxshagan bir itni yoʻldan ozdirdi. Ammo shahar itlarida, aslida, qoʻnim boʻlmaydi va ular duch kelgan narsani yeb, duch kelgan joyda yotib ketaveradi. Mamatning iti ham bu kabi iflos ishlardan birini (ikkinchi qatordagi "shaltogʻini yemoq" haqida. Shaltoq — hayvonlarning axlati) qishloqda boshlagan va uning ustiga

www.ziyouz.com kutubxonasi

oʻzi “yoʻldan urgan” deyilgan itdan kasallik ham yuqtirgan. Bu yerda ishbilarmonlik qilaman deb oʻzidan ketib shaharliklarga ergashuvchi noqis kimsalar timsoli aks etgan.

Ikkinchi bandda “itdoshlar” soʻzi orqali jamiyatda bunday kimsalarning koʻpligi va hatto ular oʻziga oʻxshaganlarga-da rahm qilmasligi, yiqilganni tepib oʻtuvchi, oʻz manfaatlaridan qaytmaydiganlar ramzini koʻrishimiz mumkin:

Nola qildi. Tepib oʻtdi itdoshlar,
Achchiq suvin sepib oʻtdi itdoshlar.

Uchinchi bandda quturgan it obrazining bungacha boʻlgan hayoti tasvirlanadi. Itxonasi, bogʻi borligi, oʻynashi ot, pochchasi eshak deya berilgan ot va eshak obrazlari yaltoqlanayotgan itlardan katta lavozimlardagi “poshshozodalar” edi.

Toʻrtinchi bandda shoir itning bunday ayanchli ahvoliga nima sabab boʻlganini aytadi:

Xuruj qildi ityurakning sanchigʻi —
Vafo qilmas hech birovning qursogʻi...
Oxiri shul. Quturgan it otildi.

Nafs insonni har koʻyga soladi. Vatanni yeb yotganlarning holi it obrazi bilan yonma-yon ot, eshak timsollarida ham gavdalanadi. Rauf Parfi “qora devor” she’rida ham shunday degan edi:

Qora devor qa’ri sotqinlar yurti,
Tilsiz vatansizlar vatani qoldi[1].

Soʻnggi bandda itning oʻlimidan keyin u hurmat qiladigan “itdoshlar” tutgan aza tasvirida ham achchiq haqiqat bor:

[1] Rauf Parfi. Turkiston ruhi. — Toshkent: “Sharq”, 2013. — B.263.

www.ziyouz.com kutubxonasi

Bo‘g‘i-rog‘i, ityalog‘i sotildi,
Kafan qilmay tepib-tepib ko‘mdilar,
So‘ng bor uvlab itkin g‘amga cho‘mdilar.

Itdoshlar uning izidan qolgan davlatidan ham foydalandi. Tepib-tepib ko‘mdilar-u yana soxta motam ham tutdilar. Bunday shaxslar timsolini yaratishda Rauf Parfining o‘tkir kinoyasi, so‘z yaratish, qo‘llash mahoratiga tan bermay bo‘lmaydi. Itdoshlar, ityurak, ityaloq, ayniqsa, itkin so‘zlari she’rda mazmunni kuchaytirib bermoqda. Ityurak so‘zini va o‘lgan it obrazi ta’rifini o‘qirkansiz, bexosdan esingizga Mixail Bulgakovning “Ityurak” asari bosh qahramoni Sharikovning munofiqliklari, badbinliklari tushadi. Bu “ityuraklar” XX asr jamiyatining qora yuzi edi.

Rauf Parfining ikkinchi marsiyada tajriba she’rida yoshlar hayotining bir bo‘lagi quyonlar obrazi timsolida gavdalanadi. Hoy-u havaslarga berilib “ilojsiz” qolgan oshiqlarga ota-onasi to‘y qilib beradi. Ammo bu oilaning boshi muhabbat emas, nafs edi. Quyonxonga beparvo kuyov o‘n bir kundan so‘ng kelindan ayrilib qolsa-da, hech motam tutayotganga o‘xshamasdi:

O‘ninchi tun kelinning tutib qoldi to‘lg‘og‘i
Ko‘zlari mo‘ltirardi, shalpanglardi qulog‘i.
O‘n birinchi tunida quyonxon so‘lib qoldi,
Quyonto‘ra ishqida tong mahal o‘lib qoldi.
Quyonto‘ra zor yig‘lab zo‘r bir motam tutardi,
Insofingiz bormi deb boshqasini kutardi[1].

O‘lib qolgan quyonxonga: “Meni yolg‘iz tashlab ketdingizmi, insofingiz bormi?” degan so‘roq bergan quyon-

[1] Rauf Parfi. Sakina. —T.: “Muharrir”, 2013. —B. 258.

www.ziyouz.com kutubxonasi

to‘raning o‘zlari insofni bir chetga surib allaqachon boshqasini xayol surmoqda edi.

Ikkala marsiyada ikki xil nafs ramziy obrazlar orqali ochiqlangan. Rauf Parfi she’riyatiga ham shaxsiyatiga ham har ikki nafs dushman edi. Jamiyatni barbod qilayotgan bu “hangoma”lar shoirning sochlarini oqartirdi. Shoir ijodida it obrazi orqali chizilgan timsollar uning “Itlar” she’rida ham gavdalangan. XX asr ikkinchi yarmi va XXI asr boshi o‘zbek adabiyotiga modernistik uslubning mohir shoiri Rauf Parfini bergan edi. Shoir Ona Turkistonini yuqorida tasvirlangan she’rlardagi itlardan, quyonlardan, eshaklardan xoli, adolat , insof go‘shasi bo‘lishini istardi.

www.ziyouz.com kutubxonasi

II.2. Rauf Parfi she'riyatining g'oyaviy manbalari

Rauf Parfi estetikasida san'atning, so'zning ma'rifiy tarbiyaviy roli, ahamiyati masalasi alohida o'rin tutadi. Shoir o'z davri she'riyatiga tamomila yangicha fikrlarni, yangi obrazlarni, yangi talqinlarni, yangi janrlarni olib kirdi. Bunday ishni udda qilish uchun esa juda katta g'oyaviy manbaga, keng bilim doirasiga ega bo'lish kerak bo'ladi. Rauf Parfi jahon she'riyati namoyondalari ijodidan juda yaxshi xabardor bo'lgan. U g'arbning buyuk ijodkorlari asarlarini tarjima qilgan. Tarjima qilgan shoirga esa asl namunalardagi dunyoqarash, fikrlash va yo'nalish, uslub ta'sir qilmay qolmagan. Shoir Karlo Kladzening "Dengiz xayoli" (1972), Bayronning "Manfred" (1973), A.Salamatning "Oltin bolta", I. Noneshvilning "Shiddat" (1976), Aleksandr Dyumaning "Uch sarboz" (pyesa,1980), Nozim Hikmatning "Inson manzaralari" (1981), Tvardovskiyning "Zaytun novdasi" (1981), "Xotira huquqi" (1985), "Uyg'ur shoirlari" (1986), "Ozod inson qo'shig'i" , Usaroyanning "Hoy, kim bor?" asarlarini hamda B.Brext, P.Neruda, G. Emin, O.Vatsietis kabi qardosh va jahon adabiyoti namoyondalari ijodlaridan tarjima qilgan.[1] Aynan shuning uchun ham g'arb adabiyoti nasimlari shoir ijodida boshqalarnikidan ko'ra ko'proq essa kerak. Shoirning tabiati san'atning faqat adabiyot olami orqaligina emas, balki haykaltaroshlik-u rassomlikkka, musiqaga o'xshash barcha san'at turlariga oshufta edi. Shoirning Van Gogga bag'ishlangan

[1] Mirvaliyev S va Shokirova R. O'zbek adiblari. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 2016. — 46 b.

www.ziyouz.com kutubxonasi

sonetida o‘zining qismatini unikiga qiyoslaganining guvohi bo‘lamiz. Xurshid Davron, musavvir Shuhrat Abdurashidov, Rauf Parfi suhbatlashib turganida Rauf Parfi shunday degan ekan: “Verlen musavvir, Van Gog shoir, men esam kompozitor bo‘lishim kerak edi aslida”. Rauf Parfi bu ikki ijodkorga o‘zini qismatdosh deb bilgan, bu she’rlarida o‘z iztirobini aks etgan deb o‘ylayman.[1]

Rauf Parfining bir qator shoirlarga yozgan bag‘ishlov she’rlaridan ham jahon adabiyotiga xos bo‘lgan his-tuyg‘ular shaklining ichiga kirib borganining guvohi bo‘lamiz. Masalan, “Van Gog”, “Bayronning so‘nggi safari”, “Pablo Neruda o‘limiga”, “Nozimning sadosi”, kabilar. Bundan tashqari xokku janrida yozilgan “Tuyg‘ular” jamlanmasi o‘zbek she’riyatida yangi shakl va yangi ma’nolarni aks ettirgan. Rauf Parfi Nozim Hikmatning o‘limiga bag‘ishlab yozgan she’rida shunday degan:

Qoldi Nozim sadosi,
Sadoning aks sadosi.
Sadoga o‘ralashib borar tobora
Bu dunyo.
Sado kengliklari teran boqar menga
Nozim Hikmat ko‘zlari ila[2].

Nozim Hikmat she’rlaridagi asosiy ma’noga e’tibor bersak, ozodlik, erk g‘oyalari ustunlik qiladi. Nozim Hikmat ham Turkiya xalqining ruhini uyg‘otishga intilgan shoir edi. “Meni yerga ko‘mmang, meni o‘zimga ko‘ming” satrlaridan erk shoirning yuragida ekanini bildiradi. Nozim

[1] Xurshid Davron. Pol Verlen, Van Gog va Rauf Parfi.// www.kh-davron.uz.
[2] Рауф Парфи. Кўзлар. — Toshkent: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1978. — B.9.

www.ziyouz.com kutubxonasi

Hikmat ham “Qirq haromilar asiri” she’ri Turkiyaning mustamlakachilik kishanlariga tushayotganiga qarshi yozilgani uchun inglizlar va sulton saroyi tomonidan ta’qib qilingan. “Yigirmanchi asr haqida” she’rida ham “Asrim baxtsiz, asrim yuzimni qizartirar” deya zamonning erksizligiga ishora qiladi.

Rauf Parfi ustozi Abdurahmon Vodiliy timsolida yozuvchi-shoir odam favqulodda bir hodisa ekan, deb bildi. U koʻpchilik koʻra olmagan, anglamagan hayot va jamiyat hodisalarini oʻz nigohi va nuqtayi nazari bilan tushuntira bilishida, boshqalarning ham qiziqishlari, manfaatlari mujassamlashgan edi. Sharq va Gʻarb klassikasining nodir asarlari (“Biblioteka poeta” turkumidagi) ruhini vujudiga singdirish, Abdurahmon Vodiliy asarlari tahsili yosh Raufning koʻnglida mudrab yotgan shoirlikni erta uygʻotib yubordi. U oʻn toʻrt-oʻn besh yoshlarida inglizning Bayroni taxlit lirik shoir boʻlib shakllangan, betakror obrazlarga asoslangan goʻzal she’rlari (“Mart oqshomi” singari) ila oʻzligini namoyon eta boshlagan edi.

Shoir talqiniga koʻra, iymon-e’tiqod ilohiy nurning koʻngilga joylangan shu’lasi. Shu bois, uni haqni bilish va tanishdan xoli anglash mumkin emas. Bu borada ustozi Abdurahmon Vodiliyning mulohazalariga tayanadi, oʻz fikrini quvvatlantiradi: “Alloh taolo sizga bunday muazzam aql-u zakovatni kibrlanish, zulm qilish, zoʻrlik bilan mol-mulk orttirish uchun bergani yoʻq. Allohning birligini tanish, insonlarga mehr-oqibatli boʻlish, insonga fidoyi boʻlish uchun bergan. Unutmangki, bosgan har bir qadamingiz, olgan har bir nafasingiz Allohning nazaridadir”. Rauf Parfining alohida ta’kidlashiga koʻra, xudosizlik iymonsizlik demakdir.

www.ziyouz.com kutubxonasi

So‘z ruhni qayerdan oladi? Shoir so‘zi ko‘ngildan suv ichar ekan, yurakning tub-tubiga ekilgan iymon nuridan ruhlanadi, quvvatlanadi, qanotlanadi. Shu ma’noda, so‘z bilan ruhni bir-biridan ayro holda anglash mumkin emas. So‘zda ilohiylik bor. Alloh taolo bandasining tiliga o‘z so‘zini berish barobarida ilohiylikni, ruhni ko‘ngliga ekadi. Shu boisdan ham so‘zlar quruq, yalang‘och g‘oyalarni ifodalashga bo‘ysundirilgan, agitka-targ‘ibot-tashviqot quroliga aylantirilgan paytlarda ruhiyatdan mahrum bo‘ladi. Ilohiylikdan mosuvo so‘z yolg‘onga yuz tutadi. Yolg‘onning esa hamisha yuzi shuvut. Ruhsiz, ta’sirsiz, qadrsiz so‘z qanoti sinib, oyoqlar ostiga yiqilib tushadi. Tuproqqa qorishadi, toptaladi. Zero so‘z — xudodandir, degan kalima bor muqaddas kitoblarda. So‘z — ijodkor ruhiyatining ko‘zgusidir. Ijodkorning shaxslik darajasini belgilovchi, ko‘rsatuvchi ustuvor mezondir[1]. Rauf Parfining diniy jihatdan mustahkam bilimlari ota-bobolari tomonidan ham o‘tgan. Sharq she’riyatining asosiy falsafasi mohiyatini ilohiyot tashkil etadi. Rauf Parfi esa Navoiyni , Yassaviyni o‘ziga pir deb bilgan. Shoir o‘ziga ustoz deb bilgan ijdkorlar haqida No‘mon Rahimjonov maqolasida shoirning qo‘lyozmalaridagi quyidagi so‘zlarni keltiradi: “Ustozlar haqida so‘z ketganda talmovsirab, nima deyishimni bilmay qolaman, — deb yozadi Rauf Parfi. — Ko‘z oldimda ularning purviqor siymolari gavdalanadi, men sho‘rlik ularga shogirdlikka arzimasligimni aniq his qilaman. Lekin ustozlar haqida gapirmaslik mumkin emasligini ham tushunaman. Men sayyohman, yo‘lovchiman, g‘avvosman. Siz anglagan, siz zabt etgan

[1] N. Rahimjonov. Rauf Parfi adabiy-estetik qarashlari. // “Sharq yulduzi” jurnali, 2012-yil, 2-son. www.kh-davron.uz

www.ziyouz.com kutubxonasi

adabiyotga daxlim yo‘q; juda borsa adabiy sayyohman, — deyman qaltirab, qaqshab. Xayolan tiz cho‘kib, uzr so‘rayman. Bas, mening uchta pirim bor, ulardan ko‘mak madad tilanaman. Yassaviy pirim, Navoiy pirim, Thakur (Tagor) pirim. Menga qo‘l uzatgan ustozlarim bor — Abdurahmon Vodiliy, Asqad Muxtor, Shukrullo”[1]. Xuddi shunga yaqin fikrlar haqida gapirib filologiya fanlari nomzodi Olim Oltinbek Rauf Parfining R.Thakurga qanchalar yaqinligini izohlab beradi: “Ulug‘ hind shoiri: “Men she’rlarimda birorta ham yolg‘on aytganim yo‘q”, — degan bo‘lsa, o‘zbek shoiri: “Yolg‘on — iste’dodning kushandasi. Yolg‘on yozgan shoirning ruhi o‘ladi”, — degan edi. Demak, Thakur Rauf Parfiga vatanparvarlikdan tortib, to ijod tamoyillarigacha ustoz. Shoirimizning Thakur haqidagi birinchi she’ri 1973-yilda yozilgan. “Thakur va srabon yomg‘iri” deb nomlangan ushbu sonetdan keyin u yana “Thakurga iqtibos” (1993), “Thakurning oxirgi she’ri” (2003) asarlarini ham yozdi. Umrining oxirida esa “Thakuriya” turkumi ustida ishlayotgani haqida xabar beradi. Adabiyotshunos N. Rahimjonovning ma’lumot berishicha: “Iymon asiri” majmuasiga “Magar kulfat komindadir” maqolasi so‘zboshi o‘rnida berilishi mo‘ljallangan. Robindranath Thakurning:

Magar kulfat komindadir ona yurt —
Jumla jahon, kayhon bo‘lsin xabardor.

satrlarini epigraf sifatida bermoqchi bo‘lgan”[2]. Bularning barchasi Rauf Parfining “ulug‘ hindi”ga ehtiromi namunalari edi”[3].

[1] O‘sha manba.
[2] Rauf Parfi. Sakina. — T.: Muharrir, 2013. —B. 352.
[3] Olim Oltinbek. Rauf Parfining adabiy-estetik qarashlari.// www.kh-davron.uz.

www.ziyouz.com kutubxonasi

Rauf Parfi u bilan bo‘lgan suhbatlarning birida Sharq adabiyotini G‘arb adabiyoti orqali anglab yurganini ta’kidlaydi. Rus adiblaridan Pushkin, Blok kabi ko‘plab ijodkorlar asarlarini ham ruhiy yaqinlik sababligina tarjima qilgan. Shoirning rus badiiyatini o‘qish-o‘rganishga bo‘lgan tashnaligi adiblaridan haq so‘zni aytish, hayot haqiqatlarini anglab yetish hamda ularning ifoda usullari va vositalarini tushunish ishtiyoqi edi. O‘ylab ko‘rsak, Navoiy, Tagor, Neruda (Rauf Parfi Pablo Nerudaning oltita she’rini tarjima qilgan edi), Hikmat, Blok, Pushkin, Bayron va Rauf Parfini ularga xos bo‘lgan ichki tug‘yonlar, haqiqatlar, o‘z yurtiga bo‘lgan muhabbat birlashtirib qo‘yganligini anglaymiz. Rauf Parfi jadid adabiyoti vakillaridan ham ancha kuch olgan. U Cho‘lponning erkchilik g‘oyalarini rovojlantirgan. Zero ularning ham maqsadlari bir bo‘lgan. Rauf Parfi “Eng uzoq yozilgan tarjimayi holim” she’rida ham quyidagi insonlarni aytib o‘tadi:

Dars: Alisher Navoiydan to Abdulla Orif.
Aleksandr Pushkindan to Viktor Sosnora.
Keyin
Men bilgan shoirlar.
Men bilgan achchiq-chuchuk besanoq saboq.

www.ziyouz.com kutubxonasi

II.3. Rauf Parfi she'rlarining vazn xususiyatlari

Shakliy jihatdan turli koʻrinishlar hosil qilib, mohiyatga ta'sir etuvchi bugungi kun she'riyati bu jihatdan yangilanishlarga egadir. Badiiy asarda shakl bir nechta maqsadga xizmat qiladi:

– har bitta ijodkorning individual oʻziga xosligini koʻrsatish;

– badiiy asarning ta'sir etuvchi va kitobxon ongida oʻzgacha mohiyat ifodalovchi qolipini yaratish;

– badiiy asar talablaridan kelib chiqqan holda gʻoya hajmiga mos shaklni berish;

– janr talablarini janrning oʻziga xos shaklida (vaznida) namoyon etish;

Badiiy asar shakli va uning asardagi vazifasiga adabiyotshunoslar tomonidan ta'rif berilar ekan, Dilmurod Quronov ta'kidlagan quyidagi qoida shu kungacha asosiy qolip vazifasini oʻtab kelgan: "San'atkor ijodiy niyatidan kelib chiqqan holda boʻlgʻusi asarning shaklini belgilaydi, yana ham aniqrogʻi, boʻlgʻusi asarning mazmuni uning shaklini belgilaydi"[1]. Zamonaviy davr adabiyotini tahlil qilar ekanmiz, asarlarda shaklning mazmunga ta'sir etgan hollari koʻp. Ammo bu ijodkorni modernistga chiqarib qoʻymasligi kerak. Chunki har qanday fikrning ham tub ildizi boʻlgani kabi adabiyotda ham an'anaviy mohiyat saqlab qolingan holda, shoir ruhiyat shaklini ifodalash uchun she'r shaklini ham oʻzgartirishi mumkin. Rauf Parfi ijodida ham turli

[1] Quronov Dilmurod. Adabiyotshunoslikka kirish. —T.:Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004. — B.87.

www.ziyouz.com kutubxonasi

vaznlarda yaratilgan namunalarga duch kelamiz. Mazmun qirrasi oʻtkirligi, murakkab ramziy obrazlarning jonlanishi ijodkor ijodining asosiy belgisi sifatida shoirga XX asrning dastlabki modern ijodkorlaridan biri sifatida qarashadi. Agar modernizmodernizmning bir xususiyati she'riyatni oʻzgacha qoliplarda tasvirlash boʻlsa, biz Rauf Parfi ijodining shunday xususiyatlarini tahlilga tortamiz va shakliy oʻzgarishga ega har qanday she'r uslubining modernizmga aloqasini aniqlaymiz. Ifodalanayotgan mazmunga xos oʻlchovni topa bilish shoir mahoratidan darak beradi.

Rauf Parfi she'riyatida, asosan, ikkita vazn yetakchilik qiladi: barmoq va sarbast. Barmoq vaznidagi she'rlar, asosan, har bir misrada toʻrt boʻgʻindan toki oʻn olti boʻgʻingacha davom etadi. Rauf Parfida yetti boʻgʻinli misradan tashkil topgan she'rlar juda kam, bu she'rlar ham uning yoshlik davrlaridagi ilk yozilmalardir. Masalan, 1955-yilda yozilgan "Qushlar" she'rida iodkorning ilk mashqlari alomatlarini sezish mumkin. Ijodni boshlash uchun kam boʻgʻinli misralar shoirga erkinlik beradi:

Goʻzal bahorda qushlar,
Ertalabki nahorda
Muloyim oʻltirishlar,
Chaq-chaqlashib daraxtda[1].

Keyingi yillarda yaratilgan namunalarda mazmun zalvorlashib borgani sayin misralar soni toʻqqiz, oʻn va koʻproq oʻn bir boʻgʻinli va barmoqning sodda vaznida yaratilganining guvohi boʻlamiz:

Yo xatimning mungli ovozi 9
Oʻqiganda javlon etarmi? 9

[1] Рауф Парфи. Туркистон руҳи. —Тошкент: Шарқ, 2013. — В.22.

www.ziyouz.com kutubxonasi

Yoki yana savol singari 9
Avvalgicha shunday qolarmi? 9 (“Xat”)
Men seni izlayman javdirar koʻzim, 11
Yuraman tentirab qorongʻu tunlar. 11
Seni deb jonginam, sen uchun koʻzim, 11
Senga bagʻishlanib chalinar sozlar[1]. 11

Yuqoridagi she’rlarning mohiyati juda yengil. 1960-yilda yozilgan quyidagi yetti boʻgʻinli she’rda esa ijodiy oʻsishni kuzatamiz va ikkinchi misradagi sodda vaznning qoʻshma vazngа oʻtish holati barmoq she’r tizimining ritmik-intonatsion imkoniyatlarini namoyon qiladi va holati shoirga shunchaki yengil ohang berganini koʻramiz. Bu geterometrik she’r deyiladi:

Yana kecha zimiston, 7
Azob ichra ruh. 5
Bexuda yonmoq yomon, 7
Sen — shodligim, sen — anduh! 7

Kelgil, otma azaga, 7
Mayli, yomgʻir tutganda, 7
Yoki qish derazaga 7
Suvrat bitib ketganda. 7

Shoir ijodida bunday qisqarib qolgan misralarda xato bor deb aytolmaymiz, chunki bu yerda oʻquvchi hech qanday turtilmaydi, aksincha hislar ohangiga beriladi, xolos. Shoirning keyingi shakliy jihatdan biroz oʻzgargan, sindirilgan misralari erkin vaznda yoziladi:

[1] Рауф Парфи. Туркистон руҳи. — Тошкент: Шарқ, 2013. — В.25.

www.ziyouz.com kutubxonasi

Tongda erib ketdi 6
Kecha. +2
Uyqusini quvib koʻchaning 9
Avtolar shovqin solib kechar. 9
Dunyo soʻrarmidim, sendan, 8
Doʻstim, shu daqiqa. 6
Shunchaki tong nafasi yangligʻ 9
Tabassuming kerak 5
Faqat. +2

Yuqoridagi "Yangi tong" she'rida insonning bir-biriga ulashuvchi tabassumi orqali beriladigan mehrning tong kabi musaffo tuygʻuga mengzalishi insonni sokin oʻylar girdobiga tortadi.

Rauf Parfining uchlik, ya'ni xokkularida ham sindirilgan misralarni kuzatamiz. Rauf Parfi xokkularida xokkuga xos 7+5+7 koʻrinish saqlab qolinmagan, umuman olganda, bugungi kun she'riyatida ham xokkular dastlabki variantidan xuddi shunday farq qiladi, chunki u ijodkorga erkin mazmun yuklash yengilligini bergan holda, erkin vaznni ham shoir oʻzi tanlaydi:

Hasratimning 4
Suyuq toshlaridan +6
Dahma qurmoqchiman 6
Oʻzimga, +3
Ichida oʻz jasadim boʻlsin. 9
["Isaka Tokuboku xotirasiga"][1]

Oʻzbek she'riyatida XX asrning yigirmanchi yillaridan erkin she'r vaznida ham namunalar koʻramiz. Koʻpchilik

[1] Рауф Парфи. Туркистон руҳи. — Тошкент: Шарқ, 2013. — В.41.

www.ziyouz.com kutubxonasi

adabiyotshunoslar erkin vaznni barmoq vaznidan hosil bo‘lgan deb qarashadi. Ammo Nodira Afoqovaning fikriga ko‘ra, Sharqdagi aruziy she’riyatda misralarida bittasi (va uning zihoflari) turli miqdorda takrorlanishiga asoslangan she’rlarga ham erkin she’r deb qaraladi[1]. Bu holatni olima “erkin aruz” deb atagan edi. N. Afoqovaning sarbast va erkin vazn haqidagi fikrlari, ularning qaysinisi janr deyilishi kerak yoki qaysi biri vazn deb yuritilishi haqidagi xulosasi o‘zbek adabiyoti uchun haqiqatga yaqinroq, bizningcha. “Demak, o‘zbek she’riyatining erkin vaznda yozilgan namunalari, asosan, misralardagi hijolar miqdorining, qisman band va qofiyaning erkinligi bilan xarakterlanadi. Erkin vaznning bosh xususiyatini ana shu tahlit belgilab olgandan keyin bu vaznda yozilgan she’rlarni turli tomondan tasnif qilish mumkin bo‘ladi. Jumladan,

– misralarning tashkillanishiga ko‘ra: zinapoyali, uzunqisqa misrali:

– qofiyaning ishtirokiga ko‘ra: qofiyali, qofiyasiz;

– grafik shakliga ko‘ra: tizim va sochim shaklida yozilgan erkin she’rlar kabi guruhlashtirish mumkin”[2]. Umuman olganda, rus tili uchun xos bo‘lgan sillabo-tonik va tonik vazn kabilarni o‘zbek tilining asosi bo‘g‘inlar soniga va sifatiga qaratilgan vazn sistemasiga qiyoslay olmaymiz va rus adabiyotidagi “вольнуй стих”, “свободный стих” singari janr sifatida belgilangan atamalarni sarbast she’rga tenglashtirmasligimiz darkor. Erkin vazn holati o‘zbek adabiyotida aniq kuzatiladi, ayniqsa, Rauf Parfi davridan boshlab to bugungi kun she’riyatigacha ham. Ammo bu vazn-

[1] Афокова Н. Жадид шеърияти поэтикаси. — Тошкент: Фан, 2005. —Б.43-48.
[2] O‘sha manba.

www.ziyouz.com kutubxonasi

ning xususiyatlarini sanab chiqqan holda uning tarkibiga kiruvchi janrlarni belgilashda sarbastning ham boshqa o‘xshash oq she’r va mansuralar, yani sochma she’rlardan farqini aniqlasak, uni keng ma’noda vazn atamasi bilan yoki ma’lum yetishmayotgan xususiyatlari mavjud bo‘lsa, janr deb qabul qilishimiz osonroq kechadi.

Erkin vazn nomidan kelib chiqqan holda misralarda bo‘g‘inlar soni ham, qofiyasi ham, turoqlari ham har xil bo‘lgan tizimdir. Masalan, Rauf Parfining quyidagi she’rini olamiz:

BIR SO‘Z BOR	3
Beg‘ubor tong kabi go‘zal,	3+3+2= 8
Tong chog‘i ochilgan g‘uncha kabi,	3+3+4=10
G‘unchada shabnam kabi musaffo.	3+4+3=10

Shirin tuyg‘ularning	6
Shirin farzandi,	5
Osmon kabi bepoyon ko‘zlar sevinchi yanglig‘	7+7=14
Bir so‘z bor.	3

She’rning har bandida takrorlanuvchi turoqlar birinchi bandning birinchi misrasi va ikkinchi bandning oxirgisi va birinchi banddagi uch va to‘rtinchi misralari ohangni kuchaytirib bermoqda. Qofiya mavjud emas. Bo‘g‘inlar soni har xil. Har bandi to‘rt misradan iborat. Ammo she’r juda go‘zal va qidirilayotgan bir so‘z o‘qiguvchining ko‘z oldida shunchalar muhtasham va ta’rifiga til ojiz darajada yuksaltirib ko‘rsatishga erishilgan. Bu erkin vaznda yozilgan sarbast she’r janridir. O‘zbek adabiyotida erkinlik xu-

www.ziyouz.com kutubxonasi

susiyatiga ega mansur — nasriy she'rlar ham mavjud. Rauf Parfining "Javob" mansurasiga e'tibor beramiz:

Qorlar yog'di. /Qizdirdi oftob./ Nedir baxt deb so'radim,/ biroq o'zi bilan ovora/ baxtiyorlar bermadi javob./ Qorlar bosdi./ Kuydirdi oftob./ Nedir baxt deb so'radim, / biroq o'zi bilan ovora/ baxtsizlar ham bermadi javob. /

Bu mansurada takrorlanuvchi ritmik bo'laklar hisobiga ma'no kuchaytiriladi. Mansur she'rlarda ham turoqlar mavjud bo'ladi, ularning bo'g'inlar miqdori ham turlichadir. Ammo sarbast she'r janridagi grafik joylashuv mavjud emas. Bir-biridan farqi ham shunda. Sarbast she'rlar turk adabiyotida ham, o'zbek adabiyotida ham dastlab zinapoyali shaklda bo'lgani sababli zinapoyali she'r shakli deb ham keltirilgan. Turk she'riyatida ham uch xil vazn mavjud. Bular: hijo — barmoq, aruz, sarbast — özgür ölçüsü[1]. Atama vaznga nisbatan qo'llab kelinmoqda. Biz mansur she'rlarning ham vaznini inobatga olgan holda o'zbek she'riyatidagi erkin vazndagi ikki janrning biri sarbast shakli deb fikr yuritdik. Rauf Parfi she'riyatida ham uch xil: aruz, barmoq, erkin vaznda yozilgan she'r shakllarini uchratamiz. Shoirning "Itlar" she'rini vazn jihatidan tahlilga tortamiz:

Qayt, Bo'ynoq, qayt, To'rtko'z.	3+3
Hoy, odam bormi?.. Qayt!	1+4+1
Rauf sen bu itlarga	3+4
Ne yomonlik qilgan eding, ayt!	4+5

Tishlari g'ijirlar,	6
Ko'zlari yonar, qizili qizilga, oqlari oqqa,	5+6+5
Hurpayib tashlanar	3+3
Oldimdan bir uzib olmoqqa.	3+6

[1] Serbest şiir, Serbest nazım nedir? Özellikleri örnekler. www.turkedebiyati.org

www.ziyouz.com kutubxonasi

Nechun sen itlarga yoqmaysan, 3+6
Ehtimol, tuzukroq boqmaysan, 3+6
Quloq qoqmaysan, 5
Bo‘yniga nishonlar taqmaysan. 3+6

Eh, sho‘rlik, qolding ne kunlarga, 3+6
Ko‘ksingni 3
Sindirib 3
Otgil ularga. 5

Chandiqli, zaharli yuraging otgil, 3+3+5
So‘ngra ularning holiga 2+6
Yumalanib-yumalanib 8+
Qotgil. 2
Hammasi til tortmay o‘lar-ku! 3+3+3
G‘aroyib hangoma 3+3
Bo‘lar-ku 3

She’r erkin vaznda yozilgan sarbast shakldir. Takrorlanuvchi turoqlarning ko‘pchiligi uch bo‘g‘inli ekani ohang hosil qilmoqda. E’tibor bersak, she’rda qofiya ham mavjud: qayt-ayt, oqqa-olmoqqa, yoqmaysan-boqmaysan-taqmaysan, kunlarga-ularga, otgil-qotgil, o‘lar-ku-bo‘lar-kun. Aynan shu shoir tomonidan tanlangan erkin qofiyadoshlik ham intonatsiyani kuchaytiradi.

II bob bo‘yicha xulosa. Rauf Parfi zamonaviy o‘zbek she’riyatini bir pog‘onaga ko‘tarib, yangi janrlarda ijod qildi va g‘arb adabiyotidan Rauf Parfidan oldin nolib kirilgan bo‘lishiga qaramay, sonet janrida ham o‘tkir tig‘li she’rlar yarata oldi. Aynan sonetlar turkumi yoki muvashshah so-

www.ziyouz.com kutubxonasi

netlar O‘zturkka xos bo‘lgan yangi shakl edi. Bu shakllardagi o‘ziga xos ma’no esa O‘zturk zamondoshlarida ham kamdan kam uchraydigan holatdir. Bularning barchasi zamirida Sharq va G‘arb adabiyotining Rauf Parfi ongida mukammal sinkretizmlashishi natijasidir. U oziqlangan manbalar xoh havaskor ijodkorlar shaxsiyatidan, xoh ular yaratgan asarlarni tarjima qilish tufayli paydo bo‘lgan bo‘lsin barchasi yuksalish uchun xizmat qilgan. Bir tekis oqimga sig‘maydigan Parfi ijodi dengizi po‘rtanalari esa she’riyat ohanglarida ham aks etdi. Rauf Parfigagina xos o‘zbek she’riyati vazn xususiyatlari bugungi kun she’riyati uchun an’anaga aylanib ulgurdi.

www.ziyouz.com kutubxonasi

III BOB. RAUF PARFI SHE'RIYATI BADIIYATIGA XOS AYRIM JIHATLAR

III.1. Shoir she'riyatining obrazlar olami

Rauf Parfi badiiy so'zni timsollar vositasida yanada qudratliroq kuchga ega ekanini namoyish etdi. Shoirning san'atga qarashida tushkunlik, hazinliklarga boy obrazlar yaratish xususiyati ustuvor turadi deb o'ylash noto'g'ri. Shoir o'sha davr adabiyotida sotsialistik realizm hukmron bo'lib turgan bir paytda she'riyatni maddohlikdan xoli qildi, xolos. Rauf Parfi she'riyatidagi poetik obrazlarning o'ziga xosligini ular zimmasidagi ma'nolar mohiyatidan anglaymiz. Shoir shunday ma'nolarni kashf qilishda o'z yo'liga ega ijodkor. Uning lirikasida so'z, bulut, daraxt, qushcha, ko'z, buloq, yomg'ir, qor, deraza, uy, chiroq, xayol, nur, quyosh, shamol, bo'ron kabi obrazlar timsollarga aylangan. Shoir erk kuychisi bo'lgani bois shamol, yomg'ir obrazlari uning ijodida yetakchilik qiladi. "Qor", "yomg'ir", "ko'z yoshi" kabi poetik obrazlar orasida daryo va dengiz ham bor va u suv atributlaridan biri sifatida og'zaki va yozma she'riyatimiz-

www.ziyouz.com kutubxonasi

da keng qo‘llanadigan obrazlardan biri sanaladi. Bahoriy mayin yomg‘ir atrofni, muhimi inson ruhiyatini ravshanlashtirib, g‘uborlardan tozalaydi. Yomg‘irga munosabat shoirning kayfiyatini, o‘sha lahzalardagi holatini ifodalagan. Yomg‘ir, tabiat orqali lirik qahramon kayfiyatini ifodalash juda ko‘p o‘rinlarda qo‘llanadi. Rauf Parfining sarlavhalarda yomg‘ir, qor so‘zlari aks etgan “Daf’atan yomg‘ir yog‘ar, tinar daf’atan”, “Yomg‘ir yog‘ib chiqdi tun bo‘yi”, “Pag‘-pag‘a oppoq qor yog‘ar”, “Yomg‘ir yog‘ar, shig‘alab yog‘ar”, “Aylanib qor tushar yo‘limga”, “Derazamga uriladi qor”, “Yomg‘ir ham tinmadi, uzun kun...”, “Yomg‘ir yoqqanda” kabi she’rlarida sof ruhiyat tasviri aks etadi. Shamol obrazli she’rlarida ko‘pincha tutqich bermaydigan erkin ruh timsolini yoki Turkistonga baxsh etilishi kerak bo‘lgan erk ramzini ko‘ramiz.

Sochlarini yular Vaqt
Sovuqqon o‘rnimiz ustida,
Derazani oching,
Shamollar kirsin,
Xonangiz nafasga to‘lsin,
Musaffo nafasga.

“Vaqt” she’ridan olingan ushbu parchalarda bo‘g‘iq turgan, butun olamdan uzilib qolgan Turkiston ahvoli “to‘shak ustida o‘tmay sochlarini yulayotgan Vaqt” tasviri orqali berilgan. Shamol va musaffo nafas unga kerak bo‘lgan ozodlik edi.

SHOVULLAYDI SHAMOL, UVLAYDI,
Na tinim bor, na uyqu unda.
Alamini yoza bilmaydi,
Shodligin ham etolmas udda.

www.ziyouz.com kutubxonasi

Bu she'rda lirik qahramonning toshqin ruhiyati aks etgan.

Tashqarida shovullar shamol,
Yomg'ir qattiq yog'ar bu kecha.
Tashqarida shovullar shamol,
Yuzlarini yuvmoqda darcha.

Darchaga yog'gan yomg'ir shamolning yuzlarini yuvib o'tmoqda. Rauf Parfi she'riyatida so'zlarni ma'nolari bilan birga teskari holatda qo'llash ko'p uchraydi: daryoga lim to'lib jasadim oqar. Aslida lim to'lib oquvchi daryo bo'lishi kerak.

Yaproqlarda shamol o'ynar,
Suv mavjida o'ynar shamol.
Sarin shamol nima so'ylar,
Yuragida qanday xayol?
Sochlarimga qo'nar shamol,
Shamol qo'nar ko'zlarimga,
Qo'shiq, ertak aytib xushhol,
So'ngra qaytar izlariga.

Shoir ushbu she'rda shamol obrazi orqali ijodkor ilhomini nazarda tutyapti.

Ilhom keladi-yu ortiga qaytib ketadi. Kelganida shoirga xushhol ertak va qo'shiqlar olib keladi. B. Sarimsoqov individual istioralar haqida so'z yuritganda, "Rauf Parfi "Shamollar" she'rida shamol so'ziga shu qadar teran, birbiridan uzoq ko'chma ma'nolar beradiki, natijada she'r so'ngida bu ko'chim asrimiz kishilari boshidan o'tayotgan suronli davr oqimi va shiddatini ifodalay oladigan istioraviy obrazga aylanadi" [Sarimsoqov, 2004: 51][1].

[1] Sarimsoqov B. Badiiylik asoslari va mezonlari. — T.: Fan, 2004. — B.66.

www.ziyouz.com kutubxonasi

Rauf Parfining quyidagi misralarida shamol timsolini Behzod Fazliddin o‘zgacha tahlil qiladi:

Shamolga osilib yashadim,
Mingga kirdim chiridi jismim,
So‘ngaklarim oqardi qaqshab.

Behzod Fazliddining fikricha, “shamolga osilib yashash” majburiylik yoki ixtiyoriy majburiyat asosida bo‘lishi mumkin. She’rdagi shamolni tavakkal timsoli desak ham bo‘ladi. U osilib yashagan shamol yo ruhiyatini azoblardan butunlay forig‘ etadi, yo halokat sari olib ketadi[1]. Ammo biz salgina bundan farqliroq fikrdamiz. Rauf Parfi doimo har narsada erkinlik, ozodlikni xohlab yashagan ijodkor. Shamoldagi erk esa shoirni unga “osilib” ergashishga undagan bo‘lsa ajab emas. Ijodkor yashagan davrda esa bunday hurlikni talab qilish halokatga yetaklashi muqarrar. Shu hurriyatni kutib shoir “jismi chirib, so‘ngaklari oqarib qaqshaganini” she’r ruhidan sezish qiyin emas.

Shamol obrazi shoirning “Shamollar” mansurasida alohida ahamiyat kasb etadi. Aynan shu she’rda tinch qo‘ymas xayollar, notinchlik ramzi sifatida keladi: “Shamollar boshimda aylanur, daraxtlar tebranur shamollarda, daraxtlarning mevasi larzon, soyasi larzon. Xususan, daraxtlar... Dor: Yuvilgan kiyimlar osilsin, tomosha ko‘rsatsin dorbozlar. Cho‘yan-oshxonada qozon. Daryo: nur. Temir: avtomat barmoq, Qabriston: gulzordir. Boshimda aylanur shamollar. Boshimda odamlarning, vatanlarning shamollar shaklida hayqirgan ovozi”[2].

[1] Fazliddin Behzod. Rauf Parfi she’riyatida shamol obrazi. Uluslararası türk dünyası araştırmaları// 2018.
[2] Rauf Parfi. Ona Turkiston. www.ziyouz.com — B.6.

www.ziyouz.com kutubxonasi

Qatorlarda shoir dor, choʻyan va temir obrazlari orqali yuz berayotgan voqea-hodisalarning qaysi davrga oidligiga ham ishora qiladi. Shoir dorga ziyolilar osilishini emas faqatgina kir yoyish, dorbozlar tomoshalari uchun foydalanilishini, choʻyan miltiqningning oʻqi yoki qilichlar uchun emas, qozonlar uchun qoʻllanishini qanchalar istashini bayon qiladi. Ammo bular millatning ogʻzini yopish uchun qurolga aylangandi. Qabriston obraziga gulzor ta'rifini berganda qancha jadidlarning, millat jonkuyarlarining shu yerga dafn etilganini, ular faqatgina qaro tuproqni ramziy ma'nodagi gulzorga aylantirganiga ishora qiladi.

Rauf Parfi she'riyatida "bulut" obrazi turli xil ranglar bilan birga har bir oʻrinda oʻzgacha ma'no kasb etadi.

Oftob kuylar parishon kulib,
Biroz xafa koʻrinadi u.
Ana, qoʻshiq boshladi bulut,
Toʻkilmoqda tuproqqa tuygʻu.

Ushbu she'rda ham kuylash uchun toʻlib-toshib turgan shoir obrazi yetakchilik qiladi. Oftobning xafaligi osmonga chiqqan bulutlarga ishora qiladi va uchinchi qatordan bulut obrazi kirib keladi. She'r mazmunidan shuni uqish mumkinki, toʻrtinchi qatorda, garchand nomi tilga olinmasa-da, "Toʻkilmoqda tuproqqa tuygʻu" misralari ostida yomgʻir obrazi yashirinib turibdi. Shoir tabiat hodisasidan ramzli kompozitsiya yarata olgan.

Qaragil, naqadar tiniqdir osmon,
Undan-da goʻzaldir, undan gʻaroyib.
U yerda qaro tun yoʻlamas aslo,
Bulutlar qaygʻudan ketmas qorayib[1].

[1] Tahlil qilingan barcha she'rlar "Turkiston ruhi" toʻplamidan olingan.

www.ziyouz.com kutubxonasi

Rauf Parfining “Zangor to‘lqinlarda otarmiz quloch” deb boshlanuvchi ushbu sonetida shoir uchun o‘zga bir tinch, sevgi dunyosi kuylanadi. Bulutlar eng sof his-tuyg‘ular ramzidir. Qaro tun bo‘lmasa bu tuyg‘ular hech qachon yomon niyatlarga aylanmaydi. “Seni menga betob dedilar” she’rida “qora bulut” vahimali xayollar ramzi sifatida akslanadi:

Seni menga betob dedilar...
Lekin kelding, kelding sen o‘zing.
Qora bulut tamom yo‘qoldi,
Holbuki men... yig‘laydi ko‘zim.

Quyidagi she’rda bulut obraziga salbiy — tutqunlik, g‘araz illatlar ma’nosi yuklangan, oy esa hech qachon yo‘qotib bo‘lmaydigan ezgulik, haqiqatdir:

Mudrar yarim kecha uyquda,
Bulut suzar va oyni yopar.
Oyni yopar, lekin behuda,
Yana bir on o‘tmasdan yonar.

Quyidagi she’rda esa oq bulut ezgu niyat ramzidir:

Oppoq bulut izg‘ir sarosar,
Oppoq bulut sokin osmonda.
Yo‘llar oshar , manzillar oshar,
Nelar bordir o‘sha tomonda

[Rauf Parfi, 2013,75].

Rauf Parfi she’riyatining asosiy mohiyati ramziy obrazlarida namoyon bo‘ladi. Shoir tili va uslubida modernistik ohang yetakchilik qilib, har bir obraz o‘z ma’noviy yukiga ega. Rauf Parfi o‘zbek adabiyotiga o‘ziga xos badiiy tafak-

www.ziyouz.com kutubxonasi

kurni olib kirgan ijodkorlardan biridir. Janr jihatdan yangilangan she'riyat ramziy obrazlarda ham yangi liboslar kiydi. Rauf Parfi badiiy tafakkuri she'riyatning fikriy qirralarini ochib berdi. Shoirning "Ona Turkiston" kitobiga kirgan Turkiston mavzusidagi she'rlariga e'tibor bersak, madfun Turkistonning sog'inchi bu qora dunyoga sig'masligi, Vatanning molparastlar qo'lida xor bo'lishi tiniq tasvirlarda ramziylashadi. Poetik uslubning murakkabligi o'quvchini o'yga toldiradi va har bitta obrazni tag zamirini anglashga majbur qiladi. "Ona Turkiston" she'rida sog'inch haqiqat tilini biyron qilganiga guvoh bo'lamiz:

Naqadar uzundir, og'irdir bu yo'l,
Dalalar yastanib yotar ko'k kabi.
Tig'lab xotiramni osmon — cheki yo'q,
Tizginsiz bu shiddat kenglik asabi.

Bu uzun va og'ir yo'l mustaqillikkacha bo'lgan davr edi. Shu zamon ichida toki XX asr boshida amirlik va xonliklar tugatilgach Turkiston muxtoriyati paydo bo'ldi, uni chor Rossiyasi yo'qotishga muvaffaq bo'ldi. Har qanday ozodlik harakatlari birma-bir bostirila bordi. Ozodlik kurashchilari bosmachilar deya tamg'alandi. Bu ko'r xalqning o'zi-da na milliy qahramonining va na uni yorug'likka olib chiquvchi insonlarning farqiga bordi. Aslida, ilm-ma'rifatdan astoydil uzoqlashtirilgan omi xalqning ham bunda aybi yo'q. Ammo jadidlar davrida har bir xonadongacha kirib borayotgan bepul maktablar, teatrlar ham ularning ko'zini ochmadi. Och qorinning tashvishi oldida ilm ko'zga ko'rinmadi. Shuning uchun bu ozodlik yo'li yanada uzunlashib, yanda og'irlashib boraverdi. She'rda tasvirlangan osmonday kengliklar, da-

www.ziyouz.com kutubxonasi

lalardagi cheksizliklar shoirga erk nafasini hadya etolmaydi. Aksincha, shu qadar kengliklarda nafassiz yashash asablarni tizginsizlashtirayotgandi. Ikkinchi bandda ham shoir shu kengliklarga ishora qiladi va uchinchi bandda oʻziga nima kerakligini oshkor qilib holatdan maqsadga oʻtadi:

Tegramda zich havo — ona Turkiston,
Oʻrgay tomirimni koʻr hayajonim.
Bu maydon ichinda men toʻkmagan qon,
Mening uni deya ayagan jonim.

Turkistonni zich havo obrazi bilan atashda qanday ma'no bor? Havoning zichligi fizik jihatdan ham qancha yuqori boʻlsa, undan nafas olish ogʻirlashib, bosim orta boshlaydi. Bosim kuchli boʻlgan havoda inson nafasi boʻgʻiladi. Shu sababdan ham har qadamida haqiqiy ma'nodagi bosimga uchrayotgan ozodlik tarafdorlari, ziyolilarning birma-bir har qanday bahonani roʻkach qilib yoʻqotilishi — bir asrda ikki marotaba uyushtirilgan qatagʻonlar erkin nafas olib yashab boʻlmaydigan Turkiston muhitini yuzaga keltirgandi. Rauf Parfi jadidlardan keyingi davrda uchinchi avlod adabiyot vakillari bilan ijod qilgan. Bu davrga kelib ikkinchi qatagʻon davri elliginchi yillar ham nihoyalangan edi. Ammo baribir xalqning uygʻonmasligi uchun bu nafassizlik muhiti ushlab turilgandi. Rauf Parfi soʻzi bilan kurashgan shoir. Bir guruh erkparvar ijodkorlarning "Birlik" guruhi ham boʻlgan. Ammo bu guruh ham hatto mustaqillikdan keyin ham zimdan olib boriladigan diktatorlikning qurboniga aylangan. Muhammad Solih, Dadaxon Hasanovlar xuddi shu tarkibda boʻlgan. "Mening uni deya ayagan jonim" deganda shoir qon toʻkmaganiga, Vatan uchun qurbon

www.ziyouz.com kutubxonasi

bo‘lmaganiga ishora qiladi, xolos. Aynan qon to‘kiladigan zamonlarda yashamagani-da shoirga alam qiladi.

Yassaviy maqbari mung‘aymish mag‘rur.
Tovushga aylandi har bir g‘isht rangi.
“Dunyo mening deganlar...” Nido kelur.
“Karkas qushdek...” Qadim so‘zlar jaranggi.
“O‘lg‘on da’vo qilganlar...” So‘zlar shoir.
“Oqni qaro deganlar...” Ayting, kimlar?!
Maqbara boshimga yiqilar hozir,
Yana tovush: “Harom yegan hokimlar...”

Yuqoridagi bandlarda Yassaviy so‘zlari orqali shoir muhit tasvirini ochib beradi.

Yassaviy so‘zlarini tilga olishda uning “Devoni hikmat” asaridagi parchalarga urg‘u beriladi va Yassaviy haqidagi, masalan, “Oq it va qora it” rivoyatiga ishora qilinadi. Yassaviyning karomatlariga ham ishonmasdan da’vo qiluvchi soxta shayxlar ko‘p bo‘lgan.Bu voqealarni Sadulla Siyoyevning “Ahmad Yassaviy” romanida ham uchratish mumkin.

Parchin-parchin bo‘ldi yodim simlari,
Simlar — ko‘zlarimga mil tortgan chizgu.
O‘tgan ulug‘larni eslayman barin,
Xotirot mozori — Turkiston mangu.

Yuqoridagi bandda “Simlar ko‘zlarimga mil tortgan chizgu” deganda xotira torlarining bir-bir xayoldan o‘tishi va bunday ayanchli tarixni, adolatsizlikni ko‘rishni xohlamayotgan, ko‘rishdan ich-ichi ezilayotgan shoirning ko‘zlariga shu torlar — simlar mil tortuvchi chiziqqa aylanadi. Bu “og‘ir” yo‘lda halok bo‘lgan ulug‘larning mangu “Xotirot mozori”ni Turkiston deb ataydi.

www.ziyouz.com kutubxonasi

Shoirning “Choʻli Iroq” she’ri boshdan oxir ramziylik bilan tasvirlangan. Bunda milliy kuyimiz boʻlmish Choʻli Iroq goʻyo Vatan boshidagi musibatlar ramzi va uyqudagi xalqni allalayotganday:

Ufq yonar, Ufq. Uf-f!
Karvon borar qumlikda. Qum. Qum...
Tuyalarda hazin qoʻngʻiroq,
Choʻli Iroq, choʻli Iroq
Tun... Kun... Tun...
Poyoni yoʻq mungli bu sahro
Uzra hurmo
Oʻsadir tanho.
Hurmo osti lojuvard buloq.
Choʻli Iroq. Choʻli Iroq.

Hazin Karvon — xalq butun bir yoʻlni bosib oʻtmoqda. Qumliklar va yonib turgan ufq ramzi uning yoʻlidagi toʻsiqlar, erksizlikdir. Shoir bu yoʻlda umidni koʻrolmaydi, shekilli, “poyoni yoʻq mungli sahro” deya ta’rif beryapti. Lojuvard buloq ozodlik ramzidir. Ammo keyingi satrlarda bu ham roʻyo kabi tasvirlanadi:

Behuda sevinar Karvon.
Karvon uchun
Eng shirin armon —
Ulugʻ Turon —
Oʻsha buloq...

Oʻziga xon ulugʻ Turonni qayta koʻrish, unda erk bulogʻini simirish “eng shirin armon”day koʻringan. She’r tugallanishiga e’tibor bersak:

www.ziyouz.com kutubxonasi

Yo‘li yiroq ko‘p yomon...
Tun... Kun... Tun...[1]

Yuqoridagi holatda tun va kun ketma-ketligi tasvirida so‘nggida tun obrazini ko‘ramiz.

Rauf Parfi she’rlarining o‘ziga xosligi shaxsiyatining betakrorligi natijasi edi. Shoirning bitganlarini maza qilib o‘qib bo‘lmaydi. Ular bilan tanishish chinakam mehnat va shu zahmat asnosida anglab yetilgan fikr yoki tuyilgan tuyg‘u o‘qirmanga aslo unutilmaydigan bo‘lib o‘rnashib qoladi.

III.2. Rauf Parfi she’riyatida oksimoron san’ati va ranglarning timsoliy olami

Rauf Parfi she’riyatiga chuqur ruhiy holat tasvirlarini singdirar ekan, go‘zal badiiy tasvir vositalari orqali satrlarga yanada jilo bag‘ishlaydi. Rauf Parfi va jahon adabiyotining juda yaqin ekanini yuqoridagi fikrlarimiz orqali aytib o‘tdik. Shoir nafaqat yangi she’riy janrlarni, balki yangi badiiy tasvir vositalarini, badiiy san’at turlarini ham o‘zbek she’riyatida akslantira olgan. Go‘zal tashbeh-u metaforalar, ko‘chimlarsiz shoir ijodini tasavvur qilish qiyin. Ammo yana bir tasvir vositasi borki, usiz ham shoir she’riyatining asl mazmunlari ochilmay qoladi. Bu G‘arb adabiyotida keng qo‘llanadigan badiiy ko‘chim turlaridan biri oksimarondir. Shoirning sonet janri orqali Shekspirning ijod an’analarini davom ettirganini bilib oldik. Shekspir asarlarini tarjima qilish mobaynida shoirga juda katta mahorat o‘tganini mana shu ko‘chim turi ham isbotlaydi.

[1] Rauf Parfi. Ona Turkiston. www.ziyouz.uz. — B.16.

www.ziyouz.com kutubxonasi

Oksimaron (grek. oxumaron — zakiy nodon so‘zidan olingan) badiiy ko‘chim turlaridan biri bo‘lib, tarkibidagi qarama-qarshi ma’noli tushunchalar yangi bir kutilmagan ma’noni keltirib chiqaradi. Oksimorondagi mana shu xususiyat kuchli obrazlilik kasb etadi. Masalan:

Uyg‘on, ey malagim, tur o‘rningdan tur,
Otashin muzlarda isinaylik yur.
Yong‘inli daryoda quloch otaylik,
Bu yerdan ketaylik, faqat ketaylik[1].

Sevgi har qanday muzni ham otashga aylantiradi. Qalbida muhabbati bor bo‘lgan inson uchun esa har qanday muz otashin kabidir. Daryo obrazi xalq og‘zaki ijodidan ma’lumki, o‘zbek she’riyatida muhabbat, nikoh ma’nolarini beradi. Unda suzmoq esa muhabbatga g‘arq bo‘lgan qalblarni anglatadi.

His va xayol kechasi
Haroratli bir sovuq,
Gulxan yoqaman vas en,
Obbo, tamaki ham yo‘q,
Meni asta quchasan.

Yuqoridagi she’rda his va xayolga boy bo‘lgan kecha qanchalar sovuq bo‘lmasin, muhabbat bergan tarovatdan harorat oladi.

Yomg‘ir qorga aylanar,
Ko‘zingda kular alam.

Ushbu misralarda ham alam so‘ziga teskari ma’noli so‘z kulmoq qo‘llanilgan.

[1] Хатамов Н. Саримсаков Б. Русско-узбекский толковий словар литературоведческих терминов.—Ташкент: Укитувчи, 1979. — Б. 214.

www.ziyouz.com kutubxonasi

Oksimaron san'atida qarama-qarshi qo'yilayotgan so'zlar aynan antonimlar bo'lishi shart emas. Masalan, quyidagi misralarda "shodlik" va "qo'li bog'langan" so'zlari teskari ma'noda kelgan:

Sen rang tanlamaysan, shodlik.
Sen bilan qiyoslash mumkin bo'lgan narsa
Faqat shodlikdir.
Qo'llari bog'langan.

Yoki:

Shodlik, seni o'ylab g'amga botaman,
Shodlik, seni men bashariyatga
ulashmoq,
Sochmoq istayman. ("Turkiston ruhi"dan)

Rauf Parfi she'r misralarini sindirib bir qatorni ikki yoki uch qatorda beradi. "shodlikni o'ylab g'amga botmoq" mumkinmi? Uni o'ylaganda quvonish kerakmasmi? Lirik qahramonning ruhiyati shunday ahvoldaki, shodlik kunlarini kuta-kuta g'amga berilgan. Xuddi shu "shodlik-g'am" ma'nolariga yaqin bo'lgan oksimarondan shoir quyidagi misralarda ham o'ziga xos tarzda foydalanadi:

Tomirimda g'imirlar-ku qon,
Hayqirurman, so'rarman shafqat.
Kerak emas menga hech qachon,
Shodliklarga o'ralgan hasrat
["Turkiston ruhi" 109-b].

Barcha misralardan ko'rinib turibdiki, oksimaronning shartlaridan yana biri teskari ma'nodagi so'zlar bir-biriga ulangan holda bitta misrada, bir butun so'z birikmasi holida kelishi kerak.

www.ziyouz.com kutubxonasi

Bilurman... yo‘limda g‘ijirlar toshlar,
Zafaron kuz yanglig‘ hayotim taqir.
Shaharning g‘avg‘oli tinchini tashlab,
Uzoq vaqt yoningga bormadim axir [117-b].

“Onamga xat” she’ridan olingan bu parchada “g‘avg‘oli tinchlik” deganda shoirning shahar haqidagi xulosalari aks ettiriladi. Shahar doimo gavjum, ish qizigan bo‘lsa-da negadir tinch, deydilar. Chunki barcha o‘zining ishi bilan mashg‘ul. Birovning birovga ishi yo‘q, g‘iybat yo‘q, janjallarni esa uy ichida to‘rtta devor, ko‘chalarda esa sariq xazonlar tomosha qiladi, xolos. Bu garchand bemehrlikday tuyulsa-da, har kim o‘z aravasini o‘zi tortadi.

O, ona — tabiat, o‘ylayman seni,
Tinglayman, olamning shivirin takror.
Bandi maskaniga chorlaydi meni,
Kibor cho‘qqilarda muzlagan bahor.

“Shoir” she’rida aks etgan “muzlagan bahor” shoirning ilhomi timsolidir. Kibor cho‘qqilarning uchlarida bahor paytida erigan muzlardan oq qalpoqlar qolishi shoirga ilhom beradi. Oksimaron san’atining har bir so‘z birikmasiga e’tibor bersak, bularning bari ramziy ma’no tashishini ham bilib olamiz. Rauf Parfi she’riyatini oddiy holda tushunib bo‘lmaydi. Shoir ruhiy dunyoni ochib berish uchun ham tabiat manzaralaridan foydalanadi. She’riyatga hayotdagi barcha hodisalarni bo‘ysundira oladi. Oddiy insonlar osmondagi yulduzlarga tikilib, quyoshdan ko‘zlari qamashganda, oyga ertaklarini aytganda, shoirga yulduzlar boqadi, quyoshning o‘zi shoir ko‘zlaridan qamashib ketadi, oy shirin afsonalarini aytadi. Bunday mahorat, bunday o‘y-ke-

www.ziyouz.com kutubxonasi

chinmalarni tasvir etib berish uslubi o‘zbek she’riyatida bir qadam oldinga tashlash bo‘lgan, desak adashmaymiz.

“Hech narsadan to‘lib ketgan dil”, “hech narsadan boshlangan gap”, “hech narsani so‘zlaydigan til” sohibi Rauf Parfi olislardan turib bu hayotga zaboni o‘rtanguncha qichqirib, jonini sukunat o‘tiga tashlab, aynan shu “hech narsalar”ni tan olmay “hech narsadan boshlangan jahon” aro yashadi. Shoirning hatto sukunat ko‘chalarida ham haqiqat bolalari qiyqirib o‘ynadi. Hech narsasiz yashayotgan bu dunyoning she’riyat aro topgan butun haqiqatini insonlarga baxshida etdi. U qullik va ozorlarga yengilmadi va o‘z xalqini ham shunga undadi. Shoir bir she’rida turkiylarga shunday murojaat qiladi:

Turkiylar, aytingiz bizda nima bor?
Bizda bor mutelik, qullik, ozorlar,
Bizda bor qo‘llardan ketgan ixtiyor,
Manxus kimsalarning talon taroji.

Shoir yana mana shunday haqiqatni “Adashgan ruh” dostonida ifodaladi. Doston turkiylar hayoti tasviriga bag‘ishlangan. Unda o‘zbek xalqining 30-50 - yillardagi hayoti tabiatdagi holatlarga hamohang tarzda ramziylikda ochib berilgan. Doston boshdan oyoq ramziylik asosida qurilgan. “Adashgan Ruh” xalq orasida yerlariga “gumonlar, yolg‘onlar” ekilgan Ona yurt tasviridan iborat. “Adashgan ruh” — tillarida haqiqati qotib qolgan xalq uchun fido bo‘lgan fidoyi insonlar. Dostonning boshida Rauf Parfi tuyg‘ularni ranglar orqali ifoda etadi:

Quyoshning yog‘dusi qoradir,
Yulduzlar muzlardir to‘kilgan.

www.ziyouz.com kutubxonasi

Bu dunyo uzangan yaradir,
Daraxtlar egilgan, bukilgan.

Yulduzlar harorati muzlarga koʻchgan, xalqda harakat yoʻq, bir paytlar magʻrur daraxtlar esa bugun egilgan holda turibdi. Quyoshning yogʻdusi nega endi qora? Rauf Parfi shu misralarda rang orqali mazmunni voqelantiradi. Najmiddin Kubroning "latoyif" ya'ni, ranglar nazariyasiga koʻra, rang bu ruhiy holatning oʻzgarishini ifodalovchi vositadir. Har bir rang ma'lum bir holatni anglatadi.

Qora rang — zulmat ramzi, u koʻpgina xalqlarda baxtsizlik, gʻam-anduh, motam ma'nolarini bildiradi. Navoiy ham "Sab'ai sayyor" asarida yetti qasrning yetti xil rangda ekanligini va shanba kuni qora rangli qasrda shoh Bahromning hikoyat tinglashi tasvirida rang orqali bosh qahramon ruhiyatidagi tushkunlikni ifodalagan. Rauf Parfi ham oʻlkadagi yuz berayotgan holatga, erksizlikka koʻkdagi quyoshning gʻam bilan boqishi uning qora nur sochishi orqali tasvirlaydi. Oʻlkadagi ahvol shunchalar achinarli ediki, hatto quyosh ham qora nur sochardi.

Dostonda poetik ta'sirchanlikni oshirish uchun takror usuliga keng oʻrin berilgan. Birinchi toʻrt misraning har bir qatori keyingi bandlarning birinchi misrasida takrorlanadi:

Yulduzlar muzlardir toʻkilgan,
Toshlardek qotmishdir tumanlar.
Yerlarga tikanlar ekilgan,
Ekilgan yolgʻonlar, gumonlar.

Asar 1990-yilda yozilgan. Voqealar esa oldinroq, sobiq tuzum davrini aks ettiradi. Xalq shu davrda oʻz fikrini ochiq aytolmagan. Zero bunda tumanlar tarqalmay-

www.ziyouz.com kutubxonasi

di, fikrlar toshday qotgan, "yolg'onchi dehqonlar" esa bu tuproqqa "tikan" ekadilar, uning gullashi esa "gumon"dir. Dostonning uchinchi bandida shoir yozadi:

Bu daryo uzangan yaradir,
Hasratdan tinmagan hech qachon.
Jimirlab qaylarga boradir,
Boradir bezabon, bemakon.

Bu daryo — yaralangan xalq. Ayni paytda u bezabon va o'z yurtida bemakon. Yurtda o'zga hukmronlar bor. Rauf Parfi xalqning jabr-zulmga qarshi harakatsiz ekanini, barchasini ichiga yutib yashashini "uzangan yara" tashbehi orqali ifodalaydi. Bu davrda xalqni uyg'oqlikka chorlab, Behbudiy shunday yozgan edi: "...Muxtoriyatni Turkiston bolalarining o'zi birlashib, g'ayrat ila olurlar. Albatta, boshqalar tarafidan berilmas. Boshqalarning qo'lidan kelsa, bermaslar. Biz bo'shlik qilsak va Turkistondagi xalqlar birlashib, muxtoriyat yo'liga sa'y qilmasak, albatta, hozirgi qog'oz ustidagi muxtoriyatimizni ham yo'q qilurlar..."

Daraxtlar egilgan, bukilgan ,
Yer tishlab yotibdir yaproqlar.
Toshlarga mixlangan, chekilgan,
Lochinlar, kaptarlar, chorloqlar.

Yuqoridagi misralarda xalqning lochinlari ham „tosh"-day qotgan ramziy ifoda etilgan.

Nahotki eng so'nggi choradir,
Adashgan ruhni men ko'rgayman.

So'nggi chorani izlagan shoirning ko'zlari esa "adashgan ruh"ni ko'radi. Shoir o'z yurtdoshlarini sotganlarni quyidagi ramziy obrazlar orqali ifodalaydi:

www.ziyouz.com kutubxonasi

Toshlardek qotmishdir tum
Bulutlar falakning ohlari.

"Bulut "va "tosh" ramzlari salbiy ma'no ifoda etadi. Shoir tuzumning maqsadini ham aniq ifodalaydi:

Yerlarga tikanlar ekilgan,
Dov uchun, ov uchun, g'ov uchun.

Shoir turkiylarni ham yo'qolib ketgan xalqlarga qiyoslaydi. Turkiylarning bu ketishda o'zini-da yo'qotib qo'yishi esa quyidagi bandda o'z aksini topgan.

Akkadlar, sumradlar, yunonlar,
Turkiylar nahotki kechmishdir .
Ketmishdir, yitmishdir jahonlar,
Yo'qlikning zahrini ichmishdir.[1]

Doston quyidagi satrlar bilan tugaydi:

Ekilgan yolg'onlar, gumonlar,
Bergaydir chorasiz mevasin.
Bu tunlar, bu kunlar, bu tong
Men va sen, Men va sen, Men va sen.[2]

Butun doston davomida shoir ramzlardan juda samarali foydalangan. Ramzlar orqali shoir yaqin o'tmish manzaralarini badiiy ifodalashga erishgan. Rauf Parfi qo'l urgan janrlar badiiy jihatdan juda go'zal tasvirlangan va keng mushohadaga chorlaydi. Ko'rib turganingiz doston janrida ham shoir muvaffaqiyat bilan qalam tebratgan. O'tmish ajdodlari Qodiriy, Cho'lpon, Fitrat, Usmon Nosirlarga munosib izdoshlik qilgan.

[1] Dostonning Ruxsora Nur tomonidan turk tiliga o'girilgan varianti: www.edebi.net . "Yanılan ruh" destanı.
[2] Doston "Turkiston ruhi" kitobidan olingan.

www.ziyouz.com kutubxonasi

III.3. Rauf Parfi ijodida psixologik parallelizm

Inson tashqi dunyo tasvirlarini uning shakllarida oʻzlashtiradi. Biz oʻzimizni his qilishimizni beixtiyor tabiatga oʻtkazamiz. Tabiat doimo insonni oʻziga maftun qilib kelgan. Inson oʻzi koʻrib turgan narsa-hodisalardan alohida ajralib yasholmaydi. Yashash deganda barcha: umumiy fikrlash, oʻylash, xayol surish, yaratish, tasvirlash kabi hodisalarni ham nazarda tutamiz. Aynan inson tabiatidagi koʻrsam, bilsam degan qiziqish tevarak atrofga nisbatan uygʻonishini bilamiz. Bilish negizida taqqoslash asosiy mezon sifatida ongni boshqarib turadi. San'atga aloqador har qanday turning kelib chiqish asosi ham qiyoslashdir. Soʻz san'atida qalb kechinmalari ifodasi tabiat hodisalari bilan uygʻunlikda beriladi. Inson adabiyotning tasvir predmeti boʻlib qolar ekan barcha tasvirlar oxiri kelib uning fe'l-atvoriga borib taqaladi. Mana shu ruhiy tasvirni obrazli ifodalaganda juft shakllar yuzaga keladi. Bular biri ikkinchisini toʻldirib, anglanuvchi hodisaga ishora qilib turadi. Bu ikki parallel turuvchi hodisalar poetik san'atda parallelizm deyiladi.

Parallelizm (gr. parallelos — yonma-yon boruvchi soʻzidan) poetik usullardan biri boʻlib, ikki yoki undan ortiq hodisa, narsani yonma-yon qoʻyish orqali poetik mazmunni ochishdan iborat stilistik uslublardan biri. Yonma-yon qoʻyilgan narsalarni bir-biriga zidlash yoki muqoyasa qilish orqali poetik fikr konkretlashtiriladi, ta'sirning jonli va yorqin boʻlishiga erishiladi.[1] Professor Darmonoy Oʻrayeva parallelizmni she'riy san'at sifatida namoyon boʻ-

[1] Хатамов Н. Саримсаков Б. Русско-узбекский толковий словар литературоведческих терминов. — Ташкент: Укитувчи, 1979. — Б. 223.

www.ziyouz.com kutubxonasi

lishini ta'kidlab, xalq lirik qo'shiqlarini tahlil qilganda: "Xalq qo'shiqlarining shakl jihatdan qisqa va ixcham, silliq bo'lib tez tarqalishi hamda esda qolishi, undagi tasvirning ta'sirli, ishonarli, obrazli chiqishi parallellizmning natijasidir", deydi[1]. Parallelizmning tematik-psixologik (obrazli), ritmik-sintaktik, intonatsion, leksik-morfologik kabi turlari mavjud. Bular orasidan faqat tematik parallellizm matn mazmuniga bog'liq holda muqoyasa qiladi. Psixologik parallelizm haqida Veselovskiy "Историческая поетика" kitobida: "Inson hayotini tabiat bilan identifikatsiyalash haqida taqqoslash, taqqoslanadiganlarning ajralib turishi ongini taxmin qilish", deydi. Asosida taqqoslanuvchi harakat turadi. Quyosh yurayotganday bo'lishi, shamol bulutlarni haydashi va hokazolar. Inson xayolida barcha hodisalar jonlanadi. Tematik-psixologik parallelizm poetik ma'no teranligiga qarab turli ko'rinishlarda namoyon bo'ladi. Bular quyidagilar:

Qiyosiy parallellizm.

Psixologik (ruhiy) parallelizm.

Kinoyali parallelizm.

Intonatsion parallelizm.

Jonlantirishli parallelizm.

Majoziy parallelizm.

Psixologik parallelizm ijodkorga ikkita imkoniyat beradi:

1. O'z his-tuyg'ularini mayin, yorqin, ta'sirchan tasvirlash, ruhiy holatini o'quvchiga yuqumliroq yetkazish imkoniyati.

[1] O'rayeva Darmon Saidaxmedovna. O'zbek xalq lirik qo'shiqlarida parallellizmlarning xarakteri va badiiy-kompozitsion vazifalari. Filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya avtoreferati. Toshkent — 1993. — B.7.

www.ziyouz.com kutubxonasi

2. Aytmoqchi bo‘lgan keskin ba’zi fikrlarni ramziylashtirish, niqoblash.

Zamonaviy adabiyotning lirik turiga xalq og‘zaki ijodidan aynan obrazli parallelizm ko‘proq ko‘chib o‘tgan. Bularning asosida ramz yotadi, deb belgilaydi Darmonoy O‘rayeva. Rauf Parfi, Shavkat Rahmon kabi ijodkorlarda psixologik parallellizmga keng o‘rin berilgan. Murakakab dunyoqarashga ega shoirlar ijodida bu tabiiy hol. Ular yashagan muhit keskin, qoralovchi fikrlarni qabul qilmas edi. Shu sababdan, ehtimol, o‘zbek adabiyotida XX asr hurfikrli ijodkorlariga bunday ramziylik qo‘l kelgan.

Psixologik parallelizmda parallel keltirilayotgan narsa-hodisalarning uchta asosiy belgilari mavjud bo‘lishi kerak:

1. O‘xshashlik jihatining murakkabligi;
2. Hayotiy jihatdan bu o‘xshash belgilar amalda bo‘lishi;
3. O‘xshashlikning insonga nisbatan ham hayotiy to‘liq bo‘lishi.

Tabiat hodisalari bilan bog‘liq tarzda ramziy obrazlarni ifodalash qadimgi miflarga borib taqaladi. Miflar paydo bo‘lishining asosiy sababi insonning tabiatni tushunishga bo‘lgan intilishidir.

Bir daraxtning kesilishi, uning nobud bo‘lishi, qurib qolishi kabi ketma-ket hodisalar o‘lib borayotgan inson tasvirini eslatadi. Shuning uchun ham o‘xshash parallelliklar inson hayotiga to‘liq nisbat berishi kerak degan tamoyilni ilgari surdik. Maqsad ham tabiatni emas, insonning ruhiy holatini tasvirlashdir.

Yaproqlarda shamol o‘ynar,
Suv mavjida o‘ynar shamol.

www.ziyouz.com kutubxonasi

Sarin shamol nima soʻylar
Yuragida qanday xayol.

Rauf Parfi lirikasidagi shamol obrazi har xil maʼnolarni tashiydi. Yuqoridagi misralarda shamol yakka obraz boʻlib kelmayapti: “yaproqlarda oʻynar shamol” — shamol esmoqda. Shamolning esishi esa inson yuragiga muhabbat olib kirganday boʻlmoqda. Taʼkidlab oʻtganimiz belgining murakkab oʻxshashlik asosida qurilishiga shu misolni koʻrishimiz mumkin. Shamol bilan muhabbatning qanday bogʻliqligi bor? Shamol insonga orom beruvchi, huzur baxsh etuvchi yel ham boʻlishi mumkin. Shamol insonni bezovta qiluvchi, muhitini buzuvchi boʻron ham boʻlishi mumkin. Yoqimli hissiyotlar tasviri sifatida shamolning sokin tasvirlanishi ruhiy holatning tinchligidan dalolat beradi. Sarin shamol sifatlanishining berilishi ham bu tahlilni berishimizga asos boʻla oladi.

Eng sof tuygʻularni tasvir etuvchi, inson qalbiga yoqimli sogʻinch, qoʻmsash, begʻubor hissiyotlarni jo qiluvchi navbatdagi sheʼr Rauf Parfi lirik qahramonining intim kechinmalarini bayon qiladi:

Derazamga uriladi qor,
Jaranglaydi jarangsiz kumush.
Derazamga uriladi qor,
Qor singari oppoq boʻldi tush.
Bir ajoyib qor yogʻar bu kech,
Uchib tushar mening yonimga.
Men-ku seni oʻylamasman hech,
Sen tushasan ammo yodimga.

Sheʼrda koʻp tarkibli parallelizm hodisasini va toʻrtta juft motiv borligini kuzatamiz. Juft motivlar bir-biriga

www.ziyouz.com kutubxonasi

qiyoslanmoqda. Juft misralar mazmuni bir-birini to‘ldirib keladi. Birinchi juftlik derazaga jarngsiz kumush kabi qorning jaranglab urilishi, ikkinchisi lirik qahramon tun chog‘ida xayol surib tush ko‘rgan va tong payti qor yog‘ishi bilan tushning ham qor ranggi kabi oqlik — tasvirsizlik, ya’ni oppoq bo‘lganligi, uchinchi motiv ajoyib qorning oshiq oldiga o‘ynoqlab uchib tushishi, to‘rtinchi motiv esa uchta juft motivni asoslovchi, qiyoslanuvchi hayotiy voqea tasvirlangan tarkib bo‘lib, qahramonning asl ruhiyatini ochib beradi.

Nima uchun biz aynan tabiat tasviriga bag‘ishlangan bu bandlarda psixologik parallellizm bor deb aytyapmiz? Buning sababi ham aynan to‘rtinchi juftlikda asoslanishidir. Parallellizm yakka qanot bilan hosil bo‘lmaydi. Bir bandning dastlabki ikki yoki birinchi qatorlari hodisot bo‘lsa keyingi satrlar, albatta, inson shu damda nimani o‘ylayotganini aks ettiradi. Qorning derazaga urilishida ovoz yo‘q, ammo ayni damda ishqqa g‘arq bo‘lgan lirik qahramon xayolotida bu sehrli manzaraday namoyon bo‘ladi va qorga nisbatan “jarangsiz kumush” o‘xshatilishi qo‘llanmoqda. Uchinchi juftlik bilan to‘rtinchi juft motivning mazmunan bog‘liqligi yuqoridagi misralarga nisbatan ham kuchli. Chunki endi xayolini biroz chalg‘itib o‘ylamayman deb qaror qilgan oshiq yodiga ma’shuqasini yana qor esiga soladi. Qorning aylanib-aylanib uning oldiga tushishi tarqoq xayollarda yor tasvirining ham bot-bot jonlanib-jonlanib ketishiga o‘xshaydi.

Aylanib tushar qor yo‘limga,
Qo‘lingni qo‘ygil, yor, qo‘limga.
Sen qolding muhr kabi labimda,
Sen bir dard asabiy qalbimda.

www.ziyouz.com kutubxonasi

Yuqoridagi bandning ikkinchi satridanoq shoir yorini yo‘qotgan lirik qahramonni tasvirlamoqda. Nega qor obrazi tanlangan? Qor parchasi yerga tushgach erib ketadi. Lirik qahramon uchun ayriliq og‘ir. Aynan shuning uchun ham shoir ayriliqni qalbdagi “asabiy dard” demoqda.

Qamishlar shivirlar daryo tomonda,
Ko‘kda oq bulutlar kezar bemajol.
Bu tirik nafosat borliq jahonda,
Kimgadir elanar, qilar iltijo.

Shu tasvirda erkka intilayotgan inson obrazini tasavvur qilishimiz mumkin. Qamishlar qancha ozod bo‘lishga harakat qilsa-da, ko‘z oldingizga keltirsangiz, shamolda xuddi yer uni oyog‘idan mahkam zanjirlaganday talpinadi har tomonga. Ikkinchi satrda “oq” rangdan foydalanish ham bejiz emas. Erk timsoli bo‘lgan bu rang bulutga sifatlanmish qilingan. Bemajol so‘zi esa harakatning kuchsiz, ilojsiz ekanini aks ettirmoqda. Oq bulutdan hech zamonda yomg‘ir yog‘ganini natijasini ko‘rganmisiz? Yo‘q! Osmondagi mana shu dardlarini to‘kolmayotgan qiynoq qahramon ruhiyatida ham yuz bermoqda. Shoir keyingi bandda parallellikning ikkinchi qanotini yozadi: “Kimning olamidir qilich uchinda” deganda ham boshga kelib turgan qilichning ajal vahimasini solishi ham mushkul holatdagi insonga mengzalmoqda. Undan keyingi bandda esa yanada gap nima haqidaligiga amin bo‘lamiz va she’rda uchinchi juft motivga asos bo‘lgan parallelizm hosil bo‘ladi:

Qaltirab porlaydir bir chiroq g‘arib,
Bir qushcha sayraydir ruhim ichinda,
Bir qushcha yig‘laydir meni axtarib.

www.ziyouz.com kutubxonasi

"Qaltirab porlayotgan chiroq" lirik qahramon koʻksidagi yuragi ramzidir va bu ramzni yanada aniqlashtirish uchun shoir ikkinchi ramziy obrazdan foydalanadi: "Bir qushcha sayraydir ruhim ichinda". Xalq lirik qoʻshiqlaridagi "qalbim qushi", "koʻngil qushi", "jon qushi" kabi istioralarning avvaldan mavjudligi ma'lum.

Quyidagi bir bandda parallellik hosil qiluvchi tasvirlarning teng ikki satrga boʻlinganini koʻramiz:

Oppoq bulut izgʻib yurar jim,
U yerlardan nelar izlar ul?!
Bu choq osmon fikrimga — hokim,
Dohiyona sukunatga — qul...

Haqiqatni aytolmay jim yurgan hur fikr tasviri. Osmon — mavjud tuzum. Oppoq bulut — erkin fikr. Ammo bu fikr hali oshkor etilmagan — yomgʻir boʻlib yogʻmagan. Mavjud tuzum — dohiyona sukunat.

Rauf Parfi ijodida goʻzal suratda chizilgan psixologik parallel satrlar juda koʻp uchraydi. Obrazlar tasviriga bunday ramziy yuk tashlanishi Parfiyona lirikaning asosiy belgilaridan biridir. Shoir, koʻpincha, erkin ramzlardan foydalanadi va kashf etilgan obraziga xohlagan ramziy ma'noni yuklaydi. Qiyoslanish asosiga nima olingani yashirin holatda boʻladi. Shuning uchun ham bu ijodkor lirikasini tushunish oʻquvchidan chuquqr mushohada yuritishni talab qiladi.

III bob boʻyicha xulosa. Rauf Parfi she'riyatida har bir obrazga yuklanadigan yangicha ramziy ma'no oʻziga tegishli idrokli kitobxon tanlaydi. Bu obrazlardagi ichki hissiyotlar faqatgina shoirning oʻziga xos fe'l-atvoridan unib chiqqa-

www.ziyouz.com kutubxonasi

di. Rauf Parfi yaratgan obrazlarni uning dunyoqarashi va shaxsiyatidan xabarsiz kitobxon yaxshi anglolmasligi yoki mana man degan adabiyotshunos tog‘ri talqin qilolmasligi mumkin. Shu sababli ham bu erksevar, vujudida erk qushi yashovchi shoir she’riyatini o‘ziga xos deb aytamiz. Zero “shamolga osilib yashagan” yoki “ichida o‘z jasadi bo‘lgan dahma qura oladigan”, yulduzlar uning ko‘zlarigamas, “ko‘zlari yuzlarga sanchib og‘ritadigan” hissiyotlarning har qanday insonga-da yetarli darajada tushunib ta’sir qilishi og‘ir holat. Yangicha qo‘llangan badiiy san’atlar shoir she’rlarining nafosatini oshiradi. Oksimaron san’ati Rauf Parfi ijodida uning eng yorqin qirralari va mahoratidan darak beradi. O‘zbek adabiyotida butun badiiy kompozitsiya tashkil qilib, she’r tarkibiga singib ketuvchi psixologik parallellizm badiiy vositasi esa butunlay yangilanish desak, adashmaymiz. Bu ijodkorning chuqur, yashiringan o‘ylar girdobidagi ramziy ifodalarini o‘qigach, modernistik deb fikr yuritish ko‘p uchraydi. Ammo shoir ijodida xalq og‘zaki ijodimizning badiiy pishiqligini ko‘rsatib turadigan parallellizm hodidasining yorqin na’munalarini ko‘rgach, an’anaviylikni novatorlikka bog‘lay olgan ijodkor ekanini anglaymiz. Parfiyona sir va go‘zallik ham aynan shunda bo‘lsa ajab emas.

www.ziyouz.com kutubxonasi

XULOSA

She'riyat insonni qalban tozalaydi, ammo insonning qalbida unga oshnolik bo'lmasa, hammasi oddiyliklardan iboratligicha qolib ketaveradi. Adabiyotga ne-ne ijodkorlar butun hayotini tikadilar, butun dunyodan voz kechadilar. Badiiylikning o'zi ular uchun butun bir dunyo bo'ladi va shu dunyo orqali o'zlari uchun ham boshqalar uchun ham keng, g'aroyib, Rauf Parfi ta'rifi bilan aytganda, "zaminlarning nidosi bekor" bo'lgan bir dunyo yaratadi. Bu dunyoda faqat sevgi hukmronlik qiladi. Bu sevgi Ona Turkistonga bo'lgan muhabbatdir. Rauf Parfi ana shunday she'riyat saltanatini yaratdi. Asr boshida Cho'lpon va Fitratlar she'riyatga olib kirgan yangilanishlar asr oxirida Rauf Parfi kashfiyotlari bilan takomillashdi. Bu XX asr dunyo she'riyatining o'rganishli voqeasidir. Shoirning yangiliklari (fikr tarzi, quyuq metaforalarida, sonet guldastalari shakli va ma'nosida) e'tirofga loyiqdir. Uning mavzular olamining qaysi bir uchidan tutib bormang yo haqiqat yoki Turkistonga bo'lgan muhabbatni ko'rasiz. Turkiston fojeasi va iqboliga bag'ishlangan she'rlar millat ziyolilarini turtib uyg'otguvchi ruhi rangin, naqshi-nigorli, otashin qo'shiqlardir. Shoir bu she'rlar orqali o'zi "ona, kuylanmagan bir kuy istayman" deb onasiga aytganiday shu kuylarni yoza oldi. Shoirning qismati hamisha achchiq bo'ladi, undan she'riyat sabrli umr, bardoshli yurak talab qiladi. Doimo haqiqatlar ta'qib qiluvchi xayollarda yashaydi. Uning haqiqatlari esa zamonasiga bo'yin egishni xohlamaydi.

Biroq, eh, bilmayman, go'yoki zimdan,
Kimdir taqib etar meni beomon.

www.ziyouz.com kutubxonasi

Qandaydir bir kimsa balki haqimda,
Xunuk latifalar to‘qiydi yolg‘on
["Turkiston ruhi", 116-b].

Bu to‘qilguvchi yolg‘onlarga bardosh berib, tinch oddiy inson hayotini g‘avg‘oli she’riyat dunyosiga almashtirib, unda butun umr sobitlik bilan qolishning o‘zi bo‘lmaydi. Filologiya fanlari doktori Yo‘ldosh Solijonov Rauf Parfini eslab shunday yozgan: "Rauf Parfi bag‘rikeng, hazilkash yigit bo‘lib, har doim ham suhbatdoshiga kulib, tabassum bilan muomala qilardi. Rauf qalamiga mansub she’rlarning ko‘pi ijodkorlar taqdiriga bag‘ishlangan. Chunki uning nazarida "Faqat shoir haqli baxtsiz bo‘lmoqqa..." Rauf Parfi ham o‘z baxtidan kechib xalqining baxtli bo‘lishini istagan shoirlar toifasidan edi. Shuning uchun uning nomi xalq xotirasidan hech qachon o‘chmaydi". Ha, bu baxtsizlik Rauf Parfining o‘zi istaganiday yashash baxti edi.

Rauf Parfi Abdulhamid Cho‘lpondan keyingi eng yirik modern shoirimiz bo‘lib, Cho‘lpon takomilga yetkazishga ulgurmagan, o‘z hissiy yo‘li va fikriy ifoda uslubi, izlanishlarida ovropa, yapon, xitoy, hind, rus, turk she’riyatlaridan katta o‘rganishlarni jamlab, sintezlashtirib, go‘zal bir she’riyat yaratdi. Uning bizga yana ham qadrli jihati — ba’zi bir "yangicha"larga o‘xshab milliy yo‘llarimizni rad etmadi, barmoq va aruzdagi an’analarimizdan uzilib qolmadi, ayniqsa, barmoq vaznida mumtoz she’r namunalarini yaratdi.

Tubanlikda yosuman jari.
Sho‘rlik o‘g‘ling bir umr betob,
Singan sozi, singan xanjari.

www.ziyouz.com kutubxonasi

Bu shakl sonet, ammo undagi obrazlar “singan soz, “singan xanjar” faqat turkiy xalqlar uchun xos boʻlgan milliy obrazlardir. Folklorizmga e’tibor qaratsak, xanjar yigitning omadi ramzi, yigitning nomusi, uni balo-qazolardan asraydigan buyumdir. Oʻzbek xalqida doimo er kishining yonidan xanjari ayrilmay yurgan, yigitlar or-nomusi sifatida uni sevgan yorlariga tuhfa qilganlar. She’rni tahlil qilaversak, chuqur ildizlar sugʻurilib oʻzini koʻrsataveradi. Mana bu she’rga qarasak:

Yana keldim mahzun goʻshaga,
Bunda bir nay yotibdi sinib,
Qoʻy, sigʻinma ortiq oʻshanga,
Qoʻy, sigʻinma unga, sevgilim [71-b].

Shu toʻrt qator she’rdagi “nay” obrazining oʻzi katta ma’no tashiydi. She’rning umumiy mavzusi mashuqasiga muhabbatidan voz kechmasligini yalinib soʻrayotgan sevgi asiri oshiq holati haqida. Nay tasavvufda ishq ramzi. She’rda qoʻllangan “singan nay” obrazidan anglashiladiki, oshiqning sevgisi zavol topmoqda. Bunday keng ildizlardan foydalanib modern she’riyat yaratish buyuk bir san’atdir.

Shoir ijodidagi psixologik parallelizm badiiy tasvir vositasi esa har qanday ijodkor ham yarata olmaydigan goʻzal namunalardan tashkil topgan. Bu badiiy vositaning kelib chiqishi ham folklorga borib taqaladi. Rauf Parfi eski bezaklar orqali ham yangilik kashf qilgan ijodkordir.

Rauf Parfi koʻngil haqiqatiga sodiqligidan tiklanib, ufqni quchgan, to qiyomatga qadar bizga rost, gʻozal, yoniq she’r aytuvchi karomatgʻoydir. U qisqa, bedor, beqoʻnim koʻngil degan ulugʻvor sarhad — Turkistonning ulugʻ xayo-

www.ziyouz.com kutubxonasi

lida ko‘klarda istiqomat qiladi. U ellik yoshida tartib bergan bir majmuasini “Turkiston ruhi” deb atagan, ammo nashrini ko‘rmay armonda ketdi. Shoir 2005-yilning 28-martida oltmish uch yoshida abadiy dunyoga yo‘l olgan. Rauf Parfi bizning dunyoyimizda ham abadiylikda qolgan ijodkordir. Bunday shaxsiyat va bunday ulkan ijod faqat Olloh yaratgan iste’dodning kashfiyotidir. Bunday shaxslar va ular yaratgan she’riyat butun dunyo bilan birga qoladi.

www.ziyouz.com kutubxonasi

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

I. Ijtimoiy-siyosiy adabiyotlar

1.1 Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat — yengilmas kuch. — T.: O'zbekiston, 2008. —174 b.
1.2. Каримов И . А Адабиётга эътибор — маънавиятга, келажакка эътибор.—Toshkent: Ўзбекистон, 2009
1.3. Mirziyoyev Sh.M. Adabiyot va san'at, madaniyatni rivojlantirish — xalqimiz ma'naviy olamini yuksaltirishning mustahkam poydevoridir. //Xalq so'zi gazetasi. — Toshkent, 2017 yil. 4 avgust.
1.4. Mirziyoyev Sh. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan quramiz. —Toshkent : O'zbekiston NMIU, 2017. — 488 b.

II. Ilmiy adabiyotlar

2.1. Афоқова Н. Жадид шеърияти поэтикаси. — Тошкент: Фан, 2005. — 140 б
2.2. Boboyev T. Adabiyotshunoslikka kirish. Toshkent — 2002. — 636 b
2.3 Ҳамдам У. Янги ўзбек шеърияти. — Т.: Адиб нашриёти, 2012. —122 б.
2.4. Ҳамдамов У. Янгиланиш эҳтиёжи. — Т.: Фан, 2007. — 196 бет.
2.5. Ҳатамов Н. Саримсаков Б. Русско-узбекский толковий словар литературоведческих терминов.— Ташкент: Укитувчи, 1979. — 361 б
2.6. Жабборов Н. Замон. Мезон. Шеърият. — Т.: Ғ.Ғулом номидаги нашриёт матбаа бирлашмаси, 2015. — 304 б.

www.ziyouz.com kutubxonasi

2.7. Каримов Н. XX аср адабиёти манзаралари. — Т.: Адабиёт ва санъат, 2007. — 536 б.
2.8. Мамажонов С. Ранглар ва оҳанглар. — Т.: Ғ.Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1978. — 158 б.
2.9. Musaqulov. A. O‘zbek xalq lirikasi. — Toshkent: Fan, 2010. — 308 b
2.10. Mirvaliyev S .O‘zbek adiblari. —Toshkent: Fan, 1993. — 157.b
2.11. Ҳатамов Н. Саримсаков Б. Русско-узбекский толковий словар литературоведческих терминов.—Ташкент: Укитувчи, 1979. — 361 б
2.12. Quronov Dilmurod. Adabiyot nazariyasi asoslari. — Тошкент: Navoiy universiteti, 2018. —490 b
2.13. Quronov Dilmurod. Adabiyotshunoslikka kirish. —T.:Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004. — 225 b
2.14. Раҳимжонов Н. Давр ва ўзбек лирикаси. — Т.: Фан, 1979. — 192 б.
2.15. Раҳимжонов Н. Шоир ва давр. — Т.: Ғ.Ғулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1983. — 184 б.
2.16. Раҳимжонов Н. Мустақиллик даври Ўзбек шеърияти. — Тошкент: Фан, 2007. — 260 б
2.17.Sulton I. Adabiyot nazariyasi. — T.: O‘qituvchi, 2005. — 270 b.
2.18. Сўнгги дарвеш (Эсселар, хотиралар, суҳбатлар, бағишловлар) (nashr qilinmagan) . — 272 б
2.19. Ulug‘ov A. Adabiyotshunoslik nazariyasi. — T.: G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2018. — 308 b.
2.20. Умуров Ҳ. Адабиёт назарияси. — Т.: А.Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти, 2004. — 260 б.

www.ziyouz.com kutubxonasi

2.21. Umurov Hotam. Badiiy ijod asoslari. —Toshkent: O‘qituvchi, 2001. — 120 b
2.22. Воҳидов Р., Эшонқулов Ҳ. Ўзбек мумтоз адабиёти тарихи. — Т.: Ўзбекистон Ёзувчилар уюшмаси Адабиёт жамғармаси нашриёти, 2006. — 528 б.
2.23. Yo‘ldoshev Qozoqboy va boshqalar . Adabiyot (9-sinf, darslik). — Toshkent : O‘qituvchi, 2014. —273 b
2.24. O‘rayeva D.S. O‘zbek xalq lirik qo‘shiqlarida parallellizmlarning xarakteri va badiiy-kompozitsion vazifalari. (Filologiya fanlari nomzodi ilmiy darajasini olish uchun taqdim etilgan dissertatsiya avtoreferati). —Toshkent, 1993. — 20 b.
2.25. O‘rayeva D.S. O‘zbek xalq qo‘shiqlarida parallelizm. — Toshkent: Navro‘z, 2019. — 167 b.
2.26. O‘rayeva D, Quvvatova D. Jahon adabiyoti atamalarining izohli lug‘ati. —Toshkent: Turon zamin ziyo, 2015. — 163 b
2.27. Adabiyot nazariyasi. II jildlik (2-jild). —Toshkent: Fan, 1979. —449 b.

III. Badiiy adabiyotlar

3.1. Abdulla Qodiriy . To‘la asarlar to‘plami (1-jild). —Toshkent: Fan, 1995. — 293b.
3.2. Bahor bulbullarining chah-chahi. (Yosh tarjimonlar bayozi) — Toshkent: Cho‘lpon nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2016. — 82 b.
3.3. Mahmudxo‘ja Behbudiy. Tanlangan asarlar. — Toshkent: Ma’naviyat, 1999. — 203 b.
3.4. Рауф Парфи. Туркистон руҳи. — Тошкент: Шарқ, 2013. — 319 b.
3.5. Рауф Парфи. Хотирот. — Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1975. — 79 b.

www.ziyouz.com kutubxonasi

3.6. Рауф Парфи. Қайтиш. — Т.: Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981. — 192 b.
3.7. Рауф Парфи. Сакина. — Т.: Муҳаррир нашриёти, 2013. — 376 б.
3.8. Рауф Парфи. Кузлар. — Т.: Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1978. — 76 б.
3.9. Рауф Парфи. Тавба . —Т.: Ёзувчи, 2000. — 34 б.
3.10. Рауф Парфи. Тасвир. — Т.: Адабиёт ва санъат, 1973.— 32 б.
3.11. Рауф Парфи. Она Туркистон. — Т.: Адабиёт ва санъат , 1993. — 26 б.
3.12. Sulhida Parfiyeva. Kunlarim. (Rauf Parfi bilan kechgan damlari haqida xotira. Nashr qilinmagan).

IV. Jurnallar va gazetalar

4.1. Haq yo‘li, albatta, bir o‘tulgusi... (Shoir A’zam O‘ktamning Rauf Parfi bilan suhbati). // “Mushtum” jurnali, 1990 yil, 22-son.
4.2. Mirpo‘lat Mirzo. Rauf Parfi davrimizning yagona daho shoiri. // “Yoshlik” jurnali, 2009-yil, 4-son.
4.3. N.Rahimjonov. Rauf Parfi adabiy-estetik qarashlari.// “Sharq yulduzi” jurnali, 2012-yil, 2-son.
4.4. Olim Oltinbek. Xokkuning ilk tarjimoni.// “Sharq yulduzi” jurnali, 2016-yil, 9-son.
4.5.Tojiddin Razzoq. Dunyolarni mehrga to‘ldiraman .// “Yoshlik” jurnali, 2011-yil, 11-son.
4.6. Xonimqul Tojiyev, Obidaxon Fayzullayeva. Rauf Parfi ijodida sonet.// “Sharq yulduzi” jurnali, 2016-yil.
4.7. Zulxumor Mirzayeva. Bir tush ko‘rdim, tushimda... “Yoshlik” jurnali, 2013-yil, 9-son.

www.ziyouz.com kutubxonasi

4.8. Behzod Fazliddin. Rauf Parfi she'riyatida shamol obrazi.// Ulusrarasi türk dünyası araştırmaları dergısı. Cılt :1 —Sayı: 1-Temmuz 2018

V. Internet saytlari

5.1. Aleksandr Blok. She'rlar. www.kh-davron.uz
5.2. Olim Oltinbek. Rauf Parfining adabiy-estetik qarashlari. // www.kh-davron.uz.
5.3. Olim Oltinbak. Rauf Parfi va jahon adabiyoti .// www.kh-davron.uz
5.4. Olim Oltinbek. Qrim xayollari.// www.kh-davron.uz
5.5. Xurshid Davron. Pol Verlen, Van Gog va Rauf Parfi.// www.kh-davron.uz
5.6. Yo'ldosh Eshbek. Xushomad ko'chasiga kirmagan shoir. // www.ishonch.uz
5.7. Yo'ldosh Solijonov. Sabr daraxti. www.kh-davron.uz
5.8. www.saviya.uz
5.9. www.ziyouz.com kutubxonasi
5.10. Serbest şiir, Serbest nazım nedir? Özellikleri örnekler. www.turkedebiyati.org
5.11. www.yoshlikjurnali.uz

www.ziyouz.com kutubxonasi

www.ziyouz.com kutubxonasi

MUNDARIJA

Muqaddima.....3

I BOB. IJODKOR SHAXSIYATI VA DUNYOQARASHI

1.1. Rauf Parfi shaxsiyati va dunyoqarashining shakllanish omillari.....5
1.2. Rauf Parfi she'riyatining mavzular olami.....27

II BOB. RAUF PARFI SHE'RIYATI JANRIY TARKIBI VA SHAKLIY O'ZIGA XOSLIKLARI

2.1. Shoir she'riyatida janriy yangilanishlar.....59
2.2. Rauf Parfi she'riyatining g'oyaviy manbalari.....92
2.3. Rauf Parfi ijodining vazn xususiyatlari.....98
II bob yuzasidan xulosa.....105

III BOB. RAUF PARFI SHE'RIYATI BADIIYATIGA XOS AYRIM JIHATLAR

3 .1. Shoir she'riyatining obrazlar olami.....107
3.2. Rauf Parfi she'riyatida oksimoron san'ati va ranglarning timsoliy olami.....107
3.3. Rauf Parfi ijodida psixologik parallelizm.....125
III bob yuzasidan xulosa.....131

XULOSA.....133
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR.....137

www.ziyouz.com kutubxonasi

Ilmiy nashr

Ruxsora Imomova

RAUF PARFINING BADIIY MAHORATI

Monografiya

Muharrir:
Husan Maqsudov

Musahhih:
Mohlaroy G‘ofurjonova

Sahifalovchi:
Hasan O‘ktam o‘g‘li

Tasdiqnoma raqami № 5566
Bosishga 2023-yil 4-dekabrda ruxsat etildi.
Bichimi 84x108 $^{1}/_{32}$. “EB Garamond” garniturasi.
Ofset bosma usulida bosildi.
9 bosma taboq. Adadi 500 nusxa.
Bahosi kelishilgan narxda.

“Anorbooks” nashriyotida tayyorlandi va chop etildi.
Toshkent shahri, Olmazor tumani,
Qiziltut ko‘chasi, 7-uy.
(+99899) 335-66-00

www.ziyouz.com kutubxonasi